



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

2025-yil 1(2)-son



TORC6

**“IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-
INNOVATSION TADQIQOTLAR”**

ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Sulaymanov Salamat Arepbayevich — tarix fanlari doktori, dotsent
- Tangirbergenova Kalligul — tarix fanlari nomzodi, dotsent
- Akimniyazova Gulnaz Abdinayimovna, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxom Abduxalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor
- Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich -
Filologiya fanlari doktori DSc, dotsent

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor

- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanəzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboyevich — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husniddin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar, tahrir hay'ati hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali kabi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda kelishilgan holda o'zgartirish kiritish mumkin.

© PUBLISHSCIENCE LLC

© Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

MUNDARIJA

09.00.00 - Falsafa.....	6
YOSHLARDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING TUTGAN O‘RNI	6
Suvanova Dilnura Kurbanovna	6
Qoraboyev Suxrob Mustafakulovich.....	6
ANTIK DAVR FALSAFASIDA INSON MUAMMOSINING TAHLILI.....	11
G.T. Kabulniyazova.....	11
13.00.00 – Pedagogika	15
SHTURM- LIUVILL OPERATORI PARAMETLARINI TIKLASHDA SPEKTRAL BERILGANLARNI ALMASHTIRISH MASALASI.....	15
Rabimkul Abdunazarov	15
OLIY TALIM MUASSASALARIDAGI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH XALQARO STANDARTLARNI QO‘LLASH.....	22
Hamdamov Yusufjon Mahammadjon o‘g‘li.....	22
TEXNIKA OLIY O‘QUV YURTLARIDA IMITATSION-VARIATIVLIK ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	26
Obidov Jamshidbek G‘ayratjon o‘g‘li	26
BOSHLANG‘ICH SINIF “O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	32
Sayfiddinova Jamila Ziyodaulla qizi	32
Asrorova Madina Orzuyevna.....	32
10.00.00 - Filologiya	38
XORAZM MATBUOTI TARIXIDAN	38
Iqboloy Adizova Istamovna.....	38
NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G‘AZALLARIDA IRFONiy G‘OYALAR TALQINI.....	48
Bekova Nazora	48
O‘ZBEK TILIDAGI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING NAZARIY ASOSLARI	57
Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich	57
SHOIRA LIRIKASIDA KO‘NGUL OBRAZI VA TASVIR MAHORATI	62
Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna	62
BADIIY MATNDA OKKOZIONALIZMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	72
Ibragimov Xayrulla Hamdamovich	72
G‘AFUR G‘ULOM SHE’RIYATIDA MILLIY G‘URUR VA IFTIXOR TUYG‘ULARI TASVIRI	76
Tozagul Matyoqubova.....	76
ALISHER NAVOIY IJODIYOTIDA TELBALIKNING MOTIVLASHTIRILISHI	82
Rajabova Ma’rifat Baqoyevna.....	82

SAKKOKIY IJODIDA QUR’ONI KARIM OYATLARIGA MUROJAAT	88
Israilov G‘ayrat Boyzoq o‘g‘li	88
19.00.00 – Psixologiya	92
O‘SMIR O‘QUVCHILARDA XAVOTIRLANISHGA BERILUVCHANLIKNI ANIQLASHNING USLUBIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH	92
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	92
22.00.00 – Sotsiologiya	100
ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA DINIY AN’ANALARNI O‘RGANISHDAGI YONDASHUVLAR.....	100
Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi.....	100

09.00.00 - Falsafa

**YOSHLARDA ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY
QADRIYATLARNING TUTGAN O'RNI**

Suvanova Dilnura Kurbanovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrası assistenti
d.suvanova@mail.ru , +998937296043
ORCID ID <https://orcid.org/0009-0007-9414-4775>

Qoraboyev Suxrob Mustafakulovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrası assistenti
+998906051096

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda milliy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida ko'rib o'tilgan. Milliy qadriyatlarni tiklash va estetik madaniyatni shakllantirishning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi tahlil qilingan. Milliy qadriyatlarni tiklash va estetik madaniyatni shakllantirishning huquqiy asoslari, ularning milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar bilan bog'liqligi to'g'risida fikr bildirilgan. Qadriyatlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va uning rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, tizimli va qonuniyatli jarayon, estetik madaniyat, uning urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar bilan bog'liqligi, qadriyatlar tizimi va estetik madaniyatning uyg'unligi.

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ И ИХ РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ
ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ**

Аннотация: В статье восстановление и развитие национальных ценностей в Узбекистане рассматривается как системный и законный процесс. Анализируется связь между восстановлением национальных ценностей и формированием эстетической культуры. Высказано мнение о правовых основах восстановления национальных ценностей и формирования эстетической культуры, их связи с национальными обычаями, традициями, ритуалами, обрядами. Изучена роль ценностей в жизни общества и особенности его развития.

Ключевые слова: Национальные ценности, системно-правовой процесс, эстетическая культура, ее связь с обычаями, традициями, ритуалами, обрядами, система ценностей и гармония эстетической культуры.

**NATIONAL VALUES AND THEIR ROLE IN FORMING
AESTHETIC CULTURE IN YOUTH**

Annotation: The article considers the restoration and development of national values in Uzbekistan as a systematic and legal process. The relationship between restoration of national values and formation of aesthetic culture is analyzed. An opinion was expressed on the legal bases of restoration of national values and formation of aesthetic culture, their connection with national customs, traditions, customs, and ceremonies. The role of values in the life of society and its development characteristics are studied.

Key words: National values, systematic and legal process, aesthetic culture, its connection with customs, traditions, traditions, rituals, value system and harmony of aesthetic culture.

KIRISH.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida milliy qadriyatlarni tiklash, estetik madaniyatni shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Milliy qadriyatlarni tiklash, estetik madaniyatni shakllantirish jarayoni jamiyatdagi ma'naviy yangilanish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, fuqarolarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini qaror toptirish asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy g'oyasi insonni ulug'lash, uning huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda har tomonlama kamol toptirishdan iborat bo'lib, ushbu jarayonda milliy qadriyatlarni tiklash va fuqarolarning estetik madaniyatini shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi shiddatli o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan farzandlarimiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - zamon talablariga uyg'un bo'lish bilan birga, o'zligini, milliy qadriyatlarini ham hech qachon unutmasligi kerak.

Milliy qadriyatlarni tiklash va fuqarolarning estetik madaniyatini shakllantirishdan asosiy maqsad fuqarolar, eng avvalo yoshlarda qanday ulug' zotlarning avlodi ekanligi to'g'risidagi tafakkurni shakllantirish, faxrlanish tuyg'usini qaror toptirish, doimo ularga munosib voris bo'lish to'g'risidagi dunyoqarashni vujudga keltirishdan iboratdir.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda qadriyatlarni qayta baholash, azaliy milliy qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish, islohot va o'zgarishlarning xalqimiz ongida yangicha qadriyatlarga aylanib borayotgan jihatlarini aniqlash, mavjud muammolarni hal qilishda ana shu qadriyatlarga mos bo'lgan yangi usullarni qo'llash masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda qadriyatlar sohasini o'rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo'nalishi shakllangan bo'lib, aksiologiya (yunoncha axio – qadriyat va logos – fan, ta'limot), XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasidir. Zamonaviy Aksiologiyada ob'yektiv, sub'yektiv va plyuralistik oqim hamda yo'nalishlar mavjud bo'lib, Aksiologiya "qadr", "qadrlash", "qadriyatlar", "qadriyatlar tizimi" kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o'rganadi. Qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o'zgarishi va takomillashuvi bilan bog'liq aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug'ullanadigan masalalar doirasiga kiradi. Jamiyat hayotidagi o'zgarish va yangilanish jarayoni bilan birga ijtimoiy hayotdagi qadriyatlar tizimi ham o'zgarib va yangilanib boradi. Aksiologiya – qadriyatlar nazariyasida aksiologik qonunlar, aksiologik jarayonlar, aksiologik profilaktika, aksiologik prognoz, aksiologik ekspertiza, aksiologik baholash, aksiologik ziddiyat qonuni kabi tushunchalar mavjuttur.

Qadriyatlar jamiyat hayotida har bir millatning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagini o'zaro bog'liqlikda va aloqadorlikda ko'rib o'tadi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va doimo takomillashib boradi. Qadriyatlar milliy, diniy, mahalliy, mintaqaviy, umuminsoniy kabi bir qancha turlarga bo'linadi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha

takomillashib boraveradi. Bugungi globallashuv sharoitida o'z milliy moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o'ziga xos an'analari, urf-odatlar va o'lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Tarixiy taraqqiyotda qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylanib borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan munosabatida, estetik madaniyatning shakllanishida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar millat ma'naviyatining asosini tashkil etadi. Tarixiy taraqqiyotda insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, mentaliteti shakllanib borishi jarayonida milliy qadriyatlar estetik madaniyat bilan bog'liq ravishda takomillashib boradi. Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlar, tarixi, madaniyati, an'analari, moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Milliy qadriyatlarda millatning ma'naviy qiyofasi aks ettiriladi. O'zbek xalqining estetik madaniyatini o'zida aks ettiradigan ona Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, mehmonga, o'zidan kattalarga ehtirom, o'zidan kichiklarga hurmat, ota-ona, qarindosh-urug'larga samimiy hurmat, birovning xaqiga xiyonat qilmaslik, xayr-ehsonli bo'lish, hayo va andishani saqlash, oilasini asrab-avaylash kabi ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - ...Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftihor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

O'zbekistonda xalqimizning tarixiy xotirasini, milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlarini, moddiy va ma'naviy merosi, estetik madaniyati, milliy qadriyatlarini tiklash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda oilada farzandlar, ota-onalar, bobo-buvilar o'rtasidagi munosabatlar estetik madaniyat talablari asosida shakllantirilmoqda. O'zaro bir-birini hurmat qilish, bir-birining holidan xabar olish, to'y, maraka, xasharlarda bir-birini qo'llab-quvvatlash, aqqa, beshik to'y, sunnat to'y, muchal to'y, nikoh to'yidagi bir-biridan go'zal urf-odat va an'ana xalqimizning estetik madaniyati qadimgi va boy an'analarga tayanishini ko'rsatmoqda. Mahalla ham milliy urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar va milliy qadriyatlar vorislik asosida bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazib beriladigan muhim ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. Inson estetik madaniyatning barcha ilg'or yutuqlarini chuqur o'rganish orqali o'zida qator ijtimoiy sifatlarni shakllantiradi. Mustahkam imon-e'tiqod shaxsning muhim ijtimoiy sifati sifatida yuksak baholanadi.

Milliy qadriyatlar yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlarning milliy qadriyatlarga amal qilishi ularni estetik jihatdan faol bo'lishiga olib keladi. Inson tevarak-atrofni go'zallik qonunlari asosida o'zgartirishga, go'zallikni yaratishga harakat qiladi. Yoshlarning estetik madaniyati ularning estetik his-tuyg'usi, bilimi, dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Estetik madaniyat jamiyatning san'at, go'zallik va estetik qadriyatlarga bo'lgan munosabatini o'zida ifodalaydi. Jamiyatning estetik madaniyatiga uning san'atga bo'lgan qiziqishi, san'at asarlarini baholash qobiliyati, estetik qadriyatlarga hurmat va go'zallikni idrok etish kabilar kiradi. Estetik madaniyat jamiyatning madaniy boyligi va badiiy mahoratining ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Estetik madaniyat – insonning estetik faoliyati jarayoni, uning natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Estetik madaniyatda ijtimoiy birliklarning ehtiyoj va manfaatlari, o'ziga xosliklari, jahon tarixida tutgan o'rni, turli ijtimoiy tizimlarga bo'lgan munosabati ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarning estetik madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlar haqida turli xil fikrlar bildirilgan bo‘lib, shularning birida aytilishicha, - milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog‘liq holda shakllandi. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etdi. Shu tariqa millatimiz o‘ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib bordi.

Boshqa bir ta’rifda esa, - bugungi zamonaviy qadriyatshunoslik fanida milliy qadriyatlar kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi. Rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi, deyiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turishidan hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asosdan bilib olsa bo‘ladi, - deyilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Milliy qadriyatlar yoshlarda estetik madaniyatning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. 2016 yil 14 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-406-sonli “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonunning 12/1-moddasida madaniyat organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, haqida so‘z yuritilgan. Ushbu qonunda madaniyat organlari yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi, yoshlar o‘rtasida badiiy ijodiyot, xalq va havaskorlik ijodiyoti targ‘ibotini amalga oshirishi, yoshlar o‘rtasida kino, teatr, musiqa, xoreografiya, tasviriy san’atni, sirk, xalq amaliy san’atini va estrada san’atini rivojlantirishga, ularning g‘oyaviy-badiiy va axloqiy saviyasini oshirishga ko‘maklashishi, ko‘rsatib o‘tilgan. Ijodkor yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z iqtidori va iste’dodini to‘laqonli namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalasiga e’tibor qaratilgan.

2020 yil 30 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingan bo‘lib, ushbu farmonda, - yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘z kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari!” g‘oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash, masalalariga e’tibor berilgan.

XULOSA

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni va ahamiyati masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi masalasiga e’tibor kuchaytirilmoqda. Yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish jamiyatning ma’naviy yangilanishida, estetik madaniyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2023 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlatgina yuksak taraqqiyotga erishadi // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2020 yil.
3. <https://oyina.uz/kiril/teahause/1133>

4. <https://uza.uz/uz/posts/adriyatlar-adri-17-05-2020>
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild, Toshkent, O'zbekiston, 2019 yil.
6. Estetika. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent, Universitet, 2019 yil.
7. Islom va milliy qadriyatlar. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/2727>
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'RQ-406-son. 14.09.2016. <https://www.lex.uz/acts/3026246>

09.00.00 - Falsafa

ANTI-K DAVR FALSAFASIDA INSON MUAMMOSINING TAHLILI

G.T. Kabulniyazova

O'zMu falsafa va mantiq kafedrası f.f.d., prof.v.b.

Annotatsiya: Maqolada qadimgi yunon falsafasida, jumladan, So'qrot, Aflotun va Arastuning qarashlarida inson muammosiga qanday yondashuvlar mavjud bo'lganligi o'rganib chiqilgan. Inson muammosini tahlil qilishda So'qrot ko'proq ahloqiy yondashuvni shakllantirgan, Aflotun esa insondagi individual jonni olamiy jon va g'oyalar bilan aloqasini o'rganib chiqqan. Arastu uchun esa inson birinchi navbatda polis, ya'ni antik shahar jamoasining fuqarosidir, shuning uchun komil insonni Arastu komil fuqaro bilan aynanlashtiradi, maqolada bu qarashlardagi farqlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Suqrotning axloqiy antropologiyasi, «O'zingni o'zing bil», Aflotun, individual jon va olamiy jon, haqiqat va eros, Arastu antropologiyasi, inson – siyosiy hayvon sifatida.

АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ЧЕЛОВЕКА В АНТИЧНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация: В статье изучаются подходы к проблеме человека в древнегреческой философии, в частности у Сократа, Платона и Аристотеля. При анализе проблемы человека Сократ выстраивает преимущественно этический подход, Платон исследует связь индивидуальной души человека с мировой душой и идеями. Для Аристотеля человек прежде всего является гражданином полиса — античного городского сообщества, поэтому он отождествляет совершенного человека с совершенным гражданином. В статье освещаются различия в этих взглядах.

Ключевые слова: Этическая антропология Сократа, «Познай самого себя», Платон, индивидуальная душа и мировая душа, истина и эрос, антропология Аристотеля, человек как политическое животное.

ANALYSIS OF THE PROBLEM OF HUMANITY IN ANCIENT PHILOSOPHY

Abstract: This article explores the approaches to the problem of humanity in ancient Greek philosophy, particularly those of Socrates, Plato, and Aristotle. In analyzing the problem of humanity, Socrates primarily developed an ethical approach; Plato examined the connection between the individual soul and the universal soul and ideas. For Aristotle, man is primarily a citizen of the polis, the ancient city-state, and thus he identifies the perfect human with the perfect citizen. The article highlights the differences between these perspectives.

Keywords: Socratic ethical anthropology, "Know thyself," Plato, individual soul and universal soul, truth and eros, Aristotelian anthropology, man as a political animal.

Antik davr falsafasining eng mashhur faylasuflaridan biri Suqrot qarashlari markazida inson turadi. Ammo inson Suqrot tomonidan faqat ma'naviy mavjudot sifatida izohlangan. Shu nuqtai nazardan, Suqrot falsafasi – bu axloqiy antropologizm. Bundan tashqari, uning falsafasini diqqat markazida boshqa sofistlardan farqli o'laroq, naturfilosofiya emas, balki bilish nazariyasi (epistemologiya) va axloqiy-siyosiy masalalar turadi. Suqrotrining bilish nazariyasida tortishuv, suhbat, munozara yordamida tushunchalarni tahlil qilish, ularni ta'riflash qiziqtirgan. Axloqiy-siyosiy sohada esa, uning maqsadi sofistlarning shubhanoma (skeptitsizm) falsafasini rad etishdan iborat bo'lgan. Bu yerda uning asosiy tezisi umumiy

ezgulik va adolat hisoblangan qadriyatlar va me'yorlar mavjud, degan qoida hisoblangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Suqrot etikasining asosiy tamoyillari, shartli ravishda, «ezgulik» va «bilim» birlikni tashkil etadi, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Adolat nima ekanligini bilib olgan inson, adolatli ish tutadi, harakat qiladi. Adolatni mohiyatini tushungan va adolatli faoliyat ko'rsatgan odam baxtli bo'ladi.

Suqrot falsafasi aniq real odamga qaratilgan. Unga mifologiya ham, fizika ham yot. U mifologiya sharhlovchilarini mehnati kam samara beruvchilar, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, Suqrotni tabiat ham kam qiziqtirgan. «O'zingni-o'zing bil», «Men bilamanki, hech narsani bilmayman» hikmatlar Suqrot falsafasini mohiyatini belgilaydi.

Suqrot uchun o'z-o'zini bilish masalasi muayyan mohiyatga ega bo'lgan. O'zini o'zi bilish – demak o'zini ijtimoiy va ma'naviy mavjudot sifatida shu bilan birga, faqat shaxs sifatidagina emas, balki umuman inson sifatida anglab yetish demakdir. Suqrot falsafasini asosiy mazmuni va maqsadini axloqiy masalalar tashkil etadi. Bu haqda keyinchalik Arastu «Suqrot axloqiy masalalar bilan shug'ullangan, tabiatni umuman tadqiq etmagan» deb yozadi.

Suqrot inson masalasini o'rta qo'yar ekan, avvalo, uning mohiyatini belgilovchi ezgulik va axloq masalasiga to'xtalgan. Ezgulik, yaxshilik tushunchalari *arete* so'zi bilan ifodalagan.

Yaxshilik-*arete* insonning haqiqiy imkoniyatlarini jamoada mujassamlashuvi demakdir. Shu ma'noda, yaxshilik ijobiy mohiyatga ega bo'lgan. *Arete* so'zining asosiy mohiyati axloqiy kamolotga erishish. *Aretega* ega bo'lgan kishi o'z ishini qanday zarur bo'lsa, shunday bajaradi. O'qituvchi talabga muvofiq o'qitsa, u *aretega* erishgan bo'ladi. Umuman olganda, Suqrot antik va jahon falsafasi taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk mutafakkirdir.

Suqrotning shogirdi bo'lgan mashhur yunon faylasufi Aflotunning inson xaqidagi qarashlarini ham qisqacha tahlil qilish zarurdir. Aflotunning inson xaqidagi qarashlarida uning faravonlik g'oyasi muhimo'rin egallaydi. Aflotunning faravonlik «g'oyasi» haqidagi ta'limoti uning dunyoqarashidagi barcha tizimlari ob'ektiv idealizm xarakterini anglatib qolmay, balki teologik idealizm hisoblanadi. «G'oyalar» hukmronligi – maqsadga muvofiq hukmronlikdir. Aynan faravonlik g'oyasi barcha g'oyalarni muayyan birlikka chorlaydi. Bu birlik maqsaddadir. Dunyodagi hukmronlik qiluvchi tartibotlar, maqsadga muvofiq tartibotlardir. Ularning barchasi faravonlik maqsadiga qaratilgan bo'ladi. Har qanday vaqtinchalik va nisbiy mavjudlik qandaydir ob'ektiv borliq maqsadiga egadir.

«Maqsad bo'lishi bilan birga u faravonlik hisoblanadi» – deb yozadi Aflotun. Bu borliq barcha jismlarning mohiyatini tashkil etadi. Barcha narsalar faravonlikka erishishga intiladi. Garchand hissiy jismlarda unga erishish mumkin bo'lmasa-da, barcha jonli mahuqotlar uchun oliy maqsad – baxt hisoblanadi. Lekin baxt faravonlik bo'lgandagina bo'ladi, - deydi faylasuf. Shuning uchun har qanday jon faravonlikka intiladi va ilk barcha narsalar faravonlik uchun amalga oshiriladi.

«Faravonlik g'oyasi» siz barcha insoniy bilimlar, u hatto mukammal bo'lmasin, baribir foydasizdir. Ob'ekt maqsadga muvofiqlik to'g'risidagi Aflotun ta'limoti teologikdir, uning teologiyasi ya'ni ilohiyot va xudolar to'g'risidagi ta'limoti bilan chambarchas bog'liq. Xudo nafaqat tirik mavjudot – u mutlaq faravonlikdir. Shuning uchun inson ilohiyotga intilishi zarurdir. Faravonlikni bilish istagida u xudoni bilishga intiladi: faravonlikka erishish uchun u xudoning mohiyatiga aloqador bo'lishga intiladi. Bu hol xaqida Aflotun «Qonunlar» asarida shunday deydi: «Xudo barcha narsalarning ibtidosi, o'rtasi va nihoyasidir. U shuning uchun ibtidoki, hamma narsa undan kelib chiqadi: shuning uchun o'rtalikdirki, u barcha narsalarning mohiyatini tashkil etadi. Kelib chiqish xususiyatiga egadir. Shuning uchun nihoyatki, barcha narsa o'z maqsadiga intilgani kabi unga intiladi».

Faravonlik uning uchun yuqorida aytganimizdek, borliqdan va inson bilimidan yuqori turadi. Ba'zan Aflotun «faravonlik»ni aql bilan tenglashtiradi. Chunki Aflotun fikricha oqillik maqsadga muvofiq kelishlikda namoyon bo'ladi. Shuning uchun mutafakkir «faravonlik»ni

maqsadga muvofiqlik bilan yaqinlashtiradi. O'z navbatida maqsadga muvofiq bu narsalarning o'z g'oyalari muvofiq kelishidir, deydi. Shuning uchun narsalarning farovonligini bilish bu demak «g'oyalarning» barcha turli hissiy, sababiy bog'liq hodisalarni ularning g'ayrihissiy va muvofiq borliqqa yoki qonunga muvofiqlashtirishdir.

Shuningdek Aflotun «Fileb» asarida inson uchun farovonlikning to'liq tavsifini keltiradi. Dialogda «inson farovonligi» sharti sifatida quyidagilar keltiriladi:

1. G'oyalarning abadiy tabiatda ishtirok etishi.
2. G'oyalarni haqiqatga aylantirish.
3. Ongning mavjudligi va bilimga ega bo'lishlik.
4. Ba'zi fanlar, san'atlar, shuningdek to'g'ri mulohazalarga ega bo'lishlik.
5. Ba'zi sof hissiy lazmatlar turlaridan, masalan kuyning sof ohanglari yoki rasmdagi gullarning lazmatidan bahramand bo'lishlik.

Aflotunning fikricha, «dunyoviy jon» markazdan harakat qilib, butun olamni o'rab oladi yoki uni kiyintiradi. U tartibotning ibtidosi va konziniy tuzilishining boshlanishidir. Osmon yoritgichlari undan hayot oladilar. Hatto dunyoviy jonning shakllanishi pifagorchilarning raqamlar haqidagi ta'limotiga taalluqlidir.

Aflotunning bilish nazariyasi uning antologik qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek uning bilish nazariyasi jon haqidagi ta'limoti bilan ham chambarchas bog'liqdir. Aflotun fikricha jon nohissiy «g'oyalar» tabiati bilan o'xshash bo'lishi kerak. Jon o'z-o'zicha biror narsani bilishga intilar ekan, u toza, abadiy, barhayot va o'zgarmas joyga yo'l oladi, - deydi Aflotun. Doimiylik va o'zgarmaslik bilan yonma-yon turuvchi jon o'zida o'sha xususiyatlarni ko'radi. Bu uning (jonning – G.Q.) holatidir, va uni mulohaza deb atashadi. Jon mulohaza yuritish bilan o'zgaruvchanlikka emas, o'zgarmovchilikka «qat'iyyat» va shakshubhasiz yaqin turadi. Jon o'z yo'licha oliy darajada, ilohiy, abadiy, aql orqali bilinuvchi, yagona shaklli parchalanmaydigan, barqaror va o'zgarmasdir. Insonning butun hayotida jon ongli ravishda tana bilan har qanday aloqadan o'zini olib qochsa, o'z-o'zida o'zini saqlay olsa, boshqacha qilib aytganda haqiqiy falsafaga o'zini bag'ishlangan jonlar xudolar orasidan abadul-abad o'rin oladi. Ayni shu paytning o'zida harakatning sababchisi bo'lgan, jon abadiy harakatsiz bo'lib qoladi. Xuddi shuning uchun (jon.) «g'oya» ga o'hshab ketadi. Lekin to'liq g'oyadek bo'la olmaydi. Jon zamon sharoitidan va borliqning o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda «taalluqlidir». Ayni bir paytning o'zida jon paydo bo'lishiga ham taalluqlidir. Aflotun jonning uch xil holati haqida fikr yuritadi. Shunday fikr Pifagorda ham bo'lgan, uning fikricha inson joni uch qismdan iboratdir. Bu qismlar quyidagicha:

1. Oqil qism.
2. Affektiv qism.
3. Nafsiy qism.

Aflotun aqlni miyaga joylashgan desa, affektiv qismi ko'krak qafasiga, nafsiy ibtido ko'krak qafasidan pastda, qorni bo'shliqda joylashgan, deydi. Bilim Aflotun fikricha, rangsiz, shaklsiz va aniqlanmaydigan mohiyatdir. Bilim faqat jonga ozuqa beruvchi – aqlga (xudoga – G.Q.) ko'rinishi mumkin. Ma'lum vaqt o'tishi bilan borliqni ko'rgan jonbundan mamnun bo'ladi. Haqiqatni kuzatuvchi jon undan ozuqa olib, baxtiyor bo'ladi.

Ijodiy jarayonni Aflotun haqiqatdan yiroq, idealistik ma'noda tushunadi. U badiiy ilhomni bilish jarayoniga qarama-qarshi qo'yadi. Musavvirning ilhomi aqldan yiroq, aqlga qarshidir. Ijodiy jarayonni Aflotun «ruhlanish» va «ilohiy kuch» atamalari orqali uni asoslashga intiladi. Shoir san'ati va bilimi bilan ijod qilmay, balki ilohiy quvvatdan ijod qiladi, deydi faylasuf. Shunday qilib, faylasuf shoirona ijodni mistik nazariya orqali rivojlantiradi. Bu nazariyaga binoan musavvir behosdan (beixtiyor) va telbaga o'xshab ijod qiladi. Bu ijodiy akt o'z-o'zicha aqldan yiroq xarakterga ega. Musavvir va shoir o'zlari nima qilayotganlarini bilmay ijod qiladilar. Haqiqiy ijod ilohiyliksiz bo'lmaydi. Estetikaning ijtimoiy tomoni ham faylasufni qiziqtiradi.

Inson o'z tabiatiga binoan ijtimoiy mavjudotdir. Bordi-yu biron-bir kishi muayyan sharoitlarga ko'ra emas, balki o'z tabiatiga ko'ra, davlatdan tashqarida yashasa, unda ma'naviy jihatdan yetilmagan bo'ladi.

Komil inson mukammal fuqaro bo'lishi kerak, mukammal fuqaro bo'lishi uchun davlat ham mukammal bo'lishi kerak. bu qarash oliy darajadagi yunon shahar-davlat hayotini kuzatvchi va tadqiq qiluvchi Arastuga o'xshagan kishilarga xosdir.

Davlat o'z tabiatiga ko'ra oila va individ tabiatidan yuqori turishi kerak. chunki yaxlitlik (bir butunlik) o'z qismlaridan avval kelishi kerak. darhaqiqat har qanday predmet o'zi amalga oshiruvchi akt hamda bu akt bilan aniqlanadi. Agar bu xususiyatlar predmetda yo'qolgan bo'lsa, unda u haqda gap bo'lishi mumkin emas, uning faqat belgisi qoladi xolos. Shuning uchun, alohida olingan kishi birov bilan muomalaga kirisha olmasa, yoki o'zini hamma narsada yetarli va biron bir narsaga ehtiyojini sezmasa, davlatning elementi hisoblanmay, yo hayvonga, yoki xudoga aylanishi mumkin.

«Arastu ijodini tadqiq qilgan Vilamovis-Mellendorf shunday yozadi: komil insonni yaratmoqchi bo'lgan kishi, komil fuqaroni tarbiyalamog'i kerak, komil fuqaroni tarbiyalamoqchi bo'lgan kishi komil davlatni yaratishi kerak».

Davlat tarkibiga ayrim shaxslar, oilalar va qishloqlar kirishi kerak. biroq, alohida shaxslarning hammasi ham davlat tarkibiga taalluqli bo'lmaydilar. Qullar unga kirmaydi, deydi u. Quldorlik tizimining mafkurasi sifatida Arastu qullarni odam o'rnida ko'rmay, ularni o'z xo'jayinlarining jonli quroli hisoblanadi. Jamiyatda o'zaro bir-biri bilan bog'langan barcha elementlar bir butunlikni tashkil etadi. Hukmronlik elementi va itoatkorlik elementi barcha holda namoyon bo'ladi. bu tabiatning umumiy qonuni, shuning uchun tirik mavjudot bo'ysinadi. Bundan Arastu qulchilikning tabiati va vazifasini keltirib chiqaradi. Uning fikricha o'zligiga ega bo'lmagan kishi tabiatan quldir. Ular faqat jismoniy ishlarga mo'ljallangandir. Xo'jayin faqat qulning xo'jayini. Lekin unga taalluqli emas, qul esa nafaqat xo'jayinning quli, balki butunlay unga bog'liqdir.

Shunday qilib, ellinizm davri falsafasida inson tabiatning bir qismi hisoblangan bo'lib, Aflotun ko'proq inson va olamiy jon o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor bergan bo'lsa, Arastu esa insonni jamiyatda egallagan o'rni, uning shahar polisidagi roliga katta ahamiyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax. Tom 1. – M.: «Мысль», 1976. – 79 c.
2. Platon. Gosudarstvo. // Platon. Sobranie sochineniy v chetyrex tomax. Tom 3. Chast 1. – SPb.: Izd-vo SPbGU, 2007. – 338–339 s.
3. Platon. Zakony. Poslezakonie. Pisma. – SPb.: «Nauka», 2014. – 165 s.
4. Platon. Fileb. // Platon. Sobranie sochineniy v chetyrex tomax. Tom 3. Chast 1. – SPb.: Izd-vo SPbGU, 2007. – 11 s.
5. Platon. Fedon. // Platon. Sobranie sochineniy v chetyrex tomax. Tom 2. – Sankt-Peterburg: Izd-vo SPbGU, 2007. – 79 s.
6. Asmus V.F. Istoriya antichnoy filosofii. – M.: «Выsshaya shkola», 1965. – 298 s.

13.00.00 – Pedagogika

**SHTURM- LIUVILL OPERATORI PARAMETLARINI TIKLASHDA SPEKTRAL
BERILGANLARNI ALMASHTIRISH MASALASI**

Rabimkul Abdunazarov

O'bekiston milliy universitetining Jizzax filiali katta o'qituvchisi

Email: rabimkulabdunazaro@gmail.com

Tel: +998 94 649 54 64

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shturm- Liuvill operatori parametrlarini tiklash bilan bog'liq ikkita masala: (λ_n, α_n) **spectral berilganlari** asosida Shturm- Liuvill operatori parametrlarini berilgan aniqlikda analitiktik tiklash masalasi va shu **spectral berilganlar** asosida natural spektrli yangi $(n^2, \tilde{\alpha}_n)$ **spectral berilganlarni** hosil qilish masalasi muhokama qilinadi. Ishning ahamiyatli jihati shundaki, klassik masalani izospektral masalga o'tkazib o'rganishda bir qancha qo'shimcha imkoniyatlar kelib chiqadi.

Kalit so'zlar. Shturm-Liuvill operatori, xos qiymat, xos funksiya, Gelfand-Levitan integral tenglamasi. teskari masala, spectral berilganlar.

**ВОПРОСЫ ЗАМЕНЫ СПЕКТРАЛЬНЫХ ДАННЫХ ПРИ ВОССТАНОВЛЕНИИ
ПАРАМЕТРОВ ОПЕРАТОРА ШТУРМА–ЛИУВИЛЛЯ**

Аннотация. В данной статье рассматриваются две задачи, связанные с восстановлением параметров оператора Штурма–Лиувилля: задача аналитического восстановления параметров оператора Штурма–Лиувилля по (λ_n, α_n) спектральным данным и задача построения новых $(n^2, \tilde{\alpha}_n)$ спектральных данных с натуральным спектром на основе тех же спектральных данных. Актуальность данной работы заключается в том, что перевод классической задачи в изосpekтральную предоставляет ряд дополнительных возможностей.

Ключевые слова: Оператор Штурма-Лиувилля, собственное значение, собственная функция, интегральное уравнение Гельфанда-Левитана, обратная задача. спектральные данные

**PROBLEMS OF SUBSTITUTING SPECTRAL DATA IN THE INVERSE
RECOVERY OF STURM–LIOUVILLE OPERATOR PARAMETERS**

Annotation. This article discusses two problems related to the reconstruction of the parameters of the Sturm–Liouville operator: the problem of analytically reconstructing the parameters of the Sturm–Liouville operator from the spectral data (λ_n, α_n) and the problem

of constructing new spectral data $(n^2, \tilde{\alpha}_n)$ with a natural spectrum based on the same spectral data. The relevance of this work lies in the fact that transforming a classical problem into an isospektral one offers a number of additional opportunities.

Keywords: Sturm–Liouville operator, eigenvalue, eigenfunction, Gelfand–Levitan integral equation, inverse problem, spectral data

1.Kirish. Berilgan $\lambda_0 < \lambda_1 < \lambda_2 < \dots \lambda_n < \dots$ sonlar ketma ketligi quyidagi

$$L(q(x), h, H)y \equiv -y'' + q(x)y = \lambda y, \quad (0 < x < \pi) \quad (1.1)$$

$$y'(0) - hy(0) = 0 \quad (1.2)$$

$$y'(\pi) + Hy(\pi) = 0 \quad (1.3)$$

chegaraviy masalaning xos qiymatlari, $\alpha_0, \alpha_1, \alpha_2, \dots$ ketma ketliklar esa ushbu masalaning normallovchi sonlari bo'lsin. Ular uchun quyidagi asimtotika o'rinli bo'lsin:

$$s_n = \sqrt{\lambda_n} = n + \frac{c_0}{\pi} + \frac{c_1}{n^3} + \dots \quad \alpha_n = \frac{\pi}{2} + \frac{b_0}{n^2} + \frac{b_1}{n^4} + \dots \quad (1.4)$$

$$c_0 = \frac{1}{\pi} \left(h + H + \frac{1}{2} \int_0^\pi q(s) ds \right) \quad (1.5)$$

Bu yerda c_1, b_0, b_1 lar berilgan haqiqiy sonlar.

Ushbu shartlarni qanoatlantiruvchi $\{\lambda_i, \alpha_i\}_{i=0}^\infty$ spectral berilganlarga ko'ra Shturm-Liuvill operatori parametrlarini tiklash masalasini Gelfand-Levitan sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi [1], [2]. Bunda quyidagi munosabatlardan foydalaniladi

$$K(x, y) + F(x, y) + \int_0^x K(x, s)F(s, y)ds = 0 \quad (1.6)$$

$$q(x) = 2 \frac{d}{dx} K(x, x), \quad h = K(0, 0) = -F(0, 0)$$

$$F(x, y) = \frac{\cos s_0 x \cos s_0 y}{\alpha_0} - \frac{1}{\pi} + \sum_{k=1}^\infty \left[\frac{\cos s_k x \cos s_k y}{\alpha_k} - \frac{2 \cos kx \cos ky}{\pi} \right] \quad (1.7)$$

Bu sxemadagi hisoblashlarni amalga oshirishda asosan sonli usullardan foydalaniladi. Jumlada, A.I.Aptekarev tomonidan yechimni sonli usulda $O\left(\frac{1}{N^6}\right)$ aniqlikda olish algoritmi mukammal ishlab chiqilgan [3].

Izospektral chegaraviy masalarni o'rganish mavzusi ham (1.1)-(1.3) chegaraviy masalalar orasida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ma'lum shartlarga berilgan $(n^2, \tilde{\alpha}_n)$ spectral juftlik asosida (1.1)-(1.3) uchun teskari masalani analitik usulda yechish, bu yechum asosida esa ko'pgina matematik fizika masalalarini tahlil qilish imkonini beradi.

2. Masalaning qo'yilishi. Ushbu maqolada ba'zi shartlarga bo'ysinuvchi (λ_n, α_n) spectral berilganlarga ko'ra (1.1)-(1.3) teskari masalani analitik usulda yechish muammolari qaraladi. Shuningdek, maqolada ushbu (λ_n, α_n) spektral berilganlar asosida operator parametrlarini bir xilda tiklaydigan yangi natural spektrli $(n^2, \tilde{\alpha}_n)$ spectral berilganlarni qurish masalasi o'rganiladi

Bu mavzuning dolzarbligi va ushbu yo'nalishda olib borilgan ishlar tahlilili bilan A.Xasanov ishlarida tanishish mumkin [4], [5].

3. Shturm - Liuvill operator paramitrlarin tiklash masalasi

1) Izospektral chegaraviy masalani tiklash algoritmi .

Teorema A [4]. Aytaylik $\{\lambda_n, \alpha_n\}_{n=0}^\infty$ haqiqiy sonlar ketma-ketliklari (1.1)-(1.3) chegaraviy masalaning spectral berilganlari bo'lsin. U holda quyidagicha

$$\lambda_n = n^2, n \geq 0; \quad \tilde{\alpha}_n = \alpha_n, \quad n = 0, 1, \dots, N; \quad \tilde{\alpha}_n = \frac{\pi}{2}, \quad n > N$$

aniqlangan ketma-ketliklar ham $L(q(x, a_0, \dots, a_N), h(a_0, \dots, a_N), H(a_0, \dots, a_N))$ ko'rinishidagi biror Shturm-Liuvill operatorining spectral berilganlari bo'ladi. Bu yerda $\{a_n\}_{n=0}^N$ berilgan musbat sonlar. Agar bu masala uchun qurilgan Gelfand-Levitan integral tenglamasi yechimini shartli ravishda $K_a(x, t)$ deb olsak, u holda $K_a(\pi, t)$ uchun quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi[4]

$$K_a(\pi, y) = -\frac{1}{\pi} \left(1 - \frac{a_0}{\pi}\right) - \frac{2}{\pi} \sum_{n=1}^N \left(1 - \frac{2}{\pi} a_n\right) \cos(ny) \quad (3.1)$$

2) Berilgan aniqlikda Shturm - Liuvill operator paramitrlarin tiklash masalasi

Teorema B. Aytaylik $\{\lambda_n, \alpha_n\}_{n=0}^{\infty}$ haqiqiy sonlar ketma-ketliklari (1.1)-(1.3) chegaraviy masalaning spectral berilganlari bo'lsin. Bu ketma-ketlik elementlaridan dastlabki N tasining qiymatlari ma'lum, qolgan elementlar uchun quyidagi

$$\lambda_n = n^2, \quad \alpha_n = \frac{\pi}{2}, \quad n > N.$$

munosabat o'rinli bo'lsa u holda ushbu shartlar bilan aniqlangan ketma-ketliklar yordamida (1.1)-(1.3) operator parametrlarini analitik aniqlash mumkin.

Isbot. Teorema shartiga e'tibor qilinsa (1.4) asimptotikada qatnashayotgan $c_0, c_1, \dots$ koeffisientlarning nolga tengligi kelib chiqadi. Bundan $n > N$ dan boshlab

$$\cos(s_n x) \cos(s_n y) = \cos nx \cos ny$$

tenglik o'rinli ekanligi hisobga olinsa (1.7) yadrosi quyidagi chekli yig'indi ko'rinishiga keladi

$$F(x, y) = \frac{\cos s_0 x \cos s_0 y}{\alpha_0} - \frac{1}{\pi} + \sum_{k=1}^N \left[\frac{\cos s_k x \cos s_k y}{\alpha_k} - \frac{2 \cos kx \cos ky}{\pi} \right] \quad (3.2)$$

Bu esa (1.6) integral tenglamani o'zgaruvchilari ajralgan yadroli integral tenglama sifatida yechish imkonini beradi. Integral tenglamaga (3.2) yadroni qo'yib, ba'zi shakl almashtirishlardan so'ng $K(x, y)$ uchun quyidagilarga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} K(x, y) &= -F(x, y) - \int_0^x K(x, t) F(t, y) dt, \\ K(x, y) &= \frac{1}{\pi} - \frac{\cos s_0 x \cos s_0 y}{\alpha_0} + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \cos kx \cos ky - \sum_{k=1}^N \frac{\cos s_k x \cos s_k y}{\alpha_k} + \\ &+ \frac{1}{\pi} \int_0^x K(x, t) dt - \frac{\cos s_0 y}{\alpha_0} \int_0^x K(x, t) \cos s_0 t dt + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \cos ky \int_0^x K(x, t) \cos kt dt - \\ &- \sum_{k=1}^N \frac{\cos(s_k y)}{\alpha_k} \int_0^x K(x, t) \cos(s_k t) dt = \\ &= \frac{1}{\pi} \left[1 + \int_0^x K(x, t) dt \right] - \frac{\cos(s_0 y)}{\alpha_0} \left[\cos(s_0 x) + \int_0^x K(x, t) \cos(s_0 t) dt \right] + \\ &+ \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \cos ky \left[\cos(kx) + \int_0^x K(x, t) \cos(kt) dt \right] - \end{aligned}$$

$$-\sum_{k=1}^N \frac{\cos(s_k y)}{\alpha_k} \left[\cos(s_k x) + \int_0^x K(x, t) \cos(s_k t) dt \right] =$$

$$= \frac{1}{\pi} \psi(x, 0) + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \cos ky \psi(x, k) - \sum_{k=0}^N \frac{\cos(s_k y)}{\alpha_k} \varphi(x, s_k)$$

Shunday qilib $K(x, y)$ uchun quyidagi tenglikga ega bo'ldik

$$K(x, y) = \frac{\psi(x, 0)}{\pi} + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \cos ky - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \cos s_k y \quad (3.3)$$

Bu yerda

$$\psi(x, n) = \cos(nx) + \int_0^x K(x, t) \cos(nt) dt \quad (3.4)$$

$$\varphi(x, s_n) = \cos(s_n x) + \int_0^x K(x, t) \cos(s_n t) dt, \quad n = 0, 1, \dots, N \quad (3.5)$$

Topilgan $K(x, y)$ ni (3.4), (3.5) tengliklarga qoyib $\psi(x, n)$, $\varphi(x, s_n)$ larga nisbatan quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz

$$\psi(x, 0) = 1 + \frac{\psi(x, 0)}{\pi} x + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt dt - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos s_k t dt \quad (3.6)$$

$$\psi(x, n) = \cos(nx) + \frac{\psi(x, 0)}{\pi} \int_0^x \cos nt dt + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1, k \neq n}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt \cos nt dt +$$

$$+ \frac{2}{\pi} \psi(x, n) \int_0^x \cos^2 nt dt - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos s_k t dt \cos nt \quad (3.7)$$

$$\varphi(x, s_n) = \cos(s_n x) + \frac{\psi(x, 0)}{\pi} \int_0^x \cos s_n t dt + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt \cos s_n t dt -$$

$$- \frac{\varphi(x, s_n)}{\alpha_n} \int_0^x \cos^2 s_n t dt - \sum_{k=0, k \neq n}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos(s_k t) \cos(s_n t) dt \quad (3.8)$$

Bu tengliklarni $x = \pi$ nuqtada qarab, kelgusida foydalaniladigan ba'zi muhim tengliklarni keltirib chiqaramiz.

a) Agar (3.6)-(3.7) tengliklardagi x o'zgaruvchi o'rniga π qiymatni qo'ysak quyidagi tengliklarga ega bo'lamiz.

$$\sum_{k=0}^N \frac{\varphi(\pi, s_k)}{\alpha_k} \int_0^{\pi} \cos(s_k t) dt = 1 \quad (3.9)$$

$$\sum_{k=0}^N \frac{\varphi(\pi, s_k)}{\alpha_k} \int_0^{\pi} \cos(s_k t) \cos(nt) dt = (-1)^n \quad (3.10)$$

Qulaylik uchun $f_k = \varphi(\pi, s_k)/\alpha_k$ belgilash kiritib (3.9), (3.10) tengliklarni umumiy holda

$$\sum_{k=0}^N f_k \int_0^{\pi} \cos(s_k t) \cos(nt) dt = (-1)^n, \quad n = 1, 2, 3, \dots, N \quad (3.11)$$

ko'rinishda yozsak, noma'lum f_n ga nisbatan $N+1$ noma'lumli $N+1$ ta tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Bundan topilgan f_n va α_n ning aniq qiymatlariga ko'ra $\varphi(\pi, s_n)$ ni hamisha aniqlash mumkin bo'ladi.

b) Xuddi shunday $\psi(\pi, n)$ ifodaning qiymatlarini ham hisoblab topish mumkin. Yuqoridagi (3.8) tenglikda tegishli shakl almashtirishdan so'ng, $x = \pi$ deb olib, tenglikdagi $\varphi(\pi, s_n)/\alpha_n$ ifoda o'rniga uning (3.11) sistemadan aniqlangan f_n qiymatlarini qo'ysak quyidagi tenglikni olamiz.

$$\begin{aligned} & \frac{\psi(\pi, 0)}{\pi} \int_0^{\pi} \cos s_n t dt + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(\pi, k) \psi_k \int_0^{\pi} \cos kt \cos s_n t dt = f_n \left(\alpha_n + \int_0^{\pi} \cos^2 s_n t dt \right) + \\ & + \sum_{\substack{k=0, \\ k \neq n}}^N f_k \int_0^{\pi} \cos(s_k t) \cos(s_n t) dt - \cos(s_n \pi), \quad n = 0, 1, \dots, N \end{aligned} \quad (3.12)$$

Bu tenglik izlanayotgan $\psi(\pi, n)$ ga nisbatan $N+1$ noma'lumli $N+1$ ta tenglamalar sistemasini hosil qiladi.

c) Yuqorida olingan (3.6) tenglikni $\psi(x, 0)$ ga nisbatan yechamiz.

$$\psi(x, 0) = \left(1 + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt dt - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos(s_k t) dt \right) \left(\frac{\pi}{\pi - x} \right) \quad (3.13)$$

Xuddi shunday (3.7), (3.8) tengliklarni $\psi(x, n), \varphi(x, s_k)$ larga nisbatan yechamiz.

$$\begin{aligned} \psi(x, n) = & \left[\cos(nx) + \frac{\psi(x, 0)}{\pi} \int_0^x \cos nt dt + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1, k \neq n}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt \cos nt dt - \right. \\ & \left. - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos(s_k t) \cos(nt) dt \right] / \left(1 - \frac{2}{\pi} \int_0^x \cos^2 nt dt \right) \end{aligned} \quad (3.14)$$

$$\begin{aligned} \varphi(x, s_n) = & \left[\cos(s_n x) + \frac{\psi(x, 0)}{\pi} \int_0^x \cos s_n t dt + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt \cos s_n t dt - \right. \\ & \left. - \sum_{k=0, k \neq n}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos(s_k t) \cos(s_n t) dt \right] / \left(1 + \frac{1}{\alpha_n} \int_0^x \cos^2 s_n t dt \right) \end{aligned} \quad (3.15)$$

Topilgan (3.13), (3.14) tengliklarning $x = \pi$ nuqtadagi qiyma'larini o'rganamiz. Buning uchun quyidagi limitlarni hisoblaymiz

$$\psi(\pi, 0) = \lim_{x \rightarrow \pi} \left(1 + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt dt - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos(s_k t) dt \right) \left(\frac{\pi}{\pi - x} \right)$$

$$\psi(\pi, n) = \lim_{x \rightarrow \pi} \left[\cos(nx) + \frac{\psi(x, 0)}{\pi} \int_0^x \cos nt \, dt + \frac{2}{\pi} \sum_{\substack{k=1, \\ k \neq n}}^N \psi(x, k) \int_0^x \cos kt \cos nt \, dt - \right. \\ \left. - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \int_0^x \cos(s_k t) \cos(nt) \, dt \right] / \left(1 - \frac{2}{\pi} \int_0^x \cos^2 nt \, dt \right)$$

Bu limitlarni (3.9), (3.10) tenglikdan foydalanib hisoblasak har ikkalasi uchun bir hil natija, quyidagi tenglik kelib chiqadi.

$$\frac{\psi(\pi, 0)}{\pi} + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(\pi, k)(-1)^k = \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(\pi, s_k)}{\alpha_k} \cos \pi s_k + \sum_{k=0}^N \frac{\varphi'(\pi, s_k)}{\alpha_k} \int_0^{\pi} \cos s_k t \, dt \quad (3.16)$$

Agar (1.3), (3.9) tengliklarni hisobga olib (3.16) da elementar shak almashtirishlardan so'ng quyidagi tenglikka ega bo'lamiz.

$$\frac{\psi(\pi, 0)}{\pi} + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(\pi, k)(-1)^k = \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(\pi, s_k)}{\alpha_k} \cos(\pi s_k) - H \quad (3.17)$$

Yuqoridagi (3.3) tenglik bilan aniqlangan $K(x, y)$ ni $x = y = \pi$ nuqtadagi qiymatlari va (3.15) tengliklarni solishtirsak ulardan quyidagi

$$K(\pi, \pi) = -H, \quad H = \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(\pi, s_k)}{\alpha_k} \cos(\pi s_k) - \frac{\psi(\pi, 0)}{\pi} - \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(\pi, k)(-1)^k$$

muhim tengliklarni olamiz. **Teorema b isbotlandi.**

3) Berilgan $\{\lambda_i, \alpha_i\}_{i=0}^N$ spectral juftlik orqali yangi $(n^2, \tilde{\alpha}_n)$ spectral berilganlarni qurish masalasi

Gelfand -Levitan integral tenglamasining (3.3) formula bilan aniqlangan $K(x, y)$ yechimini $x = \pi$ nuqtada qaraymiz va uni shartli ravis quyidagicha belgilaymiz

$$K_r(\pi, y) = \frac{\psi_0}{\pi} + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi_k \cos ky - \sum_{k=0}^N f_k \cos s_k y \quad (3.18)$$

Ushbu tasdiq o'rinli: Yuqorida (1.8) va (3.18) formulalar bilan aniqlangan $K_a(x, t)$ va $K_r(x, t)$ funksiyalar (1.1)-(1.3) chegaraviy masalaning parametrlarini bir xilda aniqlashi uchun (1.8) tenglikda qatnashayotgan $\{a_n\}_{n=0}^N$ sonlarni $\{\lambda_i, \alpha_i\}_{i=0}^N$ sonlar o'rqali quyidagicha tanlash zarur

$$a_0 = \pi^2 \psi_0 - \pi^2 + \pi, \quad a_n = \left(\frac{\pi}{2}\right)^2 \psi_n - \left(\frac{\pi}{2}\right)^2 + \frac{\pi}{2}, \quad n = 1, 2, \dots, N \quad (3.19)$$

Bu yerda $\psi_n = \psi_n(\pi, n)$ yuqoridagi (3.12) sistemadan aniqlanadi.

Yuqorida $K_a(\pi, t), K_b(\pi, t)$ funksiyalar uchun berilgan (1.4), (1.5) tengliklar o'rinli deb faraz qilaylik. U holda $K_a(\pi, t)$ va $K_p(\pi, t)$ funksiyalar h, H va $q(x)$ parametrlarni bir xil berishi uchun $\{a_n\}_{n=0}^N$ sonlarini shunday tanlaylikki, $[0, \pi]$ oraliqda bu ikki funksiyalar uchun o'rtacha kvadratik farq minimumga erishsin. Quidagi belgilashni kiritamiz

$$I = \int_0^{\pi} (K_a(\pi, t) - K_r(\pi, t))^2 dt$$

yoki

$$I(a_0, a_1, \dots, a_N) = \int_0^\pi \left(\frac{1}{\pi} \left(1 - \frac{a_0}{\pi} \right) + \frac{2}{\pi} \sum_{n=1}^N \left(1 - \frac{2}{\pi} a_n \right) \cos(nt) - K_r(\pi, t) \right)^2 dt$$

Bu tenglikka minimum beradigan a_n sonlarni topish uchun $a_0, a_1, \dots, a_N$ larga nisbatan quyidagi

$$\frac{\partial I}{\partial a_0} = 0, \quad \frac{\partial I}{\partial a_1} = 0, \quad \dots, \quad \frac{\partial I}{\partial a_n} = 0$$

tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Bu sistemani yechib $\{a_n\}_{n=0}^N$ va $\{\lambda_i, \alpha_i\}_{i=0}^N$ spectral berilganlar o'tasidagi (3.19) munosabatlar hosil bo'ladi. E'tiborli jihati shundaki, (3.19) tenglik bilan aniqlangan a_n sonlarni aniqlashda barcha $\lambda_0, \lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n, \dots$ va $\alpha_0, \alpha_1, \alpha_2, \dots$ berilgan sonlar qatnashgan, ya'ni topilgan har bir a_n barcha spectral berilganlarni o'ziga singdirgan. **Teorema C isbotlandi**

Shunday qilib teoremaning shartiga ko'ra topilgan (1.6'), (1.7), (3.13), (3.14), (3.15) tengliklar yordamida (1.1)-(1.3) teskari masalaning qolgan parametrlarini ham aniqlanadi.

$$\begin{aligned} h = K(0,0) = -F(0,0) &= \frac{1}{\pi} - \frac{1}{\alpha_0} + \sum_{k=1}^N \left(\frac{1}{\alpha_k} - \frac{2}{\pi} \right), \quad \int_0^x q(t) dt = 2K(x, x) = \\ &= \frac{\psi(x, 0)}{\pi} + \frac{2}{\pi} \sum_{k=1}^N \psi(x, k) \cos ky - \sum_{k=0}^N \frac{\varphi(x, s_k)}{\alpha_k} \cos s_k y \quad 0 < x < \pi, \\ \int_0^\pi q(t) dt &= -2(h + H), \quad q(0) + q(\pi) = 4 \sum_{k=1}^N (\lambda_n - n^2) + 2(H^2 + h^2) \end{aligned}$$

Adabiyotlar:

1. Левитан Б.М., Обратные задачи Штурма-Лиувилля. - М.: Наука, 1984. 240 с.
2. Гельфанд И.М., Левитан Б.М «Об определении дифференциального уравнения по его спектральной функции». – Изв. АН СССР, сер.мат. -1951, т.15. -с.309-360.
3. Аптекарев А.И., О численной реализации решения обратной задачи Штурма – Лиувилля. Перепринт Ин. прикл. матем. им. М.В. Кельдиша АН СССР, 1982 г. №32.
4. О. Э. Мирзаев, А. Б. Хасанов, О семействах изоспектральных краевых задач Штурма–Лиувилля, Уфимск. матем. журн., 2020, том 12, выпуск 2, 28–34
5. А. Хасанов. Shturm-Liuvill chegaraviy masalalari nazariyasiga kirish. **II-qism:** 2016-yilda "Turon-Iqbol" nashriyotida chop etilgan bo'lib, ISBN raqami **978-9943-14-445-3**.

13.00.00 – Pedagogika

OLIIY TALIM MUASSASALARIDAGI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH XALQARO STANDARTLARNI QO'LLASH

Hamdamov Yusufjon Mahammadjon o'g'li,

Farg'ona politexnika instituti, Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti.

Farg'ona politexnika instituti
yusufjon.khamdamov@gmail.com

Annotatsiya: Ma'lumki, ta'lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Qanday sohada bo'lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug'ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o'rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o'z g'oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydilar, shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadilar.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida yuqori malakali kadrlarni egallash va yollash uchun kompaniyalar o'rtasida raqobat kurashi birmuncha oshdi. Bu nafaqat tijorat tashkilotlariga, balki ilmiy-tadqiqot markazlari, o'quv yurtlariga ham tegishlidir. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim sifati to'g'risidagi masala birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, OTM (oliy ta'lim muassasa)lar kelgusi mutaxassislarning aniq kasbiy sohasida bilimlarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, sifat, menejment, ta'lim tizimi, standartlar, menejment tizimi sertifikatlari, identifikatsiya.

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ ПУТЁМ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Аннотация: Известно, что образование играет важную роль в развитии общества. В любой области специалисты, обладающие высокими знаниями, получают возможность заниматься исследованиями и разработками, создавать новые виды продукции и разрабатывать технологии. Глобализационные процессы в мире и нынешняя обстановка глубокой конкуренции между компаниями требуют подготовки к ней специалистов. Они не только обеспечивают благоприятные условия для развития своих идей и практической реализации созданных теоретических моделей, но в то же время считаются важным интеллектуальным фактором инновационного развития экономики.

Сегодня, в период развития технологий и информационных процессов в мире, несколько усилилась конкуренция между компаниями за приобретение и найм высококвалифицированного персонала. Это касается не только коммерческих организаций, но и исследовательских центров и образовательных учреждений. Поэтому вопрос качества современного образования – это проблема, которую необходимо решить в первую очередь. Именно вузы (высшие учебные заведения) формируют знания будущих специалистов в конкретной профессиональной области.

Ключевые слова: Образование, качество, менеджмент, система образования, стандарты, сертификаты системы управления, идентификация.

IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS THROUGH THE APPLICATION OF INTERNATIONAL STANDARDS

Annotation: It is known that education plays an important role in the development of society. In any field, specialists with high knowledge will have the opportunity to engage in research and development, create new types of products and develop technologies. Globalization processes in the world and the current environment of deep competition between companies require specialists to be prepared for it. They not only provide favorable conditions for the development of their ideas and the practical implementation of the created theoretical models, but at the same time, they are also considered an important intellectual factor for the innovative development of the economy.

Today, in the period of the development of technologies and information processes in the world, the competition between companies for acquiring and hiring highly qualified personnel has somewhat increased. This applies not only to commercial organizations, but also to research centers and educational institutions. Therefore, the issue of the quality of modern education is a problem that needs to be solved first. It is the HEIs (higher educational institutions) that form the knowledge of future specialists in a specific professional field.

Keywords: Education, quality, management, education system, standards, management system certificates, identification.

Kirish: Bugungi kunda korxonalar nafaqat mijozlarning talablarini qondirishga, balki undan yuqori bo'lgan sifatli mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishga intilishadi. Boshqa tomondan, ular raqobatlashishi uchun o'z xarajatlarini kamaytirishlari kerak. Kichik va yirik korxonalarning sifat va iqtisodiy samaradorlikka erishish qobiliyati ularning sifatni yaxshilash bo'yicha kompleks yondashuvni ishlab chiqish qobiliyatiga bog'liq.

ISO 9001 sifat menejmenti tizimi dunyodagi eng mashhur sifat menejmenti tizimi standarti bo'lib, dunyo bo'ylab 180 mamlakatlaridagi milliondan ortiq tashkilotlarni sertifikatlashtirgan. 9001 standarti Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan e'lon qilingan 9000 seriyali standartlardan muvofiqlikni baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yagona standartdir. ISO 9001, shuningdek, keng tarqalgan ishlatiladigan OHSAS 13485 va ISO 16949 kabi ISO 9100 (tibbiy asboblari), ISO / TS 18001 (avtomobil), AS / EN 14001 (aerokosmik) va boshqaruv tizimlari kabi sanoat uchun standartlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ISO 9001 Sifat Menejmenti Tizimi - bu dunyo miqyosida qabul qilingan sifat menejmenti tizimi bo'lib, mijozlar talablari, ehtiyojlari va tartibga soluvchi talablarini qondirish orqali mijozlar ehtiyojini oshirishni nazarda tutadi. U sifat menejmenti tizimining holatini ko'p jihatdan tashkilotning tashkiliy tuzilishidan tortib, mijozlarning qoniqish darajasiga, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishdan jarayonlarni samarali boshqarishga, ichki auditdan mahsulot dizayniga, sotib olishdan sotishga qadar. ISO 9001 standarti asosan boshqarish mexanizmidir. Ushbu standartning maqsadi - xatolar va nuqsonlarni kamaytirish, yo'q qilish va oldini olish. Standart mahsulot va xizmatlarning sifati bilan emas, balki boshqaruv tizimining sifatiga bevosita bog'liqdir. Asosiy taxmin shundan iboratki, agar samarali Sifat Menejmenti Tizimi yaratilsa va joriy etilsa, mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun sifatli mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqariladi.

Adabiyotlar tahlili: Boshqaruv va menejment atamalarining mazmunan ajralib turishi va farqining sababi. Mamlakatimizda uzoq vaqt davom etgan markaziy ma'muriy boshqaruv tizimining qo'llanilganligidir. Boshqaruv -xalq xo'jaligi maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan, yuqori raxbar organlari tomonidan tasdiqlangan va tushirilgan rejalarini bajarishga qaratilgan faoliyat turi edi. Raxbar uchun esa korxona foydasi emas, balki xalq xo'jalik rejalarini natural o'lchamlar bo'yicha oylik, chorak va yillik rejalar bo'yicha bajarish majbur

edi. Raxbar faoliyati samaradorligi va muvaffaqiyati xarajatlar miqdori yoki yoki boshqa iqtisodiy qo'rsatkichlar rejalarini bajarilish oldida ikkilamchi o'rinda edi.

Menejment va menejer tushunchalari esa bundan farqli o'laroq o'z mulkiga o'zi kurashuvchi va egalik xuquqiga ega tizm va shaxslardur.

Sifat menejmentining to'laqonli tushunchasiga keladigan bo'lsak korxona yoki tashqilot boshqaruv tizimiga minimal xarajat orqali maksimal natijaga erishish asosiy maqsad shu, ushbu orqali sifatli maxsulot yoki yuksak natijaga erishishdan iborat.

O'quv jarayoniga tadbiiq etmoqchi bo'layotgan sifat menejmenti tamoyillari esa o'quv jarayonini qaysidir ma'noda yaxshilashga qaratilgan deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda korxonalar nafaqat mijozlarning talablarini qondirishga, balki undan yuqori bo'lgan sifatli mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishga intilishadi. Boshqa tomondan, ular raqobatlashishi uchun o'z xarajatlarini kamaytirishlari kerak. Kichik va yirik korxonalarning sifat va iqtisodiy samaradorlikka erishish qobiliyati ularning sifatni yaxshilash bo'yicha kompleks yondashuvni ishlab chiqish qobiliyatiga bog'liq.

ISO 9001 yaxshi kompaniya boshqaruvining asosidir.

ISO 9001 -mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish maqsadida ish jarayonlarini boshqarishni baholovchi boshqaruv tizimi. Bu dunyodagi eng keng tarqalgan standart bo'lib, uning asosida kompaniyalarda sifat menejmenti tizimi (SMS) qurilgan, chunki standart keyingi takomillashtirish uchun barcha zarur mezonlarga ega.

Tadqiqot metodologiyasi: Oliy ta'lim muassasalari tomonidan taklif etilgan ta'lim xizmatlari sifati akkreditasiya bo'yicha davlat organlarining rasmiy baholash o'tkazishi asosida amalga oshiriladi. Bitiruvchilarning bilim natijalari esa ish beruvchilar tomonidan baholanadi. Biroq aniqlash lozimki, qaysi asosiy omillar ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatadi? Albatta, bu ta'limni moliyalashtirish, qulay sharoitlarni yaratish, OTMning yuqori rivojlangan tashkiliy tarkibining mavjudligi, yuqori darajada texnik qurollanganlik va boshqalar hisoblanadi. Biroq talabalarning yuqori bilim darajasini ta'minlovchi eng muhim ahamiyatli resurs – pedagogik kadrlar hisoblanadi. Ularning malakasi, kasbiy darajasi, pedagogik mahorati, kommunitabelligi, fanni rivojlantirishda qo'shgan hissasi va boshqa ko'plab omillari kelgusida bitiruvchilar bilimini yuqori darajada ta'minlash imkonini beradi. Aynan shuning uchun o'quv yurti rahbariyati pedagogik xodimlarning ahamiyatga ega rolini oshirishi va ularni samarali boshqarish usullarini takomillashtirishi zarur. Shunday ekan, bu holat o'quv yurtlarining barcha faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni boshqarish sifatini ta'minlashga e'tiborni qaratish, ular bilan o'zaro aloqadorlik samaradorligini oshirish, hamda faoliyati natijalaridan manfaatdorligini ta'minlash zarur.

Sifat - bu o'zining to'la tavsifi bilan talabning qondirilish darajasi yoki Sifat – qo'yilgan talab tavsifining muvofiqlik darajasi.

Aytaylik ikki xil xolatda: qum soat va aniq raqamlarga ega bo'lgan soatni misol qilib olishimiz mumkin. Kingadir qum soatning avzalik tomonlari bor, yana kimdir aniqlik uchun raqamlar ko'rsatilgan soatni tanlagan bo'lardi. Bu bilan nima demoqchimiz sifatga oddiygina ta'rif beradigan bo'lsak. Iste'molchi talabini qondirgan maxsulot borki bu maxsulot sifatli xisoblanadi.

Menejment – boshqaruv yoki boshqaruvchi o'z korxonasi, tashkilotining foydasini va kelajagini o'ylagan xolda faoliyat olib boradi degan fikrni birinchi o'ringa qo'yadi. Qisqa qilib aytganda boshqaruv xaqidagi bir fan.

Shu o'rinda tashkilotlarni o'rganish fani klassiklaridan biri bo'lgan Lyuter Gulik (Luther Gulik) korxona va tashkilotlarning jamiyat taraqqiyotidagi tutgan o'rni xaqida quyidagilarni yozgan "Insoniyat rivojlanishi kuchli va kuchayib borayotgan xolda tashkilot, qolaversa korxonalar boshqaruvi fani va amaliyotiga bog'likdir"

Jamiyatimizga "menejment" atamasi 90- yillarda kirib kelgan bo'lib o'zining keng tarqalishi bilan "menejment" va "boshqaruv", shu bilan birga "menejer" va "raxbar"

atamalarining farqi to'g'risida savol tug'dira boshladi. Ko'pchilik musataqillikka erishganimizdan so'ng ushbu atamalar bir xilligini va ular orasida xech qanday farq yo'qligini ta'kidlay boshladi. Ammo bu atamalar bir-biridan tubdan farq qiladi.

Tahlil va natijalar: ISO 9001 hujjati tashkilot mijozlarining talablarini qondirish va hatto kutganlaridan ham yuqori darajada bo'lish qobiliyatini namoyish etadi. Shuning uchun, ko'plab xaridorlar yomon mahsulotlar yoki xizmatlarni sotib olish xavfini bartaraf etish uchun etkazib beruvchilardan ISO 9001 sertifikatiga murojaat qilishadi. OISO 9001 hujjati sizning tashkilotingiz mijozlarning talablarini qondirish va hatto kutganlaridan ham yuqori darajada bo'lish qobiliyatini namoyish etadi. Shuning uchun, ko'plab xaridorlar yomon mahsulotlar yoki xizmatlarni sotib olish xavfini bartaraf etish uchun etkazib beruvchilardan ISO 9001 sertifikatiga murojaat qilishadi.

ISO 9001 sertifikatiga sazovor bo'lgan korxona xato va yo'qotish stavkalarini minimallashtirish va mahsuldorlikni oshirish orqali tashkiliy samaradorlik va mahsulot sifatidagi sezilarli yaxshilanishlarga erishdi.

Xulosa: Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quydagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi. Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi. Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Ushbu bosqichlardan biz uchun eng muximi bu oliy ta'lim bo'lib, oliy ta'limda olib borilayotgan uquv jarayoni uchun sifat menejmenti tamoyillarini joriy etishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboeva Mohim Shukurovna., "Ekologik barqarorlikni ta'minlashda xalqaro va milliy tajriba" INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI ISSN (E) 2181-2993 Vol. 2, Issue 4. Dec. (2023).
2. Bobur Turdiyev, mustaqil tadqiqotchi., "Havo ifloslanishi va aholi salomatligi bilan bog'liq inqirozdan chiqish: Yaponiya tajribasi", Kun.uz - elektron sahifasi.
3. Obidov, J. G. (2023). Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 07017). EDP Sciences.

13.00.00 – Pedagogika

TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARIDA IMITATSION-VARIATIVLIK ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Obidov Jamshidbek G'ayratjon o'g'li

P.f.b.f.d., (PhD), v.v.b. dotsenti,

Farg'ona politexnika instituti

E-mail: jamshidobidov19@gmail.com

Annotatsiya: Jahonda ta'lim investitsiyasiga e'tibor kuchayib, texnika oliy o'quv yurtlarida sifatli oliy texnik ta'limni takomillashtirish yuzasidan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xorij tajribasiga nazar solsak, ta'lim sohasidagi islohotlar aynan texnika oliy o'quv yurtlarining texnologik-pedagogik zamonaviy o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida amalga oshirish orqali sifatli ta'lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan interventsion texnik ta'lim tadqiqotini taqdim etadi. Imitatsion-variativlik pedagogikasi asosan texnika oliy ta'lim sohasidagi bo'lajak kadrlarni tayyorlash va ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun matnlarning ichki tuzilishini tahlil qilishni o'qitishdan iboratdir. Asosiy e'tibor texnik matnlarni pedagogik texnologiyalar yordamida tushunish hamda sinergetik, germeneytik va praktsiologik yondashuv orqali o'quv materiallarini imitatsion-variativlik va vizual-amaliy yo'nalganlik imkoniyatlarini kengaytirish vositasida talabalarining texnik oqilonalik orqali texnika tilini bilish, o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini mazmun mohiyati va texnika ta'limidagi ahamiyatini talabalar ongida shakllantirishga qaratilgan.

Dunyoning ilg'or xalqaro oliy ta'lim texnika oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga e'tibor berilganda, imitatsion-variativlik asosida o'qitish - bo'lajak muhandislar uchun ta'lim jarayoni, jumladan, hozirgi vaqtda o'rganish va o'rganilgan tadqiqotlardan kelajakda butunlay yangi sharoitlarda yoki vaziyatlarda foydalanish imkoniyatidir. Ushbu tadqiqot ishimizda imitatsion-variativlik asosida o'qitish yordamida texnika oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy kompetentliklarini oshirish jihatlari, o'z kasbini texnologik madaniyatni tashkil etuvchi komponentlar, mutaxassislik fanlarni o'qitishdagi o'rni va mazmunini integrallashuvi o'laroq tushunishni rivojlantirish yoki ularni texnologik jixatdan takomillashtirish usullarini yaratish masalasi ekanligi yoritilgan. Bu jarayonda albatta asosiy fundamental va aprior omil bu imitatsion model hisoblanadi.

Kalit so'zlar: o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish, ta'lim jarayoni, imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarining didaktik xususiyatlari, imitatsion model, texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarga o'quv materiallarini loyihaviy, tashkiliy va natijaviy komponentlarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari, o'quv jarayonlarini tinglovchiga tushunarli tarzda havola qilish, virtual resurslar, pedagogik metodlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИМИТАЦИОННО-ВАРИАТИВНОГО ПОДХОДА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Аннотация: В мире возрастает внимание к инвестициям в образование, и в высших технических учебных заведениях реализуется ряд реформ, направленных на повышение качества высшего технического образования. Если обратиться к зарубежному опыту, то реформы в сфере образования предусматривают интервенционное исследование технического образования, направленное на повышение качества образовательной практики за счет внедрения технико-педагогических

современных учебных материалов технических вузов на основе имитации. вариация. Имитаторно-вариационная педагогика преимущественно заключается в обучении анализу внутренней структуры текстов с целью подготовки и развития производства будущих кадров в сфере высшего технического образования. Основное внимание уделяется пониманию технических текстов с помощью педагогических технологий и путем расширения возможностей имитационно-вариативной и наглядно-практической направленности учебного материала посредством синергетического, герменевтического и праксиологического подхода, направленного на формирование в сознании. среди студентов подчеркивается важность содержания и технического образования, технологии совершенствования преподавания.

Учитывая цели, поставленные в ходе реформ, проводимых в ведущих международных технических университетах высшего образования мира, обучение на основе моделирования представляет собой образовательный процесс для будущих инженеров, включающий обучение в настоящем и возможность использовать полученные исследования в совершенно новых условиях или. ситуации в будущем. В данной научно-исследовательской работе с помощью обучения на основе имитации-вариации осуществляется развитие понимания аспектов повышения профессиональной компетентности студентов технических вузов, компонентов, составляющих технологическую культуру их профессии, роль и содержание профильных предметов в преподавании, или Поясняется, что речь идет о создании способов их совершенствования с технологической точки зрения. В этом процессе главным фундаментальным и априорным фактором является имитационная модель.

Ключевые слова: совершенствование учебных материалов на имитационно-вариативной основе, образовательный процесс, дидактические особенности технологий совершенствования обучения на имитационно-вариативной основе, имитационная модель, проектирование учебных материалов для студентов технических вузов, организационно-результатный. компоненты, технологии совершенствования обучения на основе имитации-вариации, привязки образовательного процесса в понятной слушателю форме, виртуальные ресурсы, педагогические методы.

IMPROVING TEACHING IN TECHNICAL UNIVERSITIES BASED ON THE SIMULATION-VARIATIONAL APPROACH

Abstract: In the world, the attention to investment in education is increasing, and a number of reforms are being implemented in higher technical educational institutions to improve the quality of higher technical education. If we look at the foreign experience, the reforms in the field of education provide an interventional technical education research aimed at improving the quality of educational practice through the implementation of technological-pedagogical modern educational materials of technical higher education institutions on the basis of imitation-variation. Imitative-variational pedagogy mainly consists of teaching the analysis of the internal structure of texts in order to train and develop the production of future personnel in the field of technical higher education. The main focus is on understanding technical texts with the help of pedagogical technologies and by means of expanding the possibilities of imitative-variability and visual-practical orientation of educational materials through a synergetic, hermeneutic and praxeological approach. It is aimed at forming in the minds of students the importance of the content and technical education of the technology of improving teaching.

Given the goals set in the reforms carried out in the world's leading international higher education technical universities, simulation-based learning is an educational process for future engineers, including learning in the present. and the ability to use the research learned in entirely new settings or situations in the future. In this research work, with the help of teaching on the

basis of imitation-variation, the development of understanding of the aspects of increasing the professional competence of students of technical higher education institutions, the components that make up the technological culture of their profession, the role and content of specialized subjects in teaching, or It is explained that it is a matter of creating ways to improve them from a technological point of view. In this process, the main fundamental and a priori factor is the imitation model.

Keywords: improvement of teaching materials based on imitation-variation, educational process, didactic features of technologies of improvement of teaching on the basis of imitation-variation, imitation model, design of educational materials for students in technical higher educational institutions , organizational and result components, technologies for improving teaching on the basis of imitation-variation, referencing educational processes in an understandable way to the listener, virtual resources, pedagogical methods.

Kirish: O‘zbekistonda Yangi uyg‘onish davri, ya’ni raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga asoslangan Uchinchi Renessans davri - O‘zbekistonning taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning muhim yo‘nalishi bu globallashuv sharoitida innovatsion texnologiyalardan to‘g‘ri foydalana oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlarini uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy muhandislikni texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishdagi moddiy texnik baza hamda dasturiy vositalari orqali darslarni o‘tishda pedagog boshqaruvchi vazifasida bo‘lishi kerak. Bu tamoyil dars o‘tishda rejalashtirilgan o‘quv metodik qo‘llanma yordamida dars o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida faollashtirishni ta’minlaydi. Keyingi jarayon darslarni rejalashtirish jarayoni hisoblanib, unda EHM dasturlarini tayyorlash hamda kommunikatsion vositalarni faollashtirish hisoblanadi.

Hozirda Yevropa mamlakatlarida juda keng tarqalgan AKT vositalaridan biri bu internet provayderlar va internet intellektual aloqa tizimlari hisoblanadi. Ular modul orqali talabalarga masofaviy va mustaqil ta’limni sifatli yo‘lga qo‘yishni ta’minlashmoqda.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini oson hamda tushunarli qilib tinglovchiga havola qilish ham ular oldiga qo‘yilgan maqsadlardan biri hisoblanadi. Mavzularga mos ravishda virtual resurslarni ilg‘or pedagogik metodlar bilan yaratish rivojlanishni ta’minlaydi.

O‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari ijtimoiy tushunchalardagi nazariy va metodologik atama bo‘lib, unga ko‘ra jamiyat taraqqiyoti texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asosida texnologiya bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta muammo, xususan, konsepsiyani o‘qitishdagi pedagogik muammolar, texnika va texnologiya tabiati, ijtimoiy ahamiyati muhokama qilinmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Tadqiq etilgan masalani har tomonlama o‘rganish maqsadida bo‘lajak muhandislarning o‘quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o‘qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir bilimlarini takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilganligi ko‘rib chiqildi va tizimli tahlil qilindi.

B.S.Abdullayeva, O.Musurmonova, B.Sh.Shermuhamedov, E.I.Ruziyev, Z.T.Raximov, M.R.Kadirova, B.R.Mengliyev, J.Yu.Suyumovlar kompyuter imitatsion modellari asosida multimediali, imitatsion-variativ o‘quv qo‘llanmalar yaratish va mustaqil talim jarayoniga tatbiq etishning nazariy asoslarini pedagogik hamda didaktik jihatlarini o‘rgangan. D.U.Zakirov, S.I.Tursunova, I.B.Siddiqov, Z.A.Aminova, M.M.Odilova hamda D.I.Kamalovalar talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish borasida, hamda imitatsion-variativ ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash, hozirgi kunda texnika oliy o‘quv yurtlarida mustaqil ta’limni tashkil

etishga doir mavjud muammolar hamda mustaqil ta'lim olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida qator taklif va shu maqsadda amalga oshirilgan qator uslubiy tajribalar pedagogik nuqtai nazardan talqin qilingan.

Taniqli nazariyotchi va amaliyotchi pedagog olimlari V.S.Skripkin, E.I.Kapustina, I.A.Orlyanskaya, I.V.Kapustin, Yu.A.Bezginlar rahbarligida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni yangi metodik ta'minotlar orqali takomillashtirish texnologiyalariga pedagogik ishlov berish, didaktik materiallarni tayyorlash nazariyasi va amaliyoti metodik ta'minotlar hamda usullar orqali asoslangan edi. T.N.Dukhina, I.V.Maksimey, A.A.Volodin, A.V.Kelton, V.N.Smironov, Y.A.Maslova, A.Bogdanov, O.A.Zaplata, N.Vrublevskaya, A.Knyazev, A.Zapesotskiylar mustaqil ishlarni imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga asoslanib pedagogik jarayonni tashkil etishning didaktik talablari va tamoyillarining ilmiy-uslubiy hamda pedagogik jihatlarini yoritish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari Ch.Quigley, K.Rodgers, J.Forrester, J.Vogelmann, A.Swenson va H.Johnsonlar oliy texnik ta'lim jarayonida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari orqali talabalarga motiv, maqsad, shart-sharoit, harakat, jarayon kabi faoliyat strukturasi tashkil etuvchi elementlarni o'rganish yordamida mustaqil ta'lim mohiyatini anglash va tahlil qilishni o'z ilmiy izlanishlarida aks ettirgan. Shuningdek, o'quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy faktor bo'lib xizmat qilishini R.Hiemstra, C.McCallum, D.Deumling, M.Khowles va E.Torrens o'z ilmiy-tadqiqotlarida yoritib bergan.

Texnika oliy o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan, adabiyotlar tahlili, tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki: "talabalarda o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish" bu - ijtimoiy taraqqiyotni texnika va texnologiyalarning innovatsion rivoji bilan integratsiyalovchi konsepsiyani ta'lim jarayonida pedagogik tashxis tamoyillari yordamida qo'llash, pedagogik texnologiyalarning didaktik tamoyillari hamda mezonlari orqali talabalar ongi va tafakkurida shakllantirish jarayonidir.

Texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalari oliy texnik ta'lim pedagoglari tomonidan talabaning muammoli vaziyatga kreativ yechim izlash, uni hal etish bo'yicha texnik faoliyatni rejalashtirish bilan uzviy bog'lovchi ijtimoiy taraqqiyotning nazariyasi bo'lgan didaktik jihatdan ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Tadqiqot metodologiyasi: Fanni o'qitishda turli o'qitish metodlari, texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish bo'lajak kadrlarda kompetensiya, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda asos bo'la oladi.

Bundan tashqari, hozirgi kun texnika fani o'qituvchisi nafaqat o'qituvchi, balki universal konstruktor vazifasini ham zimmasiga olgan, ya'ni avvalgi ta'lim tizimlaridan farqli ravishda noodatiy o'quv mashg'ulotlaridan keng foydalanib, bo'lajak muhandislarni hozirgi mehnat bozoridagi raqobatbardosh kadr sifatida hamda zamonaviy energetikaning hal qiluvchi faktorlari bo'lib yetishishida zamin yaratishi zarur. Bu amaliy jarayonlarda samarador usullardan eng muhimi virtual laboratoriyalardan keng foydalanish ekanligini ta'kidlash joiz.

Virtual o'quv laboratoriya bo'yicha ilmiy-metodik ishlarning mavjudlari ham asosan virtual asbob va ularni laboratoriya mashg'ulotlarida qo'llashning yoritilishi bilan cheklangan, biroq, bizning fikrimizcha, virtual o'quv laboratoriyasida faqatgina virtual asboblardan emas, balki

virtual o'quv xonalari texnik ob'ektlar loyihasi, matematik va imitasion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o'quv va ishlab chiqarish paketlarini o'z ichiga oladi. Virtual o'quv laboratoriyaning o'zi esa faqatgina laboratoriya mashg'ulotlarida emas, balki talabalarning kurs va diplom loyihalarida, o'quv-tadqiqot ishlarida qo'llanilishi mumkin. "Virtual laboratoriya" tushunchasining mohiyati tarkibiy qism bo'lgan virtual asbob yordamida (oddiy elektron asbob bilan ishlagandek) kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, oddiy kompyuterga qo'shimcha qilingan apparatli va dasturli vositalar to'plamini ifodalashdan iboratdir. Virtual asbob va virtual laboratoriyaning muhim qismi – foydalanuvchining samarali grafik interfeysi (ya'ni, foydalanuvchining kompyuter bilan o'zaro aloqalarining qulay, interfaol rejimini ta'minlovchi), odatiy predmetli sohada ko'rgazmali grafik namunalar ko'rinishida grafik menyu tizimi bilan dasturli asbob hisoblanadi.

O'quv virtual laboratoriya – bu yakunlangan dasturli mahsulot bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalaridan foydalanish hisoblanadi.

Tahlil va natijalar: Texnika oliy o'quv yurtlarida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarining innovatsion pedagogik istiqbollari hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi Davlat siyosati doirasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq.

"Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzulmalar faoliyat yuritmoqda". Bunday faoliyat turlarini rivojlantirish uchun esa, texnika ta'limini isloh qilish, yangilik, ixtiro va innovatsiyalar yaratilishini o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini o'qitish asosida pedagogik jarayonni tashkil qilish muhim vazifalardan biridir.

Har bir fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha mukammal bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur. Buni texnika fanlari asosida ko'rib chiqsak, muhandislik sohasidagi fan o'qituvchisi zamonaviy-texnikaviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari talabalarning intellekti va skillariga qarab qobiliyatlarini bilishi hamda oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi kerak. O'zi dars beradigan fanning didaktik va futurologik asoslarini bilib, pedagogik metodlar yordamida bilimni berish umumiy uslublarini o'zining hayotiy tajribasiga asosanib bilimni yetkazishi lozim.

Xulosa va takliflar: Virtual laboratoriyaning muhim jihati asboblarning odatiy tasvirlari bilan birga, haqiqiy signallarni imitatsiyalash modellarinigina emas, balki zarur ma'lumotlar fayllarida saqlanadigan avvalgi tajriba ma'lumotlar fayllarida foydalanish yo'li bilan tajribani ko'rgazmali imitatsiya qilish mumkinligi hisoblanadi. O'qitish natijalari kafolatining asosi yaxlit o'quv jarayonida tashkil etiluvchi operativ javob aloqasi hisoblanadi. O'quv materialini o'rganishda qo'yilgan maqsadlarga yo'naltirilgan kundalik natijalarni baholash va ta'lim mazmunini boyitib borish zarur. O'quv materiallarini imitatsion modellar orqali takomillashtirish muim punktual maslaladir. Modellarini takomillashtirish haqida so'z yuritganda imitatsion model iborasiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Ushbu tadqiqot ishidan xulosa qiladigan bo'lsak, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini oshirish hozirgi kun bo'lajak muhandislarining amaliy qobiliyatlarida shakllantirish ularning kasbiy psixologiyasiga, aktiv skillariga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Texnika oliy o'quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot ishlaridan xabardor va fanlarni o'qitish metodikasini egallagan bitiruvchilar yashil iqtisodiyotimizning sanoat tarmoqlari drayverlari bilan ishlash tizimini yaxshilashda faol ishtirok etishlari zarur.

Xulosa qilganda, oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarida o'quv materiallarini imitatsion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga oid bilimlarni oshirish va imitatsion-variativ dunyoqarashni shakllantirish orqali bo'lajak muhandislar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlashda innovatsion faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yuvchi mezonlarni ishlab chiqish, yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan texnologlarni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulovna M. K., et al. Innovation teaching method in primary education //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 5. – C. 31-34
2. J.Y. Suyumov., Kompyuter imitatsion modellari asosida faol o'qitish texnologiyasining nazariy asoslari//Scientific progress Volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601
3. Obidov J.G'. "Intellectual o'lchash asboblari". Darslik. Farg'ona. "Classic" nashriyoti. 2024 yil//ISBN: 978-9910-652-94-3.
4. Obidov, J.G. Virtual process modeling technologies based on imitation-variability in technical higher education institutions//E3S Web of Conferences, 2023, 452, 07017 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345207017>
5. Erkaboev, A., Obidov, J., Madmarova, U., Alikhonov, E. //Analysis of the ISO 9001 standard model of risk management in analytical testing laboratories//E3S Web of Conferences, 2023, 452, 06009 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345206009>

13.00.00 – Pedagogika

**BOSHLANG‘ICH SINIF “O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

Sayfiddinova Jamila Ziyodaulla qizi

Zarmed universiteti o‘qituvchisi

jamilasayfiddinova2@gmail.com

Asrorova Madina Orzuyevna

Zarmed universiteti 1-bosqich talabasi

madinaasrorova21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘qitish metodologiyalari va didaktik yondashuvlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati ko‘rsatiladi. O‘qituvchilar uchun tavsiyalar va takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, zamonaviy yondashuvlar, ta’lim metodlari, o‘quv jarayoni.

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ НАВЫКОВ ЛОГИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ “ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ”
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация: В данной статье будут проанализированы современные подходы к совершенствованию навыков логического мышления в процессе развития читательской грамотности у младших школьников. Через методики обучения и дидактические подходы показано значение развития логического мышления. Даны рекомендации и предложения для учителей.

Ключевые слова: грамотность чтения, логическое мышление, начальный класс, современные подходы, методы обучения, учебный процесс.

**MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING
SKILLS OF PUPILS IN ELEMENTARY GRADE “READING LITERACY”
LESSONS**

Annotation: this article analyzes modern approaches aimed at improving the ability to think logically in the process of developing reading literacy in primary school students. The importance of developing logical thinking through teaching methodologies and didactic approaches is demonstrated. Recommendations and suggestions are made for teachers.

Keywords: reading literacy, logical thinking, Primary School, modern approaches, educational methods, educational process.

Kirish

O‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat bilim, tarbiya, ko‘nikma berishi, balki o‘rgangan bilimlarni hayotda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. Agar maktabgacha yoshda bolaning o‘yin faoliyati yetakchi bo‘lsa, boshlang‘ich maktabda o‘qishga yo‘naltirish kerak. Bu bolada keyin fikrlash asosiy vazifaga aylanadi. Bolani ham aqliy ham mantiqiy fikrlashga tayyorlash kerak. Mantiqiy fikrlashga tahlil qila olish, mulohaza yuritish, sintez qilish, mustaqil fikrlash, yechimlarini izlash kerak. Aqliy faoliyat har doim o‘qitilishi, rivojlantirilishi zarur. Hozirgi

dunyoda bolalar zamonaviy bo'lganligi uchun bu muammolarga ko'proq duch keladi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 4-sinf o'quvchilarining hammasi ham mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga to'liq, ayrimlari hech bo'lmaganda qisman ega emaslar. Bu statistika shuni anglatadiki, o'qituvchilar ko'proq shu mavzuga ahamiyat berishlari. Ko'pincha ushbu yo'nalish, ya'ni kichik yoshdagi o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga eng samarali ta'sir ko'rsatadigan shart-sharoitlarni, o'qitish usullari va pedagogik texnologiyalarni aniqlashga qaratilgan. O'qituvchi bergan bilimlarining mazmuni qanday bo'lishi kerak va o'quvchilar ongiga qanday ma'lumot bilan yetkazishni bilishi, bu juda muhim rol o'ynaydi. Fikrlashni rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun dastur ishlab chiqib, tajribadan o'tkazib va har qanday darsga mashqlarni o'quv jarayoniga ham kiritish mumkin. O'qish savodxonligi nafaqat matnni o'qish va tushunish, balki o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga ham o'rgatish jarayonidir. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o'quvchilarning bilim olish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuvlarni ko'rib chiqadi.

Metodologik asosi

Ma'lumki, tafakkur erkinligi shaxsning ozodligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Fransuz faylasufi Jozef Ernest Renanning: "Tafakkur erki har bir odamning daxlsiz huquqidir"[8], shotland faylasufi Devid Yumning: "Hech nima inson tafakkuridek erkin bo'lolmaydi"[8], – degan qarashlari yuqoridagi fikrlarni asoslab beradi. Inson fikrlash vositasida olamni, odamni, o'zligini anglab yetadi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarning mohiyatini idrok etadi, sha'n-tuyg'usini his qiladi, uni asrash kerakligini tushunadi. Zero, har bir millatning kelajagi mantiqiy asoslarga tayangan holda mustaqil fikrlaydigan barkamol avlodga bog'liqdir.

Yirik nemis faylasufi V. F. Gegel mantiqni shunday izohlaydi: "Mantiqni tafakkur haqidagi, uning ta'riflari va qonunlari to'g'risidagi fan deb aytishimiz mumkin, faqat bunda tafakkur eng umumiy mohiyat yoki stixiya bo'lib, unda g'oya mantiqiy shaklda namoyon bo'ladi. G'oya formal tafakkur emas, balki o'z ta'riflari va qonunlarini tayyor holda topmaydigan, aksincha, ularni o'zi yaratadigan va ularning taraqqiyotidan tashkil topadigan yaxlitlik ko'rinishidagi tafakkurdir"[4].

Olimning fikricha, mantiqning o'rganish obyekti tafakkurdir. Ana shuning uchun ham mantiq butun borliqni o'zida gavdalantiradigan tafakkurni o'rganuvchi ta'limotga aylanadi. U mantiq orqali muhokamani to'g'ri qurish va chin fikrlar hosil qilishni tadqiq qilgan.

Mantiqiy fikrlashni boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga o'rgatish juda muhim, chunki bu ko'nikmalar ularning kelajakdagi o'rganish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin:

T/r	Yondashuvlar nomi	Asosiy mazmuni
1	O'yinlar va vazifalar	Mantiqiy o'yinlar, puzzlelar va matematik vazifalar yordamida o'quvchilarda muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, shaxmat yoki logik o'yinlar mantiqiy tafakkurni kuchaytiradi.
2	Savollar berish	O'quvchilarga savollar berib, ulardan javoblarni o'ylab topishni so'rang. "Nima uchun?" yoki "Qanday qilib?" savollari orqali ularni chuqurroq fikrlashga undang.
3	Mantiqiy munozaralar	O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, mantiqiy munozaralar o'tkazish. Bu jarayonda o'z fikrlarini asoslash va boshqalarning fikrlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
4	Misollar keltirish	Haqiqiy hayotdagi vaziyatlar yoki hikoyalar orqali mantiqiy fikrlashni o'rgatish. Misol uchun, muammolarni qanday hal qilish mumkinligini ko'rsatish.
5	Ijtimoiy va hissiy rivojlanish	Mantiqiy fikrlash nafaqat matematikada, balki boshqa fanlarda ham muhimdir. O'quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirish ularga boshqalar bilan samarali ishlashda yordam beradi.
6	Tahlil va sintetik fikrlash	O'quvchilarga ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni umumlashtirishni o'rgatish. Bu jarayon o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini yanada chuqurlashtiradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida sabr-toqatli bo'lish va o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish juda muhim. Har bir bola o'ziga xos va har xil tezlikda o'rganadi, shuning uchun o'qituvchilar individual yondashuvni qo'llashlari kerak.

O'qish savodxonligi – zamonaviy ta'lim tizimining muhim komponentlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning matnlarni tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu jarayon nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki mantiqiy fikrlashni ham oshiradi. Mantiqiy fikrlash, o'z navbatida, o'quvchilarning muammolarni hal qilish, tahliliy fikr yuritish va qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

O'qish savodxonligi nafaqat matnni tushunish, balki mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan muhim jarayondir. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishda zamonaviy pedagogik metodlar va yondashuvlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu tahlil, o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va ularning ta'siri haqida ilmiy manbalarni ko'rib chiqadi.

Mamatqulov "Ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalar"[7] asarida interaktiv metodlarning o'qitish jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Muallif, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishga imkon yaratishini ko'rsatadi. Guruhli ishlash va muhokama metodlari o'quvchilarning fikrlarini erkin ifoda etishiga va mantiqiy tahlil qilishiga yordam beradi.

Kadirova "O'qish savodxonligi va uning ahamiyati"[6] asarida o'qish savodxonligining nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki ijtimoiy va shaxsiy hayotga ta'sirini ko'rsatadi. Muallif, o'qish jarayonida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o'quvchilarga har qanday muammoni tahlil qilish va hal etish ko'nikmalarini beradi, bu esa ularning umumiy rivojlanishiga yordam beradi.

Azizov "Zamonaviy ta'lim uslublari"[2] asarida o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. O'yinlar,

simulyatsiyalar va boshqa interaktiv usullar yordamida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga jalb qilish, ularning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini yengillashtiradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun labirint, ikkita obyekt o'rtasida o'xshashlikni aniqlash, xato topish, krossvord yechish orqali rivojlantirish kerak. Eng samara beradigan usullardan biri bu rasmdir. Chizish jarayonida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, rang, hajm, makon kabi tushunchalar paydo bo'ladi. Bolalar ko'proq o'yinqaroq bo'lganligi sababli ularga o'yin texnologiyalari bilan darsni o'tkazish kerak. O'yin o'quvchini ta'limda g'alaba erishishda qiziqishini orttiradi va undan bola kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatini beradi. O'quvchini o'yin orqali tezkor harakat qilishga, chaqqonlikka topqirlikka, unda qonun-qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, ularda tashqi dunyoni tasavvur etish, erkin fikr yuritish, o'zaro muloqotga kurashuvchanlik vujudga keladi.

Maqolada o'qitish metodlarining bir nechta tahlil qilinadi, jumladan:

- **Interaktiv usullar:** O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan metodlar, masalan, guruh bilan ishlash, munozaralar va rolli o'yinlar.
- **Muammoni hal qilish yondashuvi:** O'quvchilarni muammolarni hal qilishga undash, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.
- **O'yin orqali o'qitish:** O'yinlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish.

Shu o'rinda 4-sinflar uchun mo'ljallangan "O'qish savodxonligi" darsligidagi "Kitob va boylik" [9] hikoyasini tahlilga tortaganimizda, oltin-u zar yomon odam qo'liga tushsa yomonlikka ishlatilishi mumkinligi, ammo kitoblar har joyda ezgulikka xizmat qilishini o'quvchilarga yetkaza olishimiz darkor. Buning uchun birinchi o'rinda bu matnni bolalarga o'qib berib, mazmunini esa so'zlab berib, ularni har doim kitob o'qishga chorlash kerak. Bu matn orqali bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish mumkin. Buni amalga oshirish uchun doskani o'rtasidan chizib, bir tomoniga kitob yana bir tomoniga boylik deb yozish kerak. Sinfdan 5-6 ta o'quvchilarni turg'izib, ulardan qaysi birini tanlashni va nima uchun tanlaganini so'rash kerak. Qolgan o'quvchilarga esa daftarlarida ular nimani tanlashlarini yozishni aytish kerak. Bu bilan bolalar fikrlab yozishga harakat qiladilar. Bolalarni nima yozganliklarini bilib bo'lgandan so'ng, bolalarni rag'bantlashtirish uchun ularga kichik-kichik shirinliklar berish kerak. Kitob o'qish, mehnat qilish, bilimli bo'lish orqali boylikka erishish mumkinligini tushuntirish kerak. Kitob va boylik matnida ham bir boyvachchani dur-u javohirlari, Hasan Dashtiyni esa sandiq-sandiq kitoblari bosqinchilar qo'liga tushgan. Talonchilar qo'lidan mingga yaqin kitoblarini shogirdlari sotib olib, yana qancha asarlarini ahli ilm muxlislari talabgor bo'lgan. Shuni aytish mumkinki, kitoblar har joyda doim ezgulikka xizmat qiladi.

Bundan tashqari o'quvchilarni mantiqiy mushohadaga undaydigan savol-topshiriqlar bilan murojaat qilishimiz mumkin:

1. Inson hayotida kitob qanday mavqega ega? Insonga kitob o'qish nima uchun kerak deb o'ylaysiz? Sizning hayotingizda kitob qanday o'rin tutadi?
2. Bolaligingizda sizga kim ertaklar o'qib bergan? Qaysi ertak qahramoni sizga yoqmaydi? Qaysi ertak qahramoni o'rnida bo'lishni xohlagan bo'ladingiz?
3. Qaysi ertakni o'qib ilk bor zavq olgansiz? Sizga bu ertak qanday ijobiy ta'sir ko'rsatgan?
4. Oxirgi marta qachon kitob do'konidan kitob xarid qildingiz? Nima deb o'ylaysiz, xaridorlarni qanday qilib kitob do'konlariga qiziqtirish mumkin?
5. "Tilsiz, aql o'rgatar" topishmoqning javobini toping va uning mag'zini ochishga harakat qiling.
6. Agar jahon va xalq ertaklari bo'yicha "Oltin javon" tuzilib, unga 10 ta ertak kiritish zarurati tug'ilsa, qaysi ertaklarni kiritgan bo'ladingiz?
7. "Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani" degan iboraga siz qanday ta'rif beradingiz?

8. Ayting-chi, bu ertakdan qanday xulosa chiqardingiz? Sizning-cha, Hasan Dashtiy o'zining nmaqsadiga erishdimi?

9. Bolalar uchun mo'ljallangan yangi chop etilayotgan kitoblarni kuzatib borasizmi? Bu kitoblardan ko'nglingiz to'lmayotgan tomonlari ham bormi?

10. Hozirgi kunlarda qanday kitob o'qiyapsiz? Do'stlaringizga qaysi kitobni o'qishni maslahat bergan bo'lardingiz?

Natijalar tahlili

O'quvchilar o'zaro bir-birlariga tengqurlarining qiziqishlariga, fikrlashlariga, yordam berishga harakat qiladilar. Ularda o'yin davomida dars jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga hamda ulardan turli vaziyatlarda foydalanish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Nemis olimi, psixolog K. Kross o'yin vositasida bola o'zini tutish, olamni o'rganish, an'alarini bilish, atrof-muhitga moslashish ko'nikmasini shakllantiradi, degan ekan. O'qituvchilarning zamonaviy metodlardan foydalanishi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi. Tadqiqotlar natijasida, interaktiv metodlar yordamida darslar o'tkazilganda o'quvchilarning natijalari sezilarli darajada yaxshilanganligi aniqlangan. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, bahs-munozaralarda ishtirok etish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini oshirganliklari kuzatilgan.

O'yin o'quvchini o'ylashga, topqirlikka, mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Shu asosda unda men degan tushuncha shakllanadi. O'quvchining shaxs sifatida rivojlanishida, hayotda ishlash, insonlar bilan muloqot qilishga, o'quv-bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishda, psixologik tayyorlashda yordam beradi. O'yin organizmda ortiqcha energiyadan xalos bo'lish, charchash va vaqtda kuchni foydali holda ishlatish, ayrim holda uni tiklashda ham yordam beradi. O'yin insonning hayotiy muvozanatini saqlashda, uning faolligini oshirish orqali organizmda ishlamay turgan a'zolarini ishga, harakatga keltirib yuboradi.

Xulosa

Maqola natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning umumiy ta'lim ko'nikmalarini oshiradi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ushbu tahlil, o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatdi. Interaktiv metodlar, muammolarni yechish yondashuvi va innovatsion o'qitish usullari o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlar bolaning muloqotga ko'rishuvchanligini oshirib, uning rivojlanishiga olib keladi. Buning oqibatida bola muvaffaqiyat qozonishga intiladi, uning ziyrak, hushyor, bo'lishga, zavqlanishga o'rganadi. U bola doim o'rganish harakatida bo'ladi. Ta'lim tarbiya jarayonida o'zligini namoyon qilish uning kundalik yashash tarziga aylanadi. O'qituvchilar va pedagoglar bu metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning umumiy ta'lim darajasini yaxshilashlari mumkin.

Taklif va tavsiyalar:

1. O'qituvchilar zamonaviy interaktiv metodlardan faol foydalanishlari kerak.
2. Ta'lim dasturlariga mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ko'proq faoliyatlar kiritilishi lozim.
3. O'qituvchilar va pedagoglar o'rtasida tajriba almashish platformalari tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdukarimov A. "Mantiqiy fikrlash va ta'lim". - Toshkent: "O'qituvchi", 2020.
2. Azizov B. "Zamonaviy ta'lim uslublari". - Toshkent: "O'qituvchi", 2023.
3. Boboyev Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. - Toshkent: "O'qituvchi", 2017.

4. Gegel. Ensiklopediya filosofskix nauk. T.1. Nauka logiki. – Moskva: Pedagogika, 1974, – S. 107
5. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang‘ich ta’limda adabiyot o‘qitish metodikasi. SamDU. 2019. - 350 b. 182-b.
6. Kadirova N. “O‘qish savodxonligi va uning ahamiyati”. - Tashkent: “O‘qituvchi”, 2022.
7. Mamatqulov O. “Ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalar”. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2021.
8. Tafakkur gulshani. //Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so‘zlari. to‘plovchi Voronsov V. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – 54 b.
9. Toirov M.E. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I qism. - Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. - 80 b.
10. Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчиларни билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, ТДПУ, 2005. – 22 б.
11. Машарипова У. А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси. Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2018. – 163 б.

10.00.00 - Filologiya

XORAZM MATBUOTI TARIXIDAN

Iqboloy Adizova Istamovna

Filologiya fanlari doktori,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

E-mail: ataullo98@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm jadid matbuotining shakllanish, vujudga kelish va tarqqiyot bosqichlari yoritiladi. Dastlab vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy asoslari o'rganiladi. Bunda Xorazm xalqining buyuk farzandi, shoir, tarixchi, davlat arbobi Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi xorazmshohiy" tarixiy asaridagi ma'lumotlarga va matbuot matnlariga asoslaniladi. "Shajarayi xorazmshohiy"ning so'nggi – XV bobida XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy hayot, Rossiya mustabidchiligi, ozodlik va mustaqillikka ehtiyojning paydo bo'lishi bilan bog'liq xalqning kechinmalari, qalb tug'yonlari, ziyoli qatlamning jonkuyarliligi va fidoiyligi o'z ifodasini topgan. Bu tasvirlar bizni Xorazm jadidchiligi va uning shakllanishiga sabab bo'lgan tarixiy voqealiklar bilan tanishtiradi. Jarayonning faol ishtirokchilari, jonkuyar yetakchilari va tashkilotchilari haqida ma'lumot beradi. Shu sababli ham, tadqiqotni yaratishimizda mazkur asarga va davr matbuoti manbalariga tayanib xulosalar chiqardik.

Maqolada Xorazm jadid matbuotining yo'l boshlovchilaridan, keyinchalik qatag'on qurbonlaridan bo'lgan Bekjon Rahmonov, Otajon Abdalov va Qurbon Olloberganov (Beregina)ning faoliyatlarini yoritishga ham alohida e'tibor qaratildi. Ularning umr yo'llari, turkiy xalqlar kelajagi va mustaqilligi uchun amalga oshirgan ishlari borasida ma'lumotlar berildi. Xorazm jadid matbuotining birinchi mahalliy gazetasi "Inqilob quyoshi"dir. U 1920 yil 6 martdan boshlab chop etila boshlangan. Maqolada mazkur nashrning taqdiri, ahamiyati va ijtimoiy hayotdagi o'rni ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: matbuot, jadid, poligrafiya, matbaachilik, qatag'on, inqilob, maorif, toshbosma, mixbosma.

ИЗ ИСТОРИИ ХОРАЗМСКОЙ ПЕЧАТИ

Аннотация: В данной статье освещаются этапы формирования, возникновения и развития джадидской печати Хорезма. В первую очередь рассматриваются социально-исторические основы её появления. В этом контексте используется информация из исторического труда великого сына народа Хорезма — поэта, историка и государственного деятеля Мухаммада Юсуфа Баяни — «Шажараи Хорезмшохий», а также тексты печатных изданий. В последней — XV — главе «Шажараи Хорезмшохий» отражены социально-исторические реалии второй половины XIX — начала XX веков, переживания народа, связанные с колониальной политикой царской России, с пробуждением стремлений к свободе и независимости, а также патриотизм и самоотверженность просвещённой части общества. Эти описания знакомят нас с хорезмским джадидизмом и историческими событиями, ставшими причиной его возникновения. Представлены сведения об активных участниках процесса, его преданных лидерах и организаторах. Именно поэтому при подготовке исследования были сделаны выводы на основе упомянутого исторического источника и материалов печати того периода.

Особое внимание в статье уделяется деятельности таких ведущих представителей джадидской прессы Хорезма, впоследствии ставших жертвами репрессий, как Бекджон

Рахмонов, Отажон Абдалов и Курбон Аллаберганов (Берегин). Приводятся сведения об их жизненном пути, вкладе в дело будущего и независимости тюркских народов.

Первой местной газетой джадидской печати Хорезма стала «Инкилоб куйоши» («Солнце революции»), издававшаяся с 6 марта 1920 года. В статье также раскрывается судьба данного издания, его значение и роль в общественной жизни.

Ключевые слова: печать, джадидизм, полиграфия, типография, репрессии, революция, просвещение, литография, типографское дело.

FROM THE HISTORY OF KHOREZM PRESS

Annotation: This article describes the stages of formation, emergence and development of Khorezm modern press. First, the socio-historical foundations of its creation are studied. It is based on the information and press texts of the great son of the Khorezm people, poet, historian, statesman Muhammad Yusuf Bayani's historical work "Shajarai Khorezm Shahi". The last - 15th chapter of "The Genealogy of Khorezm Shahi" describes the social and historical life of the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, the experiences of the people, the heartbreaks, the enthusiasm and selflessness of the intelligentsia, related to the emergence of the need for Russian autocracy, freedom and independence. These images introduce us to Khorezm modernism and the historical realities that led to its formation. Provides information about active participants, passionate leaders and organizers of the process. For this reason, we drew conclusions based on this work and press sources of the time when creating the research.

The article also pays special attention to the coverage of the activities of Bekjon Rakhmonov, Otajon Abdalov, and Kurban Olloberganov (Beregin), who were leaders of the Khorezm Jadid press and later victims of repression. Information is provided about their life paths, the work they have done for the future and independence of the Turkic peoples.

The first local newspaper of the Khorezm Jadid press is "The Sun of the Revolution." It began to be published on March 6, 1920. The article also reveals the fate, significance, and place of this publication in public life.

Keywords: press, jadid, polygraphy, printing, repression, revolution, education, lithography, nail printing.

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida jadid matbuoti tarixini o'rganish borasida ko'plab, jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Uning yetuk namoyandalari faoliyati keng ko'lamda tadqiq etilgan. Xorazm jadid matbuoti ham mazkur yo'lining muhim sho'baligidir. 1920-1930-yillarda qadimiy va betakror diyor Xorazmda "Inqilob quyoshi", "Xorazm xabarlari", "Yoshlar ovozi", "Toza cho'l", "Maorif", "Hunarmandlar cho'kichi", "Ishchi tovushi", "Yordam" kabi o'nlab gazeta va jurnallar chop etilgan. O'z davrida ular xalqni uyg'otish, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksaltirish borasida ulkan vazifalarni bajargan. Mazkur matbuot namunalari davrning ijtimoiy hayotini, faol tarixiy jarayonlarni aniq tasavvur etishimizda, tarixni to'g'ri baholashimizda katta ahamiyatga ega. Ammo shunga qaramay, jadid matbuoti tarixi yoritilgan tadqiqotlarda, mazkur voqea matbuoti yetarli darajada yoritilmay kelinmoqda. Ushbu maqola ayni masalaga bag'ishlangan.

Matbuotning insoniyat hayotini va tarixini o'rganishda juda katta o'rni bor. Unda har bir xalqning ijtimoiy hayoti, madaniy-ma'rifiy dunyosi, adabiyot va adabiy jarayoni, san'ati o'z aksini topadi. Shu sababli ham, har bir millatning tarixi, adabiyoti taraqqiyoti haqida tasavvurga ega bo'lish uchun, albatta, uning matbuoti sahifalari qatida yoritilgan hayot tarzi bilan chuqur tanishmoq lozim. Shu ma'noda, Xorazm jadid matbuotini tadqiq etish bizga XX asrning 20-30-yillaridagi Turkiston tarixi bilan bog'liq ko'p masalalarga oydinlik kiritishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganining dastlabki kunlaridan boshlab, ma'naviyat, madaniyat va matbuotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 1928 yilga kelib, 4 yil ichida "Kommunist", "Inqilob", "Yer yuzi", "Maorif va o'qitg'uvchi", "Tong yulduzi", "Qishloq xo'jaligi turmushi" kabi 24 ta jurnal tashkil etilgan. Birgina Xorazm hududida o'nlab gazeta va jurnallar tashkil etilganini kuzatamiz. Ular sho'ro davlatining g'oyalarini targ'ib etish bilan birga, xalqning fikrini ochish, millatni uyg'otish yo'lida katta vazifalarni bajargan.

"Inqilob quyoshi" gazetasi Xorazmda tashkil etilgan ilk gazeta hisoblanadi. 1920 yil 6 martda uning ilk soni chop etiladi. Bu ishning tashkilotchi va muharrirlari Otajon Abdalov, Bekjon Rahmon, Qurbon Beregin, Zokir Bekchurin, Madrahim Saydashev, Habib Samigullin, Muhammad Zokirov, Umar Qurboniylar kabi ijodkor va yoshlar faollari edilar. Undan tashqari, Xorazmda 10 ga yaqin "Qizil Xorazm", "Xorazm xabarları", "Yoshlar ovozi", "Toza cho'l", "Hunarmandlar cho'kichi", "Maorif", "Ishchi tovushi", "Qopqon", "Yordam" singari gazetalar ham chop etilgan. Bular hukumatning matbuotni rivojlantirishga katta ahamiyat berganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasida, bugungi kunda "Inqilob quyoshi" gazetasining 115 ta soni saqlanadi. Shundan, 20 tasi 1920 yilda chop etilgan sonlardir. Ularda davr hayoti, ijtimoiy-siyosiy masalalar, zamondoshlarni uyg'otishga, mustaqillik g'oyalarini singdirishga, faollikka, mehnatkashlikka da'vat, chaqiruv ustuvorlik qilganini kuzatamiz.

"Inqilob quyoshi" dastlab toshbosmada, keyinchalik mix bosmada nashr etilgan. Ilk nusxalari 2 sahifadan iborat bo'lib, arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida, yirik harflarda chop etilgan. Gazeta o'zbek va turkman tillarida bosilgan. Matbaa ishlari, asosan, qo'lda bajarilgan, toshbosma qoliplarining og'irligi qiyinchilik tug'dirgan. Shu sababli ham, gazeta dastlab haftada bir marta, keyin 2 marta, keyinchalik, har kuni nashr etila boshlagan. Bu gazetachilikning rivojlanib borganidan dalolatdir.

Gazeta dizayni juda e'tibor bilan ishlangan. Gazeta sahifasi 3 ta qismga bo'lingan: 1-bo'limda yirik harflarda, juda go'zal shaklda gazetaning nomi, 2-bo'limda muassislar berilgan, 3-bo'limda esa "Mundarijasi" sarlavhasi ostida gazetada berilgan matnlar mazmuni bilan tanishtirilgan. Dastlab, gazetaning eng tepasida ikkita quyidagi shior-epigraflar keltiriladi: 1. "Yashasun Sharq ozodligi!" 2. "Birlashingiz butun dunyo mehnatkashlari!" Keyin gazeta va muassislar haqida ma'lumot keltiriladi: "Xorazm Markaziy ijroiya qo'mita ham Markaziy ishtirokiyun firqa qo'mitalari tarafidin haftada ikki martaba chiqaturg'on siyosiy va ijtimoiy gazetadur".

Gazeta mundarijasi va ruknlari bilan tanishganda, mavzularning rang-barangligini, yangiliklarning ko'pligini, O'zbekiston, xususan, Xorazmda yuz berayotgan barcha voqea-hodisalar keng ko'lamda qamrab olinganligini ko'ramiz. Jahonda yuz berayotgan xabarlar yuzasidan axborotlar bilan tanishamiz. Gazetaning ikkala sahifasi ham 3 bo'lakka bo'lingan. Birinchi, ikkinchi qismda Xorazmga oid ichki ma'lumotlar berilib, 3-qismda gazetxonlar dunyo xabarları bilan tanishtiriladi. O'ndan ortiq ruknlardan foydalanilgan: 1. "Qizil Xorazm jumhuriyatida". 2. "Dehqonlar soyuzi". 3. "Simsiz telegram xabarları" 4. "Partiya ishlari". 5. "Yoshlarni qutqaruv choralari". 6. "Xorazmda ziroat ishlari". 7. "Xorazm xabarları". 8. "Tanqidiy maqola". 9. "E'lon". 10. "Sharq ma'muriyatida" va boshqalar.

Gazeta mazmunidan ikki xil kayfiyat sezilib turadi. Birinchidan, yangi inqilobiy davr bilan bog'liq ravishda, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat, ta'lim sohalarini, mamlakatni taraqqiy ettirish, xalqning dunyoqarashini oshirish, ilm vositasida ularni uyg'otish, milliy qadriyatlarni anglab yetishga da'vat kabi jadidlik g'oyalari bilan sug'orilgan ko'tarinki kayfiyatdagi maqolalarni kuzatamiz. Ikkinchidan, sho'rolar g'oyalari ta'siridagi qarashlarning guvohi bo'lamiz. Ayrim maqolalarda, albatta, davr siyosati bilan bog'liq holatda, xonliklar davri xalqni zulm iskanjasida ushlaganlikda va qoloqlikda ayblanganligini ko'rish mumkin.

“Inqilob quyoshi” gazetasida ijtimoiy hayot hodisalarining yoritilishi bilan birga, davr adabiyoti, adabiy jarayon, san’at borasida ham ma’lumotlarga duch kelamiz. O’sha davrda faol ijod bilan shug’ullangan Bayoniy, Mutrib, Mullo Inoyatullo Qozi, Avaz O’tar, Ojiz, Chokar, Devoniy, Oqil, Partav, Haziniy, Hoji Mahmudiy, Safo Mug’anniy kabi zamon shoirlarining xalqning ruhini ko’taruvchi, uyg’otuvchi asarlari ham chop etilgan.

1923 yil sentyabr oyida mazkur gazetada chop etilgan she’rlar jamlanib, “O’zbekcha inqilobiy she’rlari yug’urumi” sarlavhasi bilan Xivada to’plam holida chop etilgan. Mazkur to’plamda jamlangan nazm namunalari bilan tanishib, gazetada davrning muhim xabarlarini bilan bir qatorda she’riyat, adabiyot namunalari ham xalqni uyg’otish, jadidchilik g’oyalarini targ’ib etishda qanchalik muhim vazifalarni bajarganligining guvohi bo’lamiz. Ayniqsa, Bayoniyning “Mustabidlar javridin bexonumon o’ldi jahon...” naqarotli muxammasi xalq ko’nglidagi dardni, davr ruhini, tarixiy jarayondagi voqea-hodisalar ko’lamini anglashimizga yordam beradi. Zamondagi notinchlik, xalqning og’ir ahvoli Bayoniy qalb torlarini chertib o’tadi. Shoir el taqdiriga, xarob qilinayotgan vatan qismatiga achinadi:

Chun hukumat ahli topdilar jahonda izzu shon,
Ayladilar dahraro faqr ahlining bag’rini qon.
Kizb ila kinga yasab qonune, g’adr aylab ayon,
Ne shariatga, ne zakonga amal aylab ul on,
Mustabidlar javridin bexonumon o’ldi jahon!
Xonimiz¹ xon bo’lgach, etdi topganin tuproqg’a xarj,
Ne navkar minmakka ot topdi, ne ot topganda sarj.
Yurtidan parvoyi bordurmu oning, darkori farj,
Qaysi bir fe’lini aylarman bu avroq ichra darj,
Mustabidlar javridin bexonumon o’ldi jahon! [Yug’urumiya, 1923, 9-10-b.]

“Mustabidlar javridin...” muxammasi tanqidiy xarakterga ega bo’lib, unda hukmron sinf vakillarining boshboshdoqligi, xudbinligi, sitamkorligi fosh etiladi. Bu she’r “javru zulm ahli bori maqsadlariga yetgan, mulki ko’p bo’lsa bas, el qirilganidan g’am yemagan xon va beklar” zamonining, kishilar dunyodan “zor giryon, armon bilan ketgan” nochorliklar, iztiroblar zamonining yaxlit bir tarixiy manzarasini ifodalab beradi. Muxammasda Bayoniy tinchlik, baxtiyorlik masalasini ilgari suradi. Turli talon-toraj, harbiy janjallarga yo’l qo’ymaslik, vatanparvarlik g’oyalarini kuylaydi.

Sho’rolarning inqilobiy davlat to’ntarishi milliy mafkurani ostin-ustin qilib yubordi. Xalqqa bu hodisa asrlar mobaynida orzulangan chinakam erk, ozodlik, hurriyat, tenglik g’alabasi deya tushuntirildi. Sho’raviy tuzum eng xalqparvar, adolatshior rahnamo kuchdek tinimsiz targ’ib-tashviq etildi. Qizil bosqinchilik – xaloskorlik, vahshiylarcha to’kilgan qon – qutlug’ qon, shahidlarning qirmizi qonidan alvon bo’lgan ol bayroqlar – ozodlik tug’i deya ramziylashtirildi. Xalqning avomu ziyolisi bunday olamshumul fitnaga ishonitirildi. Ulusning butun boshli bir avlodi aldandi. Hatto, Chor Rossiyasi bosqinchiligini o’z ko’zi bilan ko’rgan Bayoniy ham sho’ro inqilobi o’sha istiloning o’zgacha qiyofadagi davomi ekanligini anglab yetmadi. Buni shoir o’zi orzulagan hurriyat deb qabul qildi va katta umidvorlik bilan kuyladi. Aldangan avlod namoyandalari o’zbek inqilobiy adabiyotini maydonga keltirdilar. Ko’lamdor bu adabiyotni chetlab o’tish yoxud yo’qqa chiqarish qiyin. Ulkan merosimizning ushbu parchasini tanqidiy nigoh bilan o’rganish maqsadga muvofiq. Ammo peshqadam shoirlarimiz ilhom va ijodlarini hurriyat, erk, ezgulik, ma’rifat uchun kurashga safarbar etishgan. Xususan, Bayoniyning “Ahli ash’ora” she’rida bu kayfiyat, shoirning an’anaviy uslubdagi ijodkordan otashnafas erkparvar shoir darajasiga o’sib yuksalgani ayon ko’rinib turadi:

Elni kurashga chorlang,

¹ Bu o’rinda 1910 yilda otasi Muhammadrahimxoni Soniy Feruzdan keyin Xiva taxtiga o’tirgan Asfandiyorxon nazarda tutilgan.

Ma'rifat sari yo'llang,
Jabhalardan so'z so'zlang,
Fidoyilarni kuylang,
Shoirning iftixori,
Shoir baxti shundadir.

“Yug‘urumiya”dagi har bir she‘rning “Inqilob quyoshi” gazetasining 1920 , 1921 va 1922 yillardagi qaysi sonida chop etilgani aniq ko‘rsatiladi. Ayniqsa, Avaz O‘tarning jadid ma‘rifatparvarlari g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan “Xalq”, “Hurriyat”, “Til”, “Sipohiylarg‘a”, “Ulamolarga xitob”, Chokarning “O‘quv”, “Hurriyat”, Ojizning “Hurriyat”, Haziniyning maxsus bolalar uchun yozilgan “Xorazm dehqoni”, “Gulduring” kabi mashhur she‘rlari gazetaning ilk sonlarida e‘lon etilgani, mazkur gazetaning davr uchun qanchalik muhim maqomda turganini isbotlaydi.

Gazeta sahifalarida turli e‘lonlar, yangiliklar haqida xabarlar ham berib borilgan. Unda hududning ma‘naviy-ma‘rifiy hayotiga oid xabarlarni ham uchratamiz. Jumladan, muzey ochilgani, teatr tashkil etilgani, yangicha usuldagi maktablar soni kundan-kunga ko‘payib borayotgani haqidagi ma‘lumotlarni ham kuzatamiz. “Inqilob quyoshi” 1921 yil martidan 1922 yil mayigacha “Xorazm xabarleri” nomi bilan ham chiqarilgan.

Xorazmda 1921 yil iyulidan boshlab, “Izvestiya” gazetasi ham o‘zbek, rus va turkman tillarida chop etilgan. O‘zbekiston Milliy kutubxonasida uning hozirgi kunda 16 ta soni saqlanadi. Unda, asosan, Xorazm jumhuriyatidagi ijtimoiy hayotga aloqador kundalik xabarlar berib borilgan.

Xorazm matbuoti o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ammo shu paytgacha ular yetarli o‘rganilmagan. Hatto 1930-40 yillarda Xivada “Bo‘l tayyor” deb nomlangan bolalar gazetasi ham chop etila boshlagan.

XX asrning 20-yillarida Xadicha Bikchurina, Maryam Is‘hoqova, Norjon Abdusalomova, Onajon Safoeva, Onajon Beregina kabi ayol muxbirlar ham yetishib chiqdi. Ular ham Xorazm ijtimoiy hayotining gullab yashnashida, jamiyatdagi muhim muammolarni ko‘tarib chiqishda faollik ko‘rsatishdi. Ko‘plab o‘zlariga o‘xshagan xotin-qizlarga namuna bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topishlariga sababchi bo‘ldilar.

Gazetaning birinchi muharriri Bekjon Rahmonov bo‘lgan. Bekjonning otasi Xiva xonligida katta hurmatga sazovor inson bo‘lib, mashhur bosh vazir Islomxo‘janing eng yaqin kishilaridan biri edi. Bekjon har tomonlama chuqur bilim oladi. Xivadagi eski va yangi usul maktablarida ta‘lim oladi. Madrasada diniy va fiqhiy ilmlarni mukammal o‘rganadi. Keyin Turkiyada Istanbul dorul-mualliminida tahsil olib, pedagog bo‘lib yurtiga qaytadi. Uning dunyoqarashi keng. Serqirra iste‘dod sohibi edi. Faylasuf, publitsist, tilshunos, adabiyotshunos, san‘atshunos, ijodkor sifatida mahoratli va noyob mutaxassis, “Yosh xivaliklar” deb nomlangan jadidchilik harakatining yetakchilaridan edi. U 1920 yilda Xiva muzeyi tashkil etilganda, direktor lavozimiga, keyinroq jumhuriyat maorif noziri lavozimiga tayinlanadi. U yurti taraqqiyoti uchun ko‘p ishlarni amalga oshiradi. Maktablar, o‘quv kurslar ochadi. Boboovun Salimov bilan hamkorlikda jadid maktablari uchun “Alifbo”, “O‘qish kitobi” kabi darsliklar yaratadi. U ko‘plab publitsistik maqolalar yozadi. Xalq maqollarini to‘plab “Otarlar so‘zi” nomi bilan kitob chop ettiradi. Bu kitobda jamlangan xalq hikmatlari millatning o‘zligini anglashi, uyg‘onishi uchun asos bo‘lishini muallif yaxshi tushungan. “Xorazm musiqiy tarixchasi”, “Xilvati so‘fiho” kabi asarlari ham bor. U Xorazmda Milliy ozodlik harakatining yetakchisi sifatida ko‘p ishlarni amalga oshirdi. Yangi alifbo munosabati bilan til va tilshunoslikka, millat maqomiga oid ko‘p muhim fikrlarni ilgari surgan. Uning vafoti haqida har xil qarashlar bor. Shulardan aniqrog‘i, Sovet chekistlari tomonidan Amudaryoda kemada vahshiylarcha o‘ldirilganidir. O‘zbek xalqining mustaqilligi yo‘lida jonini fido qilgan yetuk farzandining qismati afsuski yetarli o‘rganilmagan. Uni o‘rganish kelajakda ilm ahli oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

“Inqilob quyoshi”ning ilk muharrirlaridan yana biri Otajon Abdalov Xorazm matbaachilarining yetakchilaridan edi. U bu sohaning yetuk mutaxassislaridan. Toshkent va Moskvaga borib zamonaviy poligrafiyaning sir-sinoatini o‘rganib kelgan. Poligrafiyaning yangi apparatlari, asbob-uskunolari Xorazmga olib kelinadi. Bunda O. Abdalov faollik ko‘rsatadi. Ularni ishga tushiradi. Matbuot nashrlarini ko‘p sonda, sifatli chop etishda, Xorazmda matbuotni rivojlantirishda o‘zining ulkan hissasini qo‘shadi. Hatto, u “Qizil mehnat” ordeni bilan ham taqdirlanadi.

Xorazm jadid matbuoti bevosita Qurbon Beregin nomi bilan ham bog‘liq. Unga bag‘ishlab ayrim asarlar yaratilgan. Ammo bu yetarli emas. Uning faoliyati haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Uning Xorazm va O‘zbekistonning XX asr 20-30- yillar tarixi va taraqqiyotida ulkan xizmati bor. Bu faoliyatni mukammal o‘rganish nihoyatda muhimdir.

2006 yilda Naim Karimov tomonidan “Qurbon Beregin qismati” nomli kitob chop etilgan [Karimov, 2006]. U dastlabki asar bo‘lgani sababli, Beregin haqidagi umumiy ma‘lumotlarni qamragan. Uning faoliyati esa serqirra. U siyosiy arbob sifatida davlatning ko‘plab tashkilotlarida – O‘zbekiston nashriyoti, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar tashkiloti, hatto, Markazqo‘mda rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Jurnalist, yozuvchi sifatida yaratgan asarlari katta ko‘lamga ega. Shunday ekan, uning faoliyati turli qirralardan, turli mutaxassislar tomonidan chuqur tadqiq etilishi nihoyatda dolzarbdir.

Qurbon Beregin taqdiri rang-barang sarguzashtlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bolaligidan uning zuvalasi mehnat bilan qorilganining guvohi bo‘lamiz. Oddiy hunarmand oilaning farzandlari kabi u ham yoshligidan otasiga, oilasiga yordam berish maqsadida turli mehnatlar bilan shug‘ullanadi. Keyinchalik 20-yillardagi inqilobiy o‘zgarishlar ko‘plab tengdoshlari kabi uni ham o‘z bag‘riga oladi.

U 1921 yilda Xorazm yoshlar ittifoqi tomonidan o‘ndan ortiq tengdoshlari bilan birgalikda, Qozonga harbiy-siyosiy maktabga o‘qishga yuboriladi. Ular jo‘nab ketishidan oldin Xivada tatar millatiga mansub ko‘plab ma‘rifatparvarlar kelib, yangi uslubdagi maktablar tashkil etgan edi. Xorazm tilining tatar tiliga yaqinligi sababli, ular bilan muloqot qilishlari, hatto gazetalar bilan tanishishlari muammo keltirmas edi. Shu davrdayoq, Xivaga ko‘plab gazetalar yetib kelgan. Keng xalq ommasi ular bilan tanishish imkoniga ega bo‘lishgan. Bu borada quyidagicha ma‘lumot beriladi: “Bu gazetlar ichida eng ko‘p tarqalganlari Orenburgda nashr qilinmoqda bo‘lgan «Vaqt» gazetasi. Bularidan boshqa yana Rusiyada nashr qilinadigan tatar gazetalaridan «Ittifoq», «Yulduz», «Taraqqiy»ni, jurnallardan «Din va maishat»ni va Istanbul gazetalaridan «Vahdat»ni o‘qiydur” [Karimov, 2006, 15-b.].

Bu o‘rinda Istanbulda chop etilgan “Vahdat” gazetasi ham tilga olinmoqda. Bu bejiz emas. Chunki Xorazm tili usmonli turk tiliga ham juda yaqinligi, mazkur gazetaga talabning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ko‘rinadiki, Xiva xonligiga Rossiya, Turkiya, Qozon kabi turli xorij mamlakatlaridan ma‘rifat epkinlari esa boshlagan edi. Bu, albatta, sekinlik bilan bo‘lsa-da, o‘z mevasini ko‘rsatgan.

Qurbon Olloberganov (Beregin) 1922 yil yanvarda Qozondan qaytib kelgandan keyin, hukumat idoralarida ishlay boshlaydi. Dastlab Xiva shahri yoshlar tashkilotining bo‘lim boshlig‘i, keyin shahar Favqulodda komissiyasining maxfiy-shoshilinch ishlar bo‘limiga tergovchilik vazifasini bajaradi. Ko‘p o‘tmay, uni Moskvaga kommunistik universitetga o‘qishga yuborishadi. Ammo sog‘ligi yomonlashib, noyabr oyida Xorazmga qaytib, yoshlar tashkiloti kotibi sifatida faoliyat olib boradi.

Qurbon Beregin yoshlarning eng faol ustozlaridan biri darajasiga ko‘tariladi. Xorazm yoshlar tashkilotida turli lavozimlarda xizmat qiladi. Tengdoshlarini bilim egallashga, o‘qishga targ‘ib-tashviqi bilan shug‘ullanadi. 500 lab yigitlarni, 30 ga yaqin qizlarni turli shaharlarga turli kurslarga o‘qib, tajriba orttirish uchun jo‘natishda bosh-qosh bo‘ladi. Xorazm yurtining ravnaqi, rivoji va taraqqiyoti uchun jon-jahdi bilan xizmat qiladi. Yangi va o‘zgarishlar davriga chin dildan ishonib, butun kuchini berib, ona xalqi kelajagi uchun harakat qiladi.

Tarixdan ma'lumki, 1873 yildagi keskin kurashlar natijasida Xorazm Rusiya imperiyasining vassaliga aylandi. Ammo ma'rifatli, xalqining ma'naviyatini yuksaltirish uchun hamisha jonkuyarlik bilan faoliyat olib borgan Xiva xoni Muhammad Rahimxoni Soniy Feruz yurtida ilm-fan, adabiyot, san'atni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Ilojsizlikdan, Rusiya bilan munosabatlarini yaxshilashga, undan o'z ona yurti va xalqining kelajagi va ravnaqi uchun foydalanishga harakat qildi. Jumladan, O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib, kino, fotografiya kabi zamonaviy san'atlarni Xivaga olib keldi va rivojlantirish choralari ko'rdi. Ayniqsa, uning xonligi davrida kitobchilik, tarjima san'atlariga ham jiddiy e'tibor berganligi borasida ko'p ma'lumotlar yetib kelgan. Ana shu katta tajribani yanada taraqqiy ettirib, birinchilardan bo'lib, Xivada 1880 yildayoq, tipografiya va nashriyotlar tashkil etdi. Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Xazoyin ul-maoniy", Shermuhammad Munisning "Munis ul-ushshoq", Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin", Komil Xorazmiyning devonlari kabi asarlar litografik usulda nashrdan chiqdi. Bular Xorazmda noshirlik ishlari bo'yicha katta tajriba mavjudligini ko'rsatadi. Ana shunday o'lkaning farzandi bo'lgan, ajdodlar tajribasidan suv ichgan Q.Beregin ham o'z davrida nashriyotchilik salohiyatini ishga soladi. U "1931 yil oktyabr oyida O'zbekiston Davlat nashriyoti pravleniesining raisi etib tayinlanadi va 1933 yilning noyabr oyiga qadar nashriyot direktori lavozimida xizmat qiladi" [Karimov, 2006, 32-b.].

Uning sa'y-harakati bilan kitob nashri va targ'iboti yuqori darajaga ko'tariladi. "Kitob va inqilob" jurnalida chop etilgan o'z maqolasida raqamlar bilan keltirib, 1932 yildan 1933 yilgacha 1 yil mobaynida kitob chop ettirish 3 baravarga ortganligi haqida ma'lumot beradi.

Qurbon Beregin juda chaqqon, kirishimli, ilm-ma'rifatli va adolatli inson edi. Shu sababli ham, atrofida hamisha yaqin do'stlari adabiyotshunos va yozuvchilar – Yunus Yusupov, Abdulhamid Majidiy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Elbek, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jaev, Abdulla Qodiriy, Hodi Zarif kabi ziyoli insonlar bo'lishgan. Hayoti davomida ular bilan hamfikirlikda xalqi, millati kelajagi uchun astoydil mehnat qilgan. Qo'lidan kelganicha, do'stlariga yordam qo'lini cho'zgan. Ayniqsa, nashriyot rahbari sifatida ularning yozgan asarlarini chop etish, xalqqa yetib borib, ularning ma'naviyati, dunyoqarashini o'stirish uchun xizmat qilishida o'z hissasini qo'shgan. Eng yaqin do'stlaridan Yunus Yusupov u haqda so'zlar ekan, uning tashkilotchilik qobiliyatiga egaligi, xalq va vatanini qattiq sevuvchi, ko'p kitob o'qigan, ilmu ma'rifatli, donishmand bo'lgani, barcha atrofdagilarga, tengdoshlariga ibrat bo'la oladigan inson ekanligini xotirlaydi. "U haqiqiy inson edi" [Karimov, 2006, 18-b.], deya bir jumla bilan yuqori baho beradi.

O'zbek xalqining sevimli yozuvchisi Abdulla Qahhor ham Qurbon Beregin bilan yaqin do'st bo'lganini xotirlaydi. Hatto, uning "Adabiyot muallimi" nomli mashhur hikoyasining yozilishiga ham Qurbonning aytib bergan bir hayotiy voqeasi turtki bo'lganini eslaydi.

1924 yildan Sovet davlatining millatlarni o'zligidan uzoqlashtirish jarayoni, xususan, tarixi va diniga qarshi qattiq kurashi boshlanadi. Hatto Ollobergan, Xudoybergan, Olloberdi, Xudoyberdi kabi tarkibida Olloh, Xudo so'zlari ishtirok etgan ism-familiyalarni ham o'zgartirish, xalqni milliylikdan uzoqlashtirish jarayoni boshlanadi. Jumladan, ayni kunlarda Qurbon Olloberganov ham o'z familiyasining bir qismini saqlagan holda Beregin degan familiyani olishga majbur bo'ladi.

Uning Xorazmda, Qozonda, Moskvada bilim olgani, katta tajriba orttirgani, albatta, dunyoqarashining o'sishiga turtki bo'ldi. Xalqining buyuk kelajagiga katta umid va ishonch bilan qaray boshladi. XX asrning 20-yillaridagi ijtimoiy-tarixiy vaziyatdan ilhomlanib, jadidlarning ilhombaxsh g'oyalariga tayanib, Xorazm matbuotini rivojlantirishga qattiq bel bog'ladi. 1927 yil fevral oyida, Xorazm jadid matbuotining ilk qaldirg'ochi hisoblangan, "Inqilob quyoshi" gazetasiga muharrir etib tayinlandi. U betakror notiq, tashkilotchi va jurnalistik qobiliyatga ega edi. 1929 yil mayigacha shu vazifani bajardi. Xalq hayotida matbuotning o'rnini chuqur tushunib, u orqali millatni uyg'otishga, taraqqiyot ilm yo'lida ekanligini anglatishga harakat qildi.

Bereginning butun hayoti O'zbekiston matbaachiligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. U keyinchalik "Inqilob quyoshi"dan tashqari ham bir qancha gazeta va jurnallarda faoliyatini davom ettirgan. Jumladan, 1930-31-yillarda mamlakatning ma'rifiy hayotida yuksak maqomga ko'tarilgan "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida ham muharrir sifatida ishlagan. Unda mamlakatning rivojlanishiga xizmat qiluvchi ta'lim, adabiyot, san'at, o'qitish ishlari, madaniy-ma'naviy hayot borasida ko'plab maqolalarning xalqqa yetib borishida jonbozlik ko'rsatgan.

Beregin mazkur sohaga ko'plab yangiliklar olib kirishga harakat qilgan. Jumladan, u gazetxonlar sonini ko'paytirish maqsadida obuna qiluvchi tashkilotlarning musobaqasini o'tkazadi. Muxbirlarning kasbiy malakasini oshirish niyati bilan ular uchun ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qiladi. 1927 yil 21 dekabrda muxbirlar va gazetxonlarning 1-konferensiyasi chaqiriladi. Unda matbuotning faolligini oshirish, unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarga qarshi kurashish, tahririyatga kelgan maqolalarning saviyasiga qarab saralash masallari muhokama qilinadi. Bu ishlarni tashkil etishda Beregin katta jonbozlik ko'rsatadi. Bular, albatta, matbuotning yanada taraqqiy etishi uchun xizmat qilgan.

Qurbon Bereginning jurnalistik faoliyati ko'plab publitsistik asarlar bilan bir qatorda, badiiy asarlar ham yaratishga ilhomlantirdi. Jumladan, "Inqilob quyoshi"da "Shodlikli kunlar" sarlavhali hikoyasi e'lon etilgan. Uning adabiy merosini 200 dan ortiq publitsistik maqolalari, kitoblari, she'rlari, hikoya, nutq va ma'ruzalari tashkil qiladi. Jumladan, "Madaniy qurilish vazifalari", "Shodlikli kunlar", "Grajdanlar urushining tarixi to'g'risida", "Savod uchun kurash" kabi kitoblari ilm ahliga ma'lum. Ayniqsa, "Yoshlar matbuoti", "Inqilob quyoshi 8 yoshda", "Buyuk yuksalish yo'lida", "22 lar o'ldirilishining o'n yilligi", "Yana teatr to'g'risida" kabi publitsistik maqolalari uning ijtimoiy hayotdagi eng muhim masalalarga e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Jumladan, "22 lar o'ldirilishining o'n yilligi" maqolasi 1924 yil 22 ta "Yosh xivaliklar" jadidchilik harakati yetakchi a'zolarining vahshiylarcha qatl etilishi munosabati bilan yozilgan. Mazkur maqola "Inqilob quyoshi" gazetasining 1934 yil 23 avgust sonida chop etilgan. O'sha davrda bunday masalaning matbuotda yoritilishi Bereginning jasoratli va millatparvar insonligini yana bir bora isbotlaydi. Quyidagi she'ri uning shoir sifatidagi qiyofasini tasavvur etishimizga yordam beradi:

Umid sahrosini yiroq desalar,
Tog'lardan oshaman shamolday esib,
Haqiqat pardasi yopiq desalar,
Ko'z yummay ochaman parchalar kesib...

She'r ijodkor qalbini, dunyoqarashini to'liqroq va aniqroq ochib beradi. Shunday ekan, mazkur she'rdan biz Bereginning ozod va hur mamlakat kelajagi uchun umid bilan yashayotgani, unga yetish uchun hech narsadan, hatto, tog'lardan, to'siqlardan ham oshishga tayyorligini ko'ramiz. She'rdan biz "Haq olinur, berilmas", degan Behbudiyning va "Kishan kiyma, bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ilg'onsan", degan Cho'lponning tovushini eshitganday bo'lamiz. Uning dunyoqarashi ham yaqin do'stlaridan biri bo'lgan Cho'lpon qarashlariga hamohang bo'lganini tasavvur qilamiz.

Biz tariximizni kuzatib, sho'rolar g'oyalarini qabul qilgan, komsomol tashkiloti safida faol xizmat qilgan ajdodlarimizni ba'zan inkor etamiz. Ammo ular yashagan davrni tushunishga harakat qilsak, o'sha soxta g'oyalarga, ular ona yurtlarini mustaqillik va taraqqiyot manzillariga yetaklashiga chin dildan ishonishgan. Biz olis yillardan turib nazar solganda, ko'rayotgan holatlarni ular ko'rishmagan. Shu sababli, biz ularni tanqid qilish emas, balki tushunishga harakat qilishimiz lozim. Chunki hech kim tarix g'ildiragiga to'siq bo'lolmaydi. Tarixiy jarayondagi xatolarni anglash uchun, ba'zan uni yashab o'tish talab etiladi.

Хулоса қилиб айтганда, 1920-1930- yillarda Xorazmda o'nlab gazeta va jurnallar chop etilgan. O'z davrida ular xalqni uyg'otish, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksaltirish borasida ulkan vazifalarni bajargan. Mazkur matbuot namunalari davrning ijtimoiy hayotini,

faol tarixiy jarayonlarni aniq tasavvur etishimizda, tarixni to'g'ri baholashimizda katta ahamiyatga ega.

“Inqilob quyoshi” gazetasi Xorazmda tashkil etilgan ilk gazeta hisoblanadi. 1920 yil 6 martda uning ilk soni chop etiladi. Unda davr hayoti, ijtimoiy-siyosiy masalalar, zamondoshlarni uyg'otishga, mustaqillik g'oyalarini singdirishga, faollikka, mehnatkashlikka da'vat, chaqiruv ustuvorlik qilganini kuzatamiz. Gazeta mundariyasi va ruknlari bilan tanishganda, mavzularning rang-barangligini, yangiliklarning ko'pligini, O'zbekiston, xususan, Xorazmda yuz berayotgan barcha voqea-hodisalar keng ko'lamda qamrab olinganligini ko'ramiz. Jahonda yuz berayotgan xabarlar yuzasidan axborotlar bilan tanishamiz.

“Inqilob quyoshi” gazetasida ijtimoiy hayot hodisalarining yoritilishi bilan birga, davr adabiyoti, adabiy jarayon, san'at borasida ham ma'lumotlarga duch kelamiz. 1923 yil sentyabr oyida mazkur gazetada chop etilgan she'rlar jamlanib, “O'zbekcha inqilobiy she'rlari yug'urumi” sarlavhasi bilan Xivada to'plam holida chop etilgan. Mazkur to'plamda jamlangan nazm namunalari bilan tanishib, gazetada davrning muhim xabarlar bilan bir qatorda she'riyat, adabiyot namunalari ham xalqni uyg'otish, jadidchilik g'oyalarini targ'ib etishda qanchalik muhim vazifalarni bajarganligining guvohi bo'lamiz.

Gazeta sahifalarida turli e'lonlar, yangiliklar haqida xabarlar ham berib borilgan. Unda hududning ma'naviy-ma'rifiy hayotiga oid xabarlarni ham uchratamiz. Jumladan, muzey ochilgani, teatr tashkil etilgani, yangicha usuldagi maktablar soni kundan-kunga ko'payib borayotgani haqidagi ma'lumotlarni ham kuzatamiz.

XULOSA

Xorazm matbuoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ammo shu paytgacha ular yetarli o'rganilmagan. Hatto, 1930-40 yillarda Xivada “Bo'l tayyor” deb nomlangan bolalar gazetasi ham chop etila boshlagan.

XX asrning 20-yillarida ayol muxbirlar ham yetishib chiqdi. Ular ham Xorazm ijtimoiy hayotining gullab yashnashida, jamiyatdagi muhim muammolarni ko'tarib chiqishda faollik ko'rsatishdi. Ko'plab o'zlariga o'xshagan xotin-qizlarga namuna bo'lib, ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishlariga sababchi bo'ldilar.

Ko'rinadiki, maqolada e'tibor qaratilgan muammolar keng qamrovli tadqiqotlarni taqozo etadi. Ularni maxsus ilmiy o'rganish davrimizning nihoyatda dolzarb vazifalaridandir. O'ylaymizki, adabiyotshunoslik va jurnalistika tarixi bilan qiziquvchi yoshlarimiz mazkur masalalarga, albatta qaytadilar.

Adabiyotlar:

1. Adizova, I. I. (2024). Interpretation of the Poetic Views of the Period in Mutribi Tazkiras (Essays). *SPAST Reports*, 1(1).

2. Adizova, I. GENESIS AND HISTORICAL PERFECTION OF THE GENRE" FARD.

3. Adizova, I. (2019). THE GENRE OF MUSALLAS IN UZBEK CLASSICAL LITERATURE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 648-651.

4. Adizova, I. (2019). O'zbek mumtoz adabiyotida harora g'azallar. *Oltin bitiglar–Golden Scripts*, 4(4).

5. Bayoniy. (1991) Shajarayi xorazmshohiy. Nashrga tayyorlovchi Iqboloy Adizova. Toshkent: Kamalak.

6. Bekmuhammad, U. (2012). Xorazmga oshufta ko'ngillar. Toshkent: Yangi asr avlodi.

7. Jumaxo'ja, N., & Adizova, I. (1995). So 'zdin baqoliroq yodgor yo 'qdir. *T.: O'zbekiston*.

8. Karimov, N. (2006). Qurbon Beregin qismati. Toshkent.

9. Mamadaminova, B. (2023). Xorazmda madaniyat muassasalarining tashkil etilishi. “Falsafa va huquq” jurnali, 2-son, 155-158-b.

10. Rahimov, N. (2022). Xorazm xalq sho‘rolar jumhuriyati tarixini o‘rganish muammolari va yondashuvlar. Toshkent: Lesson Press.
11. O‘zbekcha inqilobiy she’rlar yug‘urumi, (1923). Xiva.

10.00.00 - Filologiya

**NAVOIY-FONIYNING TURKIY VA FORSIY G‘AZALLARIDA IRFONIY
G‘OYALAR TALQINI**

Bekova Nazora

Buxoro davlat universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Foniyning turkiy hamda forsiy g‘azallarida ifodalangan irfoni (tasavvufiy-ma’naviy) g‘oyalar tahlil qilinadi. Unda kamolot yo‘li, ilohiy muhabbat, qalb pokligi, haqiqatni izlash kabi falsafiy-tasavvufiy mavzularning badiiy aks ettirilishi, mazmuni, obrazlar orqali berilishi, mualliflarning dunyoqarashi va poetik uslubi o‘rganiladi. Navoiy va Foniyning adabiy merosida irfoni g‘oyalarning o‘ziga xos o‘rni va ruhiy-ma’naviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Foni, g‘azal, irfon, tasavvuf, ma’naviyat, timsollar, poetik uslub, turkiy adabiyot, forsiy adabiyot.

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИРФАНСКИХ ИДЕЙ В ТЮРКСКИХ И ПЕРСИДСКИХ
ГАЗЕЛЯХ НАВОИ И ФОНИЙ**

Аннотация: В данной статье рассматриваются ирфанские идеи, отражённые в туркских и персидских газелях выдающихся представителей классической литературы Алишера Навои и Фонии. Анализируются сходства и различия в передаче философско-суфийских мотивов, таких как путь к совершенству, любовь к Богу, очищение души, стремление к истине. Внимание уделяется художественным приёмам, символике, лексическим особенностям и мировоззрению авторов. Исследование выявляет значимость ирфанской тематики как духовной основы поэзии Навои и Фонии.

Ключевые слова: Навои, Фоний, газель, ирфан, суфизм, духовность, символика, поэтический стиль, тюркская литература, персидская литература.

**INTERPRETATION OF IRFANIC IDEAS IN NAVOI AND FONIY’S TURKIC AND
PERSIAN GHAZALS**

Abstract: This article explores the Irfanic (spiritual-Sufi) concepts expressed in the Turkic and Persian ghazals of prominent classical literary figures Alisher Navoi and Foni. The study analyzes similarities and differences in conveying philosophical-Sufi themes such as the path to perfection, divine love, purification of the soul, and the quest for truth. Attention is given to literary techniques, symbolic imagery, lexical features, and the authors’ worldviews. The research highlights the importance of Irfanic themes as the spiritual foundation of the poetic heritage of Navoi and Foni.

Keywords: Navoi, Foni, ghazal, Irfan, Sufism, spirituality, symbolism, poetic style, Turkic literature, Persian literature.

"Ilm o‘zlashtirmoq", ustod Sadridin Ayniy ta’biricha, «otash porasi olmoq» ma’nolaridagi bu so‘z (iqtibos) Qur’on oyatlari va payg‘ambar hadislarini she’r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she’rda ifodalash san’atidir. Musulmon mintaqada adabiyotida bu san’atga keng murojaat qilish orqali aytilmoqchi bo‘lingan fikrga quvvat berish hodisasi o‘ziga xos qadimiy an’anadir. Uning nurli izlarini hadislarga bag‘ishlab yozilgan "Arbain"larda ham

uchratishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiy "Arbain"i hadisidagi mana bu qit'ada ham o'sha hodisa yorqin ko'zga tashlanadi:

Onalarning oyog'i ostidadur
Ravzai jannatu jinon bog'i.
Ravza bog'in visoli istar esang
Bo'l onaning oyog'i tufrog'i.

Ko'rinadiki, mazkur qit'a satrlari mag'ziga Muhammad Rasullullohning "Al-jannatu tahta aqdami umma hatinum", ya'ni "Jannat kaliti onalar oyog'i ostidadir" hadisi sharifining mazmuni singdirilgandir. Bunday mayl–Qur'on oyatlari va hadis g'oyalariga murojaat Alisher Navoiyning turkiy va forsiy g'azallarida ham kuzatiladi.

Ulug' shoirning ba'zi g'azallarida zohiran Qur'on oyatlariga ishora ko'zga tashlanmaydi. Biroq o'shanday misralar teranroq nazardan o'tkazilsa, ular zamiriga Qur'oniylar g'oyalar singdirilganligi ayonlashib qoladi. Jumladan, quyidagi baytda o'shanday mayl kuzatiladi:

Naqdi jon chiqqanda imon gavharin ko'nglumga sol,
Aylagil jondin judo, lek etma imondin judo [3, 5].

Mazkur bayt mag'zida Yusuf surasi 101-oyati karimasining mazmuni yashirindir. Mazkur oyatda xabar beriladi: «(Yo Rabbi) Meni musulmon holimda jonimni olgin va meni ham solih bandalarning qatoriga qo'shgin».

Sen etting sham'u gulda jilvakim, parvonavu bulbul
Biri kuydi, biriga bo'ldi yuz dardu balo paydo [2, 8].

Mazkur baytning "Nur" surasi 41-oyati bilan mantiqan aloqadorligiga ahamiyat berilsa, yuqoridagi fikrlarga yanada yaqqolroq ishonch hosil qilinadi. Qur'oniylar oyat quyidagicha aks-sado beradi: «(Ey Muhammad) Oллоhga osmonlar va erdagi bor jonzot ham, (samoda) saf tortgan qushlar ham tasbih aytib-poklanishini ko'rmadingizmi?» .

Alisher Navoiy ikki tildagi g'azallarining ko'pchiligida faqrlik ulug'lanadi, baqoni istagan kishi avvalo fano bo'lishi zarurligi uqtiriladi:

Biror etti sangakim o'zlugi dashtini tay qildi,
Baqo istar kishi avval kerak qilsa fano paydo [3, 199].

Mazkur baytda "Kimki o'zining foniyligini bilsa, Rabbining boqiyiligini biladi" va "Farqlik mening madori iftixorimdir va qiyomat kunida men uning-la faxr eturman" hadislarining mazmuni o'zlashtirilganligini payqash qiyin emas.

Nafs xor etmish Navoiyni, aziz et faqr birla,
Ey jalolu rahmatingdan gar zalilu gar muazzaz .

Forsiy devondan keltirilgan quyidagi misralarda ham mazkur g'oyaga hamohang badiiy talqinga guvoh bo'lamiz:

Chu sarkashest tariqi riyo, sari Foniylar,
Shavad ba dayri fano xoki oston, yo Rab [5, 120].

Mazmuni: Ey Rabbim, riyo yo'li-o'jarlik yo'lidir, shuning uchun
Foniylar boshi fano dayrining ostonasida tuproq bo'lsin.

Pinhonu nihondan ogoh eng adolatli zot faqat Oллоhdir. Namrud boshchiligidagi mushriklar Ibrohim alayhissalomning qo'l-oyog'ini bog'lab, olovga otadilar. Jabroil alayhissalom undan "biror tilaging bormi?" - deb so'raganida "Parvardigorim o'zi ahvolimdan ogoh", deb faqat Oллоhdan madad so'rab, sabr qilgan ekanlar va Oллоh " Biz aytdik: «Ey olov, sen Ibrohim uchun salqin va omonlik bo'l!" (Anbiyo, 69-oyat) – zikr qilingan farmonni yuborgan, olovning yorug'i rolib, issig'i yo'qolgan. Turkiy va forsiy devondan olingan quyidagi baytlar orqali shoir har bir kishining pinhonu nihon sirlaridan faqat Oллоhgina xabardorligini

uqtirmoqchi bo‘lib, Ibrohim alayhissalom hayoti bilan bog‘liq yuqoridagi voqealarga ishora qilgan:

Sabur ismi bilan qilsang tajalliy,

Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro [1, 12].

“Devoni Foniyy”da bu Qur‘oniy qissaga quyidagicha ishora qilinadi:

To biso‘zam hamagi hastin xud ro‘vo kun,

Z-on gulistoni Xalil otashi gulnor biyor [5, 46].

Mazmuni: Ey jonon, yuzingni och-u Xalil gulistoni (olovi) dan

Otashin gul keltir, borlig‘imni yondiray.

Qorun mol-mulkka hirs qo‘yib havolanadi va oxir-oqibatda behad sarvatlari bilan yo‘q bo‘ladi. Bu haqda «Qasas» surasining 84-oyatida o‘qiymiz: "Kim yaxshilik bilan kelsa, bas, uning uchun (qilgan yaxshiligidan) yaxshiroq (mukofot bo‘lur). Kim yomonlik bilan kelsa, bas, yomonliklar qilgan kimsalar faqat o‘zlari qilgan yomonliklari bilangina jazolanadilar». Quyidagi baytda shu oyati karimaga ishora qilish orqali talmeh san‘ati hosil bo‘lgan:

Muncha hashmat topmog‘ingdin so‘ngra birovni qulung,

Joh ila muknatda Qorunga tavongar bo‘ldi tut [3, 18].

Shuningdek, Xizr, Nuh, Iso, Sulaymon, Qorun nomi bilan bog‘liq Qur‘oniy qissalarga murojaat orqali Mir Alisherg‘azallarida talmeh san‘ati qo‘llangan. Bunday mayldan kuzatilgan bosh maqsad Olloh taoloning mislsiz kuch-qudratiniko‘rsatishdan iboratdir. Bu badiiy timsollar ostida «Haq–Inson» munosabatlari juda yuksak san‘at bilan yashirinib keladi.

Zahri firog‘ingdin qayu oshiqki bo‘ldi talxkom,

No‘shi visoling etmasa, Iso anga topmas davo [3, 69].

Shunga o‘xshash ifoda uslubini “Devoni Foniyy” misralaridan keltiramiz:

Chun Masiho ruhbaxshon boshad on jo az nafas,

To ba izzat dar bisotash neh nafasro, dor pos [6, 82].

Mazmuni: Iso singari u erda nafasidan jon baxsh etuvchilar bor,

Uning bisotiga izzat bilan oyoq bosu nafasingni saqla.

Iso alayhissalom davrida tabobat ilmi shunday darajada taraqqiy qilgan ekanki, bironta ham dard davosiz hisoblanmagan emish. Iso mo‘jizaviy nafasi bilan o‘liklarga jon baxsh bu jarayonga quvvat bergan ekan. «Oli Imron» surasining 49-oyatida shunday xabar beriladi. «Men (o‘zimning Haq payg‘ambar ekanligim haqida) sizlarga Parvardigoringizdan oyat-dalil keltirdim: Men sizlarga loydan qush timsolini yasab unga tuflasam, u Ollohning izni-irodasi bilan haqiqiy qush bo‘ladi. Va yana ko‘r, pes kasallarini tuzata olaman va Ollohning izni bilan o‘likni tiriltiraman hamda sizlarga eydigan va uylaringizda saqlaydigan narsalaringizni aytib berishga qodirman. Agar mo‘min bo‘lsangizlar, albatta bu ishlarda sizlar uchun aniq oyat-dalillar bordir». Ya‘ni agar Olloh bu karomatni unga ato etmaganida, hayratli mo‘jizalar sirini ochishni xohlamaganida, Isoning qo‘lidan bir kishiga ham shifo berish kelmasdi. Mavjudotdagi barcha ajoyibotlar Ollohning amridadir. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining "Faqr fano vodiysi vasfi" bobida bu masala xususida yanada keng badiiy mushohada yuritadi.

Xizrning "obi hayvon"dan bahramand bo‘lib, abadiy tiriklikka erishgani, Nuhning xatarlardan xalos qolishi, Isoning tiriltiruvchi nafasi – bularning barcha-barchasi Ollohning inoyati, mo‘jizaviy san‘atidan dalolat. Ulug‘ shoirning ta‘kidicha, agar Olloh istamasa, uning amriga muvofiq kelmagan ish hechdir, Namrud, Qorun, Fir‘avn singari o‘zini qudratli sanagan xudparastlar Uning qahridan omon qololmaydi, albatta. Quyidagi baytda shu haqidagi oyatlarga ishora ketadi:

Nega olam o‘rtadi, husnung o‘tidin lam‘ai,

Tushmagan bo‘lsa jamoli YUsufi Kan‘on aro [3, 56].

Qur'on tarkibidagi katta suralardan biri-o'n ikkinchi, ya'ni Yusuf qissasidir. Ma'lumki, ilohiy kitoblarda (Tavrot, Zabur, Qur'on)da Yusuf alayhissalom go'zallik timsoli sifatida ulug'lanadi. Bu baytda Ollohning go'zalligi Yusufda aks etganiga ishora qilinmoqda. "Devoni Foni"da ham xuddi o'sha mazmunning quyidagicha ifodasini uchratamiz:

Orazi Yusuf namuda lam'ai ro'yat,

Z-i shuda mash'ufu zari ishq Zulayxo [5, 10].

Ravshan bo'layotirki, ulug' shoirning har ikkala tildagi g'azallarida g'oyaviy – mazmun, badiiyat nuqtai nazaridan uyg'unlik ustuvordir.

Zulayxoning Kan'on shahzodasiga ishq tushishi Yusuf surasining 30-oyati karimasida o'z ifodasini topgan. "Tafsiri Jalolayn"da qayd etilishicha, Yusuf alayhissalomga dunyodagi husnning yarmi berilgan".

Qator hamd g'azallarda va "Ruh ul-quds"qasidasining nasib qismida Olloh taoloning ilohiy qudrati tufayli tun-kun, eru osmon, oyu quyoshning bir muntazamlikda harakat qilishi masalasi yoritilgan.

Butun borliqda-tabiattagi eng mayda jonzotdan tortib, bahaybat mavjudotning shaklu shamoyilgacha– barcha-barchasida Ollohning qudrati zohir. Tun-kun, quyosh-oy, sayyora va yulduzlar Ollohning amriga itoat etib harakat qiladilar. Zero, yaratmoq va amr etmoq Uning O'zigagina xosdir:

Chi qudratest, ki dar borgi charxi baland,

Nagash ta be sababi o' zi zarra to bayzo [7, 6].

Mazmuni: Ajab qudratdirki, yuksak charx qasrida quyoshdan eng kichik zarragacha o'sha mo'jiza tufayli paydo bo'lgandir.

Xuddi shu mohiyatning o'zi hamd g'azalda quyidagicha aks etgan:

Yuzung ko'zgidin olamda yuz nuru safo paydo,

Quyosh andin aningdekkim quyoshdin zarra nopaydo [2, 7].

Islomiy ta'limot, uning muqaddas ilohiy kitobida mazkur haqiqat qayta-qayta ta'kidlanadi. Ana o'sha ilohiy nur hamd g'azallar va "Ruh ul-quds" qasidasi baytlariga ham chuqur singdirilgan. Shu jihatdan "Yunus" surasining 3 va 5-oyati karimalari ahamiyatlidir:

"Albatta Parvardigoringiz osmonlar va Erni olti kunda yaratib, so'ngra O'z arshini egallagan Ollohdur. U (Olloh) quyoshni ziyo sochuvchi, oyni yorug'lik qilgan va sizlar yillarning sanog'ini hamda (vaqtlarning) hisobini bilishlaringiz uchun uni (ya'ni oyni bir qancha) manzil-burjlarga bo'lib qo'ygan zotdir. Hech shak-shubhasiz, Olloh bu (borliqni) Haq (qonun va maqsad) bilan yaratdi. U zot biladigan qavm uchun O'z oyatlarini mufassal bayon qilur" [8, 133].

Hamd g'azallar va "Ruh ul-quds"da yil fasllari, to'qqiz falak, o'n ikki burj va ular bilan bog'liq tabiiy o'zgarishlar, fasllarning majoziy-botiniy ma'nolarini va samoviy jismlar bilan o'zaro aloqadorligini yuzaga chiqarishda Alisher Navoiy Qur'oni karimning samo yoxud ilmi nujumga daxldor "Baqara", "An'om", "A'rof", "Yunus", "Hut", "Yusuf", "Ra'd", "Ibrohim", "Hijr", "Nahl", "Al-isro", "Qahhor", "Toha", "Anbiyo", "Haj", "Mo'minlar", "Furqon", "Ankabut", "Rum", "Luqmon", "Fotir", "Yosin", "Vas-saffot", "Fussilat", "Qof", "Va-z-zoriyot", "Va-n-najm", "Qamar", "Rahmon", "Voqea", "Hadid", "Tag'obun", "Mulk", "Al-haaqqa", "Nuh", "Jin", "Muddasir", "Qiyomat", "Val-mursalot", "Naba'", "Van-noziot", "Takbir", "Inshiqoq", "Buruj" kabi suralaridan ilhom olganligi shak-shubhasizdir. Ana shu nuqtai nazardan hamd g'azallar va "Ruh ul-quds" qasidasining badiiy tasvir uslubi bir-biriga juda yaqindir.

«G'aroyib us-sig'ar»dagi 1-g'azalda Haq yaratgan eng mukammal mo'jiza **K o m i l i n s o n** ulug'lanadi. «Navodir ush-shabob»ning dastlabki g'azalida esa Haq yaratgan mavjudotlardan Insonni alohida ajratib turuvchi va uning mohiyatini belgilovchi **i s h q**

ta'riflanadi. Chunki inson Haqni tanish, anglash mas'uliyatini bo'yniga olgan. Mazkur g'azal xuddi shu g'oya talqiniga bag'ishlangan:

Chu jilva ayladi ulhusn istabon oshiq,
Saloyi ishqin etib ofarinish ichra nido.
Pari qabul eta olmay ani, magarki men,
Qilib otimni zalumu jahul birla ado.

Ishqning inson taqdiridagi o'rni, uning "tarixi" esa Qur'oni karimning "Ahzob" surasi 72-oyatida berilgan:

"Biz bu omonatni osmonlarga, erga va tog'u toshlarga ko'ndalang qilgan edik, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi. Darhaqiqat, u (o'ziga zulm qilguvchi va nodon edi), ya'ni bu omonatning naqadar vazmin yuk ekanligini butun koinot bildi va uni ko'tarishga qurbi etmasligini sezdi, ammo inson o'zi bilmagan holda o'sha mushkul vazifasini o'z zimmasiga oldi".

Bu "omonat yuki"ni bo'yniga olganida Inson «zalumu jahul» edi. Chunki, ishq yo'li ruhiy-ma'naviy riyozatdir.

Ulug' shoir mazkur oyati karimadan atigi ikki so'znigina olish orqali Inson va uni mumtoz etgan ishq tuyg'usining ilohiy tarixiga ishora qilgan. Yana bir jihati shundaki, bu vosita ila qur'oniy g'oyalar ham targ'ib etilmoqda. Navoiy insonning biologik tuzilishi ustida batafsil to'xtalar ekan, uning to'rt unsur (anosiri arbaa) dan (tuproq-quruqlik, olov-issiqlik, suv-sovuqlik, havo-namlik) iborat ekanligini birma-bir badiiy tasvirini beradi.

Chu az zaminash bardoshti ba sad e'zoz,
Ba martaba guzarondy zi torumi xazro [7, 12].

Yuz e'zoz- ehtirom ila uni (tuproqni) erdan ko'tarding, martabasini ko'k gumbazidan ham yuqori qilding.

Baytdagi ixcham talqindan ko'rinib turibdiki, Haq butun borliqdan Insonni alohida e'zoz ila ajratadi. Bu ajratish esa bir necha asosni o'zida birlashtiradi. Ulug' shoir qasida satrlaridagi mazkur asoslarning har biriga alohida-alohida to'xtaladi. Borliqdagi narsalarning har biri u yoki bu unsur (tuproq, suv, havo, o't)dan yaralgan bo'lsa, insonda turli, bir-biriga qarama-qarshi unsurlar muttahiddir va ular inson tabiatining murakkabligini belgilaydi. Alisher Navoiy "Navodir ush-shabob" devonidagi 5-g'azalida o'shahaqiqatni quyidagicha tasvirlaydi:

Sarsaroyi har quyun qilg'ay badan tufrog'ining
Juzv-juzvin bir-bir ushbu gunbadi gardon aro [2, 5].

Inson tanasi va tabiatining to'rt unsurdan iborat ekanligi—tananing qizil (qon), sariq (o't), ho'l (suv) va quruq (tuproq)dan, tabiatining otashiy (flegmatik), xokiy (sangvinik), obiy (melanxolik), bodiy (xolerik) kabi tarkibiy qismlardan yaralganligi Sharq mumtoz adabiyotida ham, qadimgi Yunonu Hind falsafasida ham keng tarqalgan haqiqatdir. Shuning uchun insonga ham moddiy, ham ichki va tashqi jihatdan ziddiyatlar birligi sifatida qaraladi. Inson borliqdagi boshqa mavjudotlardan o'zining ziddiyatligi bilan ajralib turadi:

Chahor zidro kardi ba yakdigar tarkib,
Ki xoku otash bud, ongahob budu havo [7, 13].

Islomiy-irfoniy tasavvurga ko'ra, inson ikki asos – jism va ruhdan, inson jismi esa to'rt unsur - suv, olov, havo, tuproqdan iborat. Inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, ya'ni hayvonlarga borib taqaladi. Bularhaqida Qur'oni karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. "Va-ssafat" surasi 11-oyati ("Biz insonlarning asli-avvali bo'lmish Odam alayussalomni yopishoq bir loydan yaratgandirmiz").

Inson hayvon bilan farishta o'rtasidagi maxluq. Tabiat bilan ana o'shanday bog'liqlik uning qattiqligini, dag'alligini keltirib chiqaradi. Ruh esa insonni ma'naviy kamolotga etaklaydi. Chunki ruhga ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag'ishlaydi.

Ba xoki jismash boroni rahmat afshondy,

K-az on muloimat ovarid tinatash paydo [7, 14].

Tuproqdan yaralgan jismi ustiga rahmat yomg'irini yog'dirding, O'shandan uning fe'l-atvorida muloyimlik paydo bo'ldi. Biroq, inson tabiati to'la poklanmadi.

Qur'oni karimning "Al-Isro" surasi 85-oyatida o'qiymiz: "Va yas'alunaka anirruhqulir ruhu min amri rob" (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so'raydilar. Ayting, "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir". Ruh ilohiy ma'rifat, hikmatu donish bilan oziqlanadi. Shuning uchun ruhoni hayot zavqidan bahramand bo'lgan ulug' insonlar xolis, beg'araz, nekbin, muloyim, mehribon, shafqatli, himmatli bo'ladi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir. Zayniddin Muhammad G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida ruhni shunday ta'riflaydi: "Ruh odam vujudining aslidurkim, hama qolip va badan aning tobe'idur. Vaqtiki ruh bo'lmasa tan murdordurki, aning hech e'tibori yo'qdir. Badan markab va suvor ruhdur" [9, 9].

Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi yana bir noyob fazilat Haqning unga ilmu irfonni taqdir qilganligidir. Olloh inson qalbini ilmu irfon xazinasi qilib, shu irfonda o'zini yashirgan: qasidada insonni mumtoz etadigan eng yuksak mo'jiza-aqli kull va ko'ngil alohida ta'kidlab ta'riflanadi. SHoir iqtibos, tashbeh, tamsil san'ati vositasida go'zal manzara yaratadi:

Dar o' nishonidi dilro ba taxti sulmoni,

Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro.

Xirad vazorati on shohro muayyan shud,

Gadoi shohonu vaziron, kamina banda turo [7, 15].

Unda (badan shamrida) podshohlik taxtida yurakni o'tqizding. SHundan u (yurak) sultonlik rasmda mulku mamlakatning sohibi bo'ldi. U shohning vazirligiga donishmandlik (aql) muayyan bo'ldi. Aslida gado-yu shohu vazirlarning barchasi Sening kamtarin bandalaringdir. SHoir mazkur fikrlarini qur'oniy oyatlar mazmuni bilan asoslaydi.

Zi ilmi ma'rifatash chunki bahravard kardi,

Maloikash ba sujud omadand abdosu [7, 16].

Maloikalar Olloh azza va jallaning farmoni qoshida ojiz qolgach, Odam alayhissalom ularga mavjudot haqiqatini bayon etadi. Tuproqdan yaralgan hazrati Odam alayhissalomning ilmu ma'rifati fayzidan etti qavat osmon ham munavvar bo'ladi. Ana shu ilmu ma'rifat tufayli hazrati Odamga maloikalar qullarday sajdaga keladilar. CHunki Insonda zavq-ruhiy kamolot kabi nuri hikmat aks etgan nodir xislat mavjud. U Iloh ma'rifatini zavqu shavq bilan his etish jarayonida ruhiy yuksaklikda farishtadan ham o'zib, ma'nan Haqning O'ziga etishishi mumkin.

Ey, nechukkim, durni maxfiy asrabon ummon aro,

Gavhari ishqini pinhon asrag'an inson aro?!

Chunki insonni bu gaar birla aylab bahramand,

Sarfarozi aylab maloyik xayli birla jon aro [4, 9].

Xoliqi a'zam o'z husnini tomosha qilish uchun O'ziga ko'zgu-moddiy olamni yaratdi. Olam esa inson tufayli bunyod qilingan. Buhaqda: "Lav laka limo xalaqtul-aflok" (Agar sen bo'lmasang, osmon-falaklarni yaratmagan bo'lar edim), degan hadis ham bor.

Adabiyotda har bir fasl muayyan fazilat timsoliga aylana borar ekan, Bahor yasharish, uyg'onish, fayzu tarovat, yangilanish, inson umrining ibtidosi ramzidir. Kuz esa to'kin-sochinlik, etilish bilan birga tabiat hamda inson umrining xazoni - hayot, yashashning intihosi (so'lish, xazon bo'lish) ramzi sifatida Alisher Navoiy nodir durdonalari bag'riga singdirilgan. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, ulug' shoirning «Fusuli arbaa» nomli to'rt fors qasidasi ham

fasllar ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, undagi san'atkorona tasvir bilan «Ruh ul-quds» qasidasining tasvirlari (yil fasllari tasviriga bag'ishlangan qismi) bir-biriga juda o'xshaydi. Ulug' shoir bu tasvirlar orqali odam jismi (to'rt unsur, to'rt xilt, to'rt tab') va olam tuzilishi (to'rt fasl) orasidagi yaqinlik, bog'liqlik va aloqadorlik kabi jihatlariga alohida urg'u beradi. Olloh taolo butun mavjudotni tasodiflar asosida emas, balki muayyan qonuniyat, o'zaro uzviy aloqadorlik, hikmat zanjiri, hayratomuz intizom va tadbir ila yaratdi-yu lekin hech narsaga abadiylikni nasib qilmadi. Sabab va oqibat tamoyillari asosida bunyodga kelgan olamda barcha narsalar tabiatida qarama-qarshilik va inkorni inkor qonuni amal qiladi. YAshash uchun tinimsiz kurash esa imtihon dunyosida uzluksiz davom etadi. Ayni shu jarayon quyidagi misralarda betakror ifodasini topgan:

Dalel on ki du rangist kori gulshani dahr,

Chi dar bahoru xazonu, chi dar sabohu maso [7, 9].

Shoir ta'biricha, dahr gulshani ishining ikki ranglilik ko'rinishi dalili (ya'ni) Bahoru Xazonda, tong otaru kechqurunda ham yorqin namoyondir. "Navodir ush-shabob"ning 364-g'azalida xuddi shunga o'xshash baytlarni uchratamiz:

Jamol zevari qosh aylading, magar urdung,

Bu ikki misqal ila uyla ko'zguga sayqal.

Firoq shomini oshiqqa aylading tiyra,

Agarchi anjumidin yoqting anda ko'p mash'al.

Bahor moshitasi sa'yi birla kiydirdung,

Chaman arusi yuzu qaddig'a huliyu hulul [2, 265].

Dunyoda hech narsa abadiy emas ekan, inson o'zidan faqatgina ezgu amallar qoldirish uchun intilmog'i zarur. Qur'oni majid "Kahf" surasining 45-46-oyati karimalarida fasllar almashinuvini ajib qonuniyat asosida yaratgan Oллоhtaoloning ayni boradagi ta'kidi quyidagicha xabarqilinadi:

"(Ey Muhammad odamlarga) hayoti dunyo misolini keltiring. (U) xuddi bir suv kapidurki, Biz osmondan yog'dirgach (avval-kishi hayotining bahorida) u sababli zamin nabototi (bir-biriga) aralashib-chirmashib ketur, so'ngra (hayot kuzi kelgach) shamollar uchirib ketadigan xas-xashakka aylanib qolur. Olloh hamma narsaga qodir bo'lgan zotdir. Mol-mulk, bola-chaqa shu hayoti dunyo ziynatidir. Parvardigoringiz nazdida esa (abadiy) qolguvchi yaxshi amallar savobliroq va orzuliroq (orzu qilishga arzirliroqdir)"(19).

Yozu Qish, Bahoru Kuz almashinuvini ta'min etgan zot ulardan etadigan nozu ne'matlardan huzurlanish, bahramand bo'lish hamda kezi kelganda fasllarning tabiiy xususiyati (issiq, sovuq, shamollar, bo'ronlar, dovullar, do'lu jalalar)-ofatlaridan ham saqlanish sharoitini yaratib bergan:

Asireki, zikringni aylab hadya,

Beribsen xalosig'a yuz ming hadoyo.

"Ruh ul-quds"da mazkur mohiyat quyidagicha aks etgan:

Pai iloji vay mevahoi boru rutab,

Mizoji insonro soxti qarini shifo.

Zamin zi bo'ston afro'z gasht xunolud,

Zi teg'i kufr b-don son, ki toraki shuhado [7, 15].

Uning (baland haroratning) ilojini qilish uchun yangi pishgan mevalarni Inson mijoziga shifo bo'lishini nazarda tutib, unga yaqin do'st qilib qo'yding. Er bog'larning bunday shu'lalantiruvchi (ko'rinishidan) (go'yo) qonga bo'yaldi. Bu din yo'lida kofirlar tig'idan shahid bo'lganlar (insonlar qoni) va boshini eslatardi,-deydi shoir. Mazkur fikrlarning asosini Qur'oni majidning "A'rof" surasi 74-oyati karimasi tashkil qiladi: "Sizlarni Od (qavmi)dan keyin xalifa qilib qo'rganini va sizlarga erning tekisliklarida (yozlik) qasrlar qurib olishingiz, tog'lik

joylarida (qishlik) boshpanalar yo'nib (tiklab) olishingiz uchun maskan berganini eslangiz! Bas, Oллоhning ne'matlarini eslangiz va erda buzg'unchilik qilib sang'ib yurmangiz" [8, 111].

Oллоhning yuksak mo'jizaviy quvvatini chuqur his etgan shoir atrof-muhitda yuz berayotgan voqealardan hayajonga tushadi, ko'zga ravshan namoyon o'sha mo'jizalar uchun ham Yaratganga sig'inadi, Uning qudratiga tahsin aytadi:

Du rang u dah rang chy buvad, ki har varaq az barg,

Nigoshta ba dusad rang shud zi kilki qazo [7, 15].

Ulug' shoir tasavvuriga ko'ra, har bir rangda Uning bir hikmati aks etgan:

Muncha xil'at maxzani in'omi tashrifingdin o'ldi,

Charxu tog'u bahrga atlas vagar xoro vagar xaz [2, 146].

Yuqoridagi fikrlar esa Qur'oni karim "Baqara" surasining 138-oyati badiiy ifodasidir: «Oллоhdan ham go'zalroq rang beruvchi bormi?» [8, 17].

Alisher Navoiy "Ruh ul -quds" qasidasining 2-va 118-baytida "YOsin" surasining 82-oyati ("Biron narsani (yaratishni) iroda qilgan vaqtida Uning ishi faqatgina "Bo'l" demoqlikdir. Bas, u (narsa) bo'lur-vujudga kelur")ga ishora qiladi: «Innama amruhu iza aroda shay'an an yaqula lahu kun fa yakun».

Chi xomaest, ki dar korgohi «kun fayakun»,

Nagashta be raqami o' zi qatra to dar'yo...

Ba payh kamtar az on metavoniyash, ki kunt,

Chunon nabud, ki nabuvad asar az o' paydo [7, 6].

Mazkur mohiyatni iqtibos san'ati asosida "Badoe' ul-vasat"ning 2-g'azalida o'qiymiz:

Irodang birla taqdiring o'lg'ay ikki kav n ichra,

Agar bo'lsa fano zohir va gar bo'lsa baqo paydo [3, 23].

Qasidaning 10-23-baytlarida odam jismi (to'rt unsur, to'rt xilt) va olam tuzilishi (to'rt fasl) orasidagi yaqinlik, insonning yaratilishi, ichki va tashqi a'zolari vazifasi, mo'jizaviy mukammalligi xususida fikr yuritiladi.

Chu soz kardy tarkibi jismi insony,

Zi xok ta'biya soxty ba zebu baho [7, 7].

Yuqoridagi (10-23) baytlarning tayanch manbai sifatida «Naba» (6-oyat), «Infitor» (7-8-oyat), «Inson» (28-oyat), «Balad» (8-9-oyat), «Tiyn» (4-oyat), «Vas-saffot» (11-oyat), «Baqara» (29-oyat), «Hijr» (26-oyat) kabi suralarni ko'rsatish mumkin. Ulug' shoir insonni mumtoz etgan ilohiy imkoniyatlarga alohida urg'u beradi:

Bas, on gahe ba ulumash chu rahnamun gashty,

Naxust kardy ta'limi allamal-asmo [7, 9].

Uning (insonning) ilm o'rganishi uchun rahnamolik qilgan chog'ingdayoq, dastlab azaliy ismlarga amal qilish ta'limini (O'zing) berding.

"Allamal-asmo" "ismlarni o'rgatdi" demakdir. Bu birikma «Baqara» surasining 31-oyatidan: "Va u zot odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro'qilib dedi: "Agar xalifalikka bizhaqdormiz, degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini menga bildiring!" [8, 15].

Oллоh insonni boshqa mavjudotlardan alohida ajratib, ilmu irfon xazinasini sifatida o'n sakkiz ming olamni uning uchun yaratgan:

Bo'lub sifatingga mazhar jami' maxluqot,

Alar mufassalu insonni aylading mujmal" [2, 266].

"Ruh ul-quds"da esa olami sug'ro quyidagicha ta'riflanadi:

Dar on ajuba namudory az hama kardy,

Amonatatro ham dodiyash ba rasmi xifo [7, 10].

Mazkur baytlar esa Baqara surasi 151-oyatining (Men banda qalbiga muhabbat bo'lib kirgan yashirin xazinaman") va "Lav laka", «Kuntu kanzan» kabi qudsiy hadislarining badiiy-ma'rifiy talqinidir.

Misollardan ayonlashayotirki, ulug' shoirning aksariyat baytlari ilohiy-islomiy g'oyalar zaminida vujudga kelgan. Agar har bir g'azalning botiniy ma'nolari ilohiy kitob bilan birgalikda qiyoslab, jiddiy tadqiq etilsa, hazrat Navoiy ijodiyoti mahsuli bo'lgan qator she'rlar ilohiy kitobning ma'rifiy-badiiy sharhi ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Intihoda aytish joizki, Alisher Navoiy she'rlarida ochiq talmeh bilan birga mazkur badiiy san'atning yashirin ko'rinishiga ham tez-tez murojaat qilingan. Talmeh, iqtibos, tafsir kabi ilohiy-irfoniy ifoda shakli Alisher Navoiy hamd g'azallari uchun faol hodisadir. Abdurahmon Jomiy hamd g'azallari uchun etakchi hisoblangan tazmin san'ati ulug' Navoiy ijodida juda kam uchraydi.

Adabiyotlar

1. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 3-том. Ғаройиб ус-сиғар. -Т.: Фан, 1988. – Б.613.
2. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 4-том. Наводир уш-шабоб.-Т.: Фан, 1989. – Б.557.
3. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 5-том. Бадоеъ ул-васат. -Т.: Фан, 1990. – Б.541.
4. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. -Т.: Фан, 1990. 199-бет. –Б.564.
5. Навоий Алишер. МАТ. 20 томлик. 18-том.Девони Фоний.- Т.: Фан, 2002. –Б.549.
6. Навоий Алишер . МАТ. 20 томлик. 19-том. Девони Фоний.- Т.: Фан, 2003. – Б.598.
7. Навоий Алишер. Рух ул-қудс. Сўзбоши, насрий баён, изоҳ ва луғат билан нашрга тайёрловчилар Р.Воҳидов, Н.Бекова. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –Б.60.
8. Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). –Т.: Чўлпон, 1992.
- 9.Ғаззолий Зайниддин Муҳаммад. Кимиёи саодат. –Т.: Камалак, 1995. –Б.63.

10.00.00 - Filologiya

**O'ZBEK TILIDAGI ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLARNING NAZARIY
ASOSLARI**

Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

dteshaboyevphd@gmail.com + 998916690240

ORCID ID 0009-0000-7445-7271

Annotatsiya: Ushbu maqolada til sintaktik qurilishida anchayin keng va mazmuniy-sintaktik tuzilishining o'ziga xosligi bilan boshqa sintaktik birliklardan ajralib turuvchi, uzoq yillar mobaynida tadqiq etib kelinayotgan masalalardan biri bo'lgan qo'shma gaplar, xususan, ergash gapli qo'shma gaplarga doir nazariy ma'lumotlar berilgan, shuningdek, ularga xos lisoniy masalalarni turli aspektda o'rganishning lingvistik omillarini belgilash orqali mazkur muammo doirasidagi yangi qirralarni kashf etish bo'yicha ilmiy qarashlar va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: sintaktik butunlik, sodda gap, qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gap, predikativ birlik, ergash predikativ birlik, bosh predikativ birlik, valentlik nazariyasi, gap bo'laklari, havola bo'lak, havola bo'laksiz bosh gaplar, havola bo'lakli bosh gaplar.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКЕ**

Аннотация: В статье рассматриваются сложноподчинённые предложения как один из ключевых объектов синтаксического анализа, отличающиеся от других синтаксических единиц широтой и своеобразием своей семантико-синтаксической структуры. Представлена теоретическая информация о структуре сложноподчинённых предложений, а также предложены пути совершенствования лингвистической модели анализа языковых явлений в различных аспектах.

Ключевые слова: синтаксическое целое, простое предложение, сложное предложение, сложноподчинённое предложение, предикативная единица, основная предикативная единица, теория валентности, части предложения, придаточные предложения с отсылочным членом, придаточные предложения без отсылочного члена.

**THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF COMPLEX SENTENCES IN THE
UZBEK LANGUAGE**

Abstract: This article presents an analysis of complex sentences, which have long been a subject of linguistic study and are distinguished from other syntactic units by the breadth and specificity of their semantic-syntactic structure. The paper provides theoretical insights into complex sentence structures and proposes ways to enhance linguistic models for studying language phenomena from various perspectives.

Keywords: syntactic whole, simple sentence, complex sentence, complex sentence with a subordinate clause, predicative unit, primary predicative unit, valency theory, parts of a sentence, subordinate clauses with anaphoric elements, subordinate clauses without anaphoric elements.

KIRISH. Intonatsion belgilari bilan sintaksisning alohida ajralib turuvchi, mazmuniy mundarijasining kengligi bilan sodda gaplardan farqlanuvchi sintaktik butunlik sifatida qo'shma gaplar til sintaktik sathining birligi hisoblanadi.

O'zbek tili qo'shma gap sintaksisining ko'pgina bahs-munozaralarga sabab bo'luvchi masalalaridan biri bu ergash gapli qo'shma gaplar masalasidir. Oborotlar, kengaygan birikmalar va ergash predikativ birliklar chegarasining aniq belgilab qo'yilmaganligi, ergash predikativ birlikni bosh predikativ birlikka bog'lovchi so'z shakllarining asosiy rol o'ynashi, ergash predikativ birliklarni tasniflashdagi tamoyillarning aniq belgilanmaganligi, ergash predikativ birliklar tabiatini yoritishda shu tilning o'ziga xos spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqilmay, boshqa til oilalariga xos bo'lgan xususiyatlar asosida tavsiflanganligi yoki rus tilidagi tarjimalarga tayangan holda, ergash predikativ birliklarni aniqlash ergash gapli qo'shma gaplar muammosini hal qilishda ayrim chalkashliklarga olib kelgan deyish mumkin.

An'anaviy tilshunoslikda yaratilgan sintaksisga oid qo'shma gap va uning tarkibiy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarning ahamiyati benihoya kattadir. Mazkur ishlardagi ilmiy asoslangan g'oyalar bugungi tilshunoslikda qo'shma gap tabiati va uning mazmuniy-tarkibiy xususiyatlariga doir yangicha qarashlarning paydo bo'lishi uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gaplar uzoq yillar davomida tilshunoslarning e'tiborida bo'lgan masalalardan biri sanaladi. Xususan, bu masala jahon tilshunosligida Sh.Balli, A.M.Peshkovskiy, I.N.Yegorova, N.N.Ilina, E.V.Paducheva, V.A.Kornilov, G.F.Gavrilov, V.A.Beloshapkova, O.I.Moskalskaya, M.I.Cheremisina, O.K.Vasileva-Shvede, G.V.Stepanov, A.N.Baskakov, S.I.Shutova, E.N.Shiryayev, A.Z.Abdullayev, A.G.Djavadov, V.B.Kasevich [7, 8, 15, 16, 19, 24, 25] kabi tilshunoslar tomonidan yoritilgan.

Qo'shma gap nazariyalarini o'rganishning dastlabki bosqichi o'zbek tilida, umuman, turkiyshunoslikda, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo'shma gap nazariyalari asosida yaratilgan. O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplar tasnifi boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga o'xshash yoki yaqin bo'lib, "turkiy tillardagi, shuningdek, boshqa tillardagi ergash gap turlari sodda gap nazariyasi bilan uzviy bog'langan"dir [8]. Sodda gaplardagi muayyan bo'laklar bilan ergash gaplarni nisbatlash juda uzoq an'anaga ega [19]. Masalan, ispan tilshunosligida ergash gaplarning vazifasi so'z turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan taqqoslanadi, ya'ni o'xshashlikka asoslanadi[11].

V.A.Beloshapkovaning ta'kidlashicha, F.I.Buslayev asos solgan tasnif XIX asr o'rtalarida rus tilshunosligida keng tarqalgan. Tasnif ergash gapli qo'shma gaplarni sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan. Bu tasnifga ko'ra ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol kabi ergash gaplarning turlari belgilangan. O'rin, tarz, daraja-miqdor, payt, sabab, maqsad, shart va to'siqsiz ergash gaplar esa hol ergash gaplarning ko'rinishlari sifatida tasniflangan.

N.S.Pospelovning tadqiqi ergash gaplar tasnifi masalasida shakliy-mazmuniy tasnif yaratilishida muhim rol o'ynadi. U ergash gapli qo'shma gaplarning bir a'zoli va ikki a'zoli turlarini ajratdi. N.S.Pospelov bir a'zoli va ikki a'zoli gaplar o'rtasidagi farqni bosh va ergash gaplar o'rtasidagi bog'liqlikning turli tabiati bilan izohladi. Bir a'zoli gaplarda ergash gap bosh gapdagi biror bo'lakni aniqlashtiradi, ya'ni ergash predikativ birlik bosh predikativ birlikdagi bir so'zgagina taalluqli. Ikki a'zoli gaplarda esa ergash gap bosh gap bilan yaxlitligicha bog'lanadi. V.A.Beloshapkova bir a'zoli va ikki a'zoli gaplarni "bo'laklangan" va "bo'laklanmagan" gaplarga ajratadi. V.A.Beloshapkova va N.S.Pospelovlarning ergash gaplar masalasidagi talqinlarida, deyarli, farq yo'q.

Turkiyshunoslikda ham N.S.Pospelovning qarashlari, ya'ni ergash predikativ birliklarning bosh predikativ birlikni to'liqligicha izohlashi yoki uning biror bo'lagini aniqlashi bilan aloqador bo'lishi haqidagi fikrlar keng tarqalgan. Masalan, M.A.Asqarova mazmun va strukturasiga ko'ra, ergash predikativ birlikning tuzilishi bosh predikativ birlikdan farqlanishi va bosh predikativ birlikning biror bo'lagini yoki bosh predikativ birlikni butunicha izohlashini ta'kidlab o'tadi [6]. Yuqoridagi tasnif asosida A.Z.Abdullayev va A.G.Javadovlar ozarbayjon

tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarni ikki mazmuniy-sintaktik guruhga ajratishni tavsiya qiladilar. Ular bosh predikativ birlikdagi biror bo'lakni izohlaydigan ergash gapli qo'shma gaplarning bir mazmuniy yadrogga ega bo'lishini, bosh predikativ birlikni butunicha izohlaydigan ergash gapli qo'shma gaplar esa ikki mazmuniy yadrogga ega bo'lishini ta'kidlaydilar [1].

M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar ergash gapli qo'shma gap komponentlari va gap bo'laklarining vazifalari o'zaro o'xshash ekanligini inkor eta olmaydilar. Ularning fikricha, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi va holning vazifalari sodda gapda so'z shakli, so'z birikmalari orqali yuzaga chiqadi. Bu vazifalar predikativ birliklar orqali bajarilsa, qo'shma gapga aylanadi [30].

Tilda har qanday gap muayyan sintaktik o'rinlar tizimidan iboratdir. Sodda gap va qo'shma gaplardagi sintaktik bo'shliqlar bir-biridan farqlanmaydi, aksincha, ular bu jihati bilan bir umumiylikni tashkil etadi. I.N.Yegorova ham sodda gap va ergash gapli qo'shma gaplar o'rtasida funksional muvofiqlik mavjudligini sintaktik bo'shliqning gap bo'lagi yoki predikativ birlik orqali berkilishi bilan asoslaydi [15].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ergash gapning mohiyati va qo'llanishini ta'minlashda bosh gapning kesimi vazifasidagi so'zning ma'nosi va valentligi muhim sanaladi [12]. Predikat valentligi hisobiga yuzaga keladigan sintaktik bo'shliq ba'zan predikatning mazmuniy imkoniyatidan kelib chiqib, tobe predikativ birlik tomonidan ham egallanishi mumkin. Aksincha, sintaktik o'rin tobe predikativ birlik tomonidan egallanmasa, ergash gapli qo'shma gap tarkib topmaydi. Shuning uchun ayrim tilshunoslar ergash gapli qo'shma gap tarkibini belgilashda valentlik nazariyasidan foydalanadilar. Ergash gapli qo'shma gaplarning semantik xususiyatlarini o'rganishda ba'zan valentlik nazariyasiga murojaat qilish ham maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, shuni aytish mumkinki, gap bo'laklarining vazifalaridan andoza olgan holda, ergash gapli qo'shma gaplarni tasniflash maqbulroqdir, chunki sintaktik o'rinlar tizimi nuqtayi nazaridan, ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplardan, deyarli, farqlanmaydi. Gapning grammatik asosi ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap hisoblanadi. Ergash gap esa bosh gap tarkibidagi muayyan bir bo'lakni izohlaydigan gap maqomida bo'ladi [23].

O'tgan asrning 50-60-yillarida o'zbek tili sintaksisini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Grammatik bog'lanish natijasida yuzaga chiquvchi sintaktik birlik hisoblangan gaplar "predikativ aloqa"ning miqdoriy belgisiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga ajratildi.

O'zbek tilshunosligida qo'shma gap sintaksisining asosiy masalalariga doir monografik ishlar o'tgan asrning 50-yillaridan maydonga kela boshladi. Bu an'anaviy tadqiqotlarda sintaktik butunlikning eng yuqori shakli bo'lgan qo'shma gaplarning umumiy xususiyatlari, ularning asosiy turlari va tarkibiy qismlarining yoritilishi yetakchilik qiladi.

Qurilish materiali monopredikativ birliklar bo'lgan qo'shma gaplarga doir masalalarning hal qilinishida rus tilshunosligi va turkologiyaga doir materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

O'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarni o'rganish dastlab H.G'oziyev, A.Ma'rufov, F.Kamol, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, H.Rustamov kabilar tomonidan 40-60-yillarda tadqiq etildi [2, 5, 6, 14, 17, 22, 26]. Keyinchalik B.Berdialiyev, A.Mamajonov, N.Mahmudov, N.Turniyozov, R.Sayfullayevlar tomonidan davom ettirildi [9, 10, 20, 21, 27, 29].

Qo'shma gaplar tadqiqida M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, A.Berdialiyevlar va ularning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega [2, 4, 5, 9]. Shuni ta'kidlash kerakki, olib borilgan lingvistik tadqiqotlar soha rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Sodda gaplardan farqlanib turuvchi sintaktik butunlik bo'lgan qo'shma gaplar tadqiqi tilshunos olim A.Mamajonov tomonidan ham tadqiq etilgan bo'lib, olim o'zining "Qo'shma gap stilistikasi" nomli monografiyasida ergash gapli qo'shma gaplar haqida fikr yuritarkan,

havola bo‘laklar bilan hosil qilinadigan ergash gapli qo‘shma gaplarga ham to‘xtalib o‘tadi [20].

Boshqa tilshunosliklarda bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligida ham ergash gapli qo‘shma gaplar haqidagi munozaralar ko‘pdan beri davom etib kelmoqda.

Ergash gapli qo‘shma gaplarni tasniflashda faqat ergash predikativ birlikka emas, balki bosh predikativ birlikka ham e‘tibor berish lozim. Bu jihatdan bosh predikativ birliklar ham ikki turga bo‘linadi: 1) havola bo‘laksiz bosh gaplar, 2) havola bo‘lakli bosh gaplar [23].

Ergash gapli qo‘shma gaplar grammatik va ohang butunligiga ega bo‘lgan, mazmunan nisbiy mustaqil monopredikativ birliklardan tashkil topgan sintaktik qurilmadir.

Ergash gapli qo‘shma gaplarni tashkil etuvchi qismlarda predikativlik munosabati bo‘lishi shart, ular ergash va bosh predikativ birlik bo‘lishidan qat’iy nazar, bir-birini to‘ldiradi, izohlaydi, aniqlaydi va mazmunan bir-biriga bog‘langan bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tilida ergash gapli qo‘shma gaplarning struktural-semantik tadqiqi masalalariga doir ayrim mulohazalar H.Rustamov, E.Azlarov, A.Ahmedov, A.Hojiyev, A.Matg‘oziyev, M.Rahmonov, A.Sultonov, A.Mamajonov, H.Nazarova, M.Mirtojiyev, N.Yoqubova, H.Yo‘ldasheva, B.To‘ychiboyev, S.Solixo‘jayeva, M.Abdullayev, R.Sayfullayeva, D.Shodmonqulova, R.Abdusamotov, L.Raupova, I.Toshev, I.O‘sarov, S.Boymirzayeva, N.Umarova, N.Turniyozov, I.Azimov, M.Xolboyeva, M.Rahmatov, O.Tojiyev, M.Saparniyozova, A.Musayev, G.Umrzaqova, D.Aytboyevlar tomonidan tahlilga tortilgan, lekin o‘zbek tili ergash gaplarining yagona va mukammal tasnifi masalalari hali hamon muammoli, shu bilan birga, dolzarbligicha qolmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, til sintaktik sathining birligi sanalgan qo‘shma gaplar mazmuniy-sintaktik tuzilishining o‘ziga xos va murakkabligi, mazmun sig‘imining kattaligi bilan sodda gaplardan farqlanib turuvchi til birligi sanaladi. Ta’kidlash joizki, tilshunoslar diqqatini jalb etib kelayotgan qo‘shma gaplar mavzusi har tomonlama tadqiq qilingan bo‘lsa-da, bu mavzuga doir muammolar haligacha to‘liq va atroflicha hal etilmagan.

Jahon va o‘zbek tilshunosligida ergash gapli qo‘shma gaplar bir-biriga o‘xshamagan yondashuv va talqinlar bo‘yicha tasniflanadi. Bu xilma-xil qarashlarning mavjudligi ergash gapli qo‘shma gaplarning tasniflanishiga, ularning tabiatiga ham ishora qiladi.

Umuman olganda, qo‘shma gaplar tadqiqi bilan aloqador muammolar talaygina. Bu masalalar hozirgi kunda o‘zbek tili sintaksisi oldida turgan va atroflicha o‘rganishni taqozo etuvchi muammolar sirasiga kiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев А.З., Джавадов А.Г. О семантическом ядре азербайджанского сложноподчиненного предложения. Советская тюркология, 1987.
2. Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1958.
3. Адмони В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. – Л.: Наука, 1988.
4. Аскарова М.А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. – Ташкент, 1963;
5. Аскарова М. Ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. –Т.: Фан, 1966.
6. Аскарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили ва қўшма гаплар. – Тошкент, 1960.
7. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: 1955.
8. Баскаков А.Н. Предложение в современном турецком языке. – М.: Наука, 1984.

9. Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчиненного предложения узбекского литературного языка. АДД. – Ташкент, 1989;
10. Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним модели эргаш гапли қўшма гаплар. – Тошкент: Фан, 1990.
11. Васильева-Шведе О.К., Степанов Г.В. Теоретическая грамматика испанского языка. Синтаксис предложения. – М.: Высшая школа, 1981.
12. Гаврилов Г.Ф. Об изоморфизме сложно-подчиненного предложения и словосочетания. – В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях. – Новосибирск: Наука, 1980.
13. Гак В.Г. О категориях модуса предложения – В сб.: Предложение и текст в семантическом аспекте. – Калинин: 1978.
14. Ғозиев Ҳ. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилидаги қўшма гапларнинг состави ҳақида // Ўзбек тили илмий грамматикасидан материаллар. 1941.
15. Егорова И.Н. Позиционные эквиваленты слова в составе предложения. – В кн.: Русский язык. Грамматические исследования. – М.: Наука, 1967.
16. Ильина Н.Н. Об одном способе классификации связей между частями сложного предложения. – В кн., Информационные вопросы семантики, лингвистики и автоматического перевода. – М., 1972.
17. Камол Ф. Қўшма гапларга доир масалалар. – Тошкент.: Ўзфанакадемнашр, 1955.
18. Касевич В.Б. Семантик. Синтаксис. Морфология. – М.: Наука, 1988.
19. Корнилов В.А. К проблеме изоморфизма сложно-подчиненного предложения и подчинительного словосочетания. – В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях. – Новосибирск: Наука, 1980.
20. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент, 1990.
21. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент, 1995.
22. Маъруфов А. Ҳозирги замон ўзбек тилида пайт эргаш гаплар. Дис. фил.фан.ном. – Тошкент, 1949.
23. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаев С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
24. Падучева Е.В. О семантике синтаксиса. Материалы трансформационной грамматике русского языка. – М., 1974.
25. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 7-е изд. – М.: Учпедгиз, 1956.
26. Рустамов Х. Ҳозирги замон ўзбек тилида тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гаплар. Филол.фан.ном. ... дис. Тошкент, 1960.
27. Сайфуллаева Р.А. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994.
28. Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси: Филол. фанлари номзоди. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.
29. Турниёзов Н.К. Ўзбек ва француз тилларидаги аниқловчи эргаш гаплар. – Тошкент, 1971.
30. Черемисина М.И., Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. – Новосибирск: Наука, 1987.

10.00.00 - Filologiya

SHOIRA LIRIKASIDA KO'NGUL OBRAZI VA TASVIR MAHORATI

Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna

Alfraganus universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

E-mail: Surayyo.Yogdu@gmail.com

+998 91 595 76 69

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoira Mohlaroyim Nodira lirikasida *ko'ngul* obrazi va tasvir mahorati tahlil ostiga olingan. Shoira lirik qahramonining *ko'nguli* jonga, jonning *ko'ngulga* bog'liqligi, binobarin, jon insonning tirikligini ta'minlasa, *ko'ngul* jonning holatini belgilashi badiiy bo'yoqlarda ifoda qilinishi tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijasi sifatida Nodira tasvir mahoratini va ijodiy muvaffaqiyatini to'liq anglash uchun uning qalb kechinmalari, dard va tuyg'ulari, harakat va manzaralarini tasvirlashda Nodira o'z ustoz Navoiy kabi nihoyatda yuqori natijalarga erishgan. *Ko'ngul* shoira g'azallarining yetakchi mazmunini ta'minlagan asosiy obraz sifatida ijodkorning "men"i bilan barobar, *oshiq, orif, do'st* timsolida kelganligiga alohida ahamiyat berilgan.

Quyidagi xulosalarga kelindi: **Birinchidan**, shoira yaratilarda lirik qahramon bilan birga, ijodkor ko'ngli ham o'z badiiy ifodasini topgan. Shoira bir necha g'azallarida *ko'ngulga* murojaat qiladi, u bilan sirlashadi, dardlashadi va, o'zi aytganidek, undan ruhiy madad oladi. **Ikkinchidan**, Nodira she'riyatida *ko'ngul* obrazi vazifasi va darajasi yuqori bo'lib, xususan, shoiraning "men"i bilan barobar, *oshiq, orif, do'st* timsolida kelib, *ko'ngul* shoira g'azallarining yetakchi mazmunini ta'minlagan asosiy obrazga ko'tarilgan. **Uchinchidan**, ko'ngulning Nodira she'riyatiga kirib kelishining o'ziyoq, lirik qahramonning qalb va dil iztiroblarini, ko'ngul ehtiyojlarining badiiy bo'yqadorligini ta'minlovchi omil ekanligidan dalolat.

Kalit so'zlar: Nodira, lirika, ko'ngul obrazi, ruh va qalb, yurak, timsol, badiiy mahorat.

ОБРАЗ ДУШИ И ИСКУССТВО ОПИСАНИЯ В ЛИРИКЕ ПОЭТЕССЫ

Аннотация: В данной статье анализируется образ души и изображения мастерства в лирике поэтессы Мохларойим Надиры. Настроение лирического героя зависит от души, а душа зависит от настроения, поэтому, если душа обеспечивает жизнь человека, то настроение определяет состояние души, и исследуется, что сердечное переживание лирического героя выражается в художественном мастерстве поэтессы.

В результате исследования, для полного понимания образных способностей и творческих успехов Надиры, как и ее наставник Навои, она добилась чрезвычайно высоких результатов в описании своих душевных переживаний, боли и чувств и природных пейзажей. Особое значение придается тому, что душа как основной образ, обеспечивающий ведущее содержание газелей поэтессы, равна «Я» как возлюбленный, суфий и друг.

Были сделаны следующие выводы: **Во-первых**, наряду с лирическим героем, в творчестве Надиры нашло свое художественное выражение творческое сердце поэтессы. В нескольких своих газелях поэтесса обращается к сердцу, доверяется ему, чувствует боль и, как она говорит, получает от него духовную помощь. **Во-вторых**, в поэзии Надиры высока функция и уровень образ души, в частности, она равна «Я», выступающий в форме возлюбленного, суфий, друг, обеспечивающий ведущее содержание газелей поэтессы, возведенное в главный образ. **В-третьих**, наличие образа

души в поэзии Надиры является фактором, обеспечивающим художественную окраску эмоциональных потребностей, как страдания сердца и души лирического героя.

Ключевые слова: Надира, лирика, образ *души*, настроение души, сердце, символ, художественное мастерство.

THE IMAGE OF THE SOUL AND ARTISTIC EXPRESSION IN THE POETESS'S LYRICS

Abstract: This article analyzes the image of *the soul* and images of mastery in the lyrics of the poetess Mohlaroyim Nadira. The mood of the lyrical hero depends on *the soul*, and *the soul* depends on the mood, therefore, if *the soul* ensures the life of a person, then the mood determines the state of *the soul*, and it is explored that the heartfelt experience of the lyrical hero is expressed in the artistic skill of the poetess.

As a result of the research, in order to fully understand Nadira's imaginative abilities and creative successes, like her mentor Navoi, she achieved extremely high results in describing her emotional experiences, pain and feelings and natural landscapes. Particular importance is attached to the fact that the soul, as the main image that provides the leading content of the poetess's ghazals, is equal to "I" as a lover, Sufi and friend.

The following conclusions were made: **Firstly**, along with the lyrical hero, the creative heart of the poetess found its artistic expression in Nadira's work. In several of her ghazals, the poetess turns to her heart, trusts it, feels pain and, as she says, receives spiritual help from it. **Secondly**, in Nadira's poetry the function and level of the image of the soul is high, in particular, it is equal to the "I", appearing in the form of a lover, a Sufi, a friend, providing the leading content of the poetess's ghazals, elevated to the main image. **Thirdly**, the presence of an image of the soul in Nadira's poetry is a factor that provides artistic coloring of emotional needs, such as the suffering of the heart and soul of the lyrical hero.

Key words: Nadira, lyrics, image of the soul, mood of the soul, heart, symbol, artistic skill.

KIRISH. Ma'lumki, Sharq mumtoz she'riyati mazmun va shakl, poetik tasvir yo'li, vosita, obrazlar olami e'tibori bilan o'ziga xos bir she'riyatdir. Lirikaning noyob yaratig'i, she'r Alloh inoyati – g'ayb marhamatining tuyg'u-ehtiros-kechinmalar, o'y-fikr, xayollar shaklidagi betakror topilma. Shu o'rinda aytish mumkinki, she'r zahmati kimlar uchundir adoqsiz qiynoqlar silsilasi, kimlar uchundir zavq-shavq, rag'bat manbahi bo'lmasin, bundan qat'iy nazar, u ijodkor qalb amri va inson irodasini namoyon etadigan sirli-sehrli ko'ngul yozuqlaridir. Shoir yoki shoir uchun bu qismat uni qiynoqlarga solsa-da, azob bersa-da, satrlar silsilasida uning joniga huzur bag'ishlaydi:

Ko'ngulni xobi g'aflatdin dame bedor qil, yo rab,

Oqorg'on qo'zlarimni mahrami diydor qil, yo rab....

G'azal bunyod qildi, Nodira yorig'a arz aylab,

Ko'ngulda bog'lagan mazmunini izhor qil qil, yo rab [9;68-69].

G'azal baytlaridan ko'rinib turibdiki, shoir Allohga murojaat qilish orqali qalbidagi kechinmalarini izhor qilmoqda. Oshiqning ko'ngulini g'aflatdan uyg'otishni Yaratgandan so'rar ekan, uning ishqida kuygan dildorning qop-qora bo'lishi kerak bo'lgan ko'zlari, yor diydoriga intizorlikdan kuta-kuta "oqorg'on"iga, shu bois uning qiynoqlar-u iztiroblarini Yaratgandan yori ko'ngliga solib, muhabbat tafti olovlarini qalbi hukmdoriga yetkazishni o'tinib so'ramoqda. Bu holatni tasvirlashga fusunkor so'z javhari tizmasidan iborat bo'lgan g'azal bunyod bo'lganidan, bir oz bo'lsa-da, lirik qahramon yuragi taskin topmoqda. Shu o'rinda "...qalb kechinmalari, dard va tuyg'ulari, harakat va manzaralarini tasvirlashda Navoiy nihoyatda yuqori natijalarga erishgan" [17;88-104], – degan olimaning qarashlarini hech ikkilanmay Nodira ijodiga ham tadbiq etish mumkin deb, o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o'rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [12;14;15;11]. XXI asrda ham shoira shaxsiyati va she'riyatini yoritishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [5;6]. Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo'nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Bundan ko'rinadiki, shoira Mohlaroyim Nodira lirikasida *ko'ngul* obrazi va tasvir mahorati masalasi alohida qiyosiy-germenevtik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Darhaqiqat, ijodkor so'zlar shodasidan o'ziga panoh istaydi, o'sha joydagina ko'ngli orom oladi yoki ozorlanadi. Ya'ni ko'ngul orqaligina ijodkor o'zi va o'zgalar qalbiga tashrif buyura oladi. Shoira e'tiroficha:

Ko'ngulni qon etti furqat ibtidosidin meni,

Jona yetkurdi sanam beintihosidin meni...

G'am yemoqqa jonu qon bo'lmoqqa ko'ngul qolmadi,

Ey ajal, sof aylag'il gardun jafosidin meni [10;295].

Shoira talqiniga ko'ra, inson qalbining taxtgohi ko'ngul bo'lib, unda neki yuz bersa, kishining hayotida ham shu holat – yaxshilik, obodlik bo'lsa, turmushi yaxshilig-u farovonlik, bordi-yu buning teskarisi bo'lsa, bu ham hayotining hamma tomonlariga ta'sir etmay qo'ymaydi. Lirik qahramon qalbi yor ayrilig'idan nihoyat darajada kuygani, joni azobda qolib, hattoki endi bu g'amni ko'tarishga majoli yetmasligi, ya'ni yorsiz, uning muhabbatisiz tanasida qon bo'lmasligi, qon bo'lmasa jon bo'lmasligini aytar ekan, ajalga murojaat qilib, bu jafolardan o'zini qutqarishni so'ramoqda. Binobarin, *“poetik obraz shoirning fikridan ko'ra, notinch ruhi, dardli qalbiga mansub. Obraz mundariyasi hamisha ruh va qalb haqiqatini ifodalaydi”* [7;137]. Shoira g'azalidagi ushbu baytlar ham, adabiyotshunos olimning qarashlari naqadar to'g'ri ekanligini ko'rsatadi:

Ko'ngul sirini tilg'a kelturmakim,

Chiqib lablaringdin bo'lur elga fosh [10;188].

G'azal matnidan ayon bo'lib turibdiki, *“...she'rxon ko'ngulida tuyg'ular tug'yonini vujudga keltiruvchi nazm durdonasiga aylanishida unda qalamga olingan ishq mavzusining ham ko'lami kengligi asos bo'ldi... hijron iztiroblarida shirin jonining o'rtanishi-yu, sog'inch hislarining asiriga aylanishini so'zda namoyon”* [4;16].

Sharq adabiyotida ko'ngul obrazining g'unchaga qiyoslanishini e'tirof etgan olima I.Adizova *“Uvaysiy esa unga (ko'ngulga, sharh bizniki) kutilmagan sharh bergan:*

Ko'ngulkim, bir qushi vahshiy, ani rom etkali go'yo

Muhabbatdin qafas aylab, visolin dona tutmishlar.

Shoira ushbu baytda ko'ngulni vahshiy qushga o'xshatib, u muhabbat va visol vositasida rom etilishini ta'kidlaydi. Ko'ngulni g'unchaga o'xshatish, uning rangi va qayg'usini ifodalasa, vahshiy qushga o'xshatish esa uning tabiatini yoritadi” [1;17].

Nodira lirikasini kuzatganimizda ham, ko'ngulni bir necha o'rinda g'unchaga qiyoslaganini ko'rish mumkin. Xususan, shoira bir g'azalida:

Fayzi lutfing birla ochildi ko'ngullar g'unchasi,

Yo bahoristoni davlat, yo gulistondurmusen?...

Nodira, ravshandur iqbolim chog'i vasl aro,

Ko'zim ichra nur yo ko'nglum aro jondurmusen? [9;204-205],

– deya xitob qiladi. G'azalda, shoira tajahuli orif san'atidan mohirona foydalanib, yorga sening marhamating ila jismida yoniq qalbning g'unchasi kurtaklaganini aytar ekan, uning

tuyg'ulariga ilhom bag'ishlagan muhabbati malhamini "bahoristoni davlat", "gulistondurmusen", "ko'nglum aro jondurmusen" deya ulug'laydi:

G'unchalar gulshan aro ochilmasun ul yorsiz,

G'uncha yanglig' to mening ko'nglum dag'i qon o'lmasun...

Shoira lirik qahramoni borliqdan ko'ngul axtarib, ko'ngulni g'unchaga mengzadi, hissiyotga boy ta'sirchan ruhi ila gulshan ichra nish uradigan g'uncha o'ziga talabgorsiz ochilmasligini xohlaydi. Agarda g'uncha yorsiz bo'lsa, lirik qahramon chekayotgan iztirob-alam uning qalbini o'rtashini, qon qilishini bildiradi. Bu holat nafaqat g'unchani, balki gulshanda javlon uradigan bulbulni ham abgor qilishini, afg'on chekib faryod qilishiga sabab bo'ladi. Binobarin, oshiqni yor hajri, hijroni ado-yu xazon qilish, lola yanglig' dog'lik bo'lishiga olib kelishini yurakdan his etgan shoira ushbu iztirobni hech kimga ravo ko'rmaydi. Meni jismim-la ruhim tortayotgan azoblar o'zgalar ko'ngul uyini vayron etmasin, – deya Yaratganga iltijo qiladi:

Qilmasun bulbul chamanda nolau faryodkim,

To ko'ngul bulbul kabi hajrda nolon o'lmasun.

Lola yanglig' Nodira ko'nglumg'a qo'ydi dog'lar.

Hech kim, yo rab, asiri dog'i hijron o'lmasun [9;207].

Lirik qahramon ishq dard o'tining kuli, ya'ni hajr iztiroblari bilan qalbni poklaydi, uni ma'shuqa jilvagohiga aylantiradi va shu tariqa oshiqni ulug' maqomga ko'taradi. Shoira:

Fig'onim sarvu ohim sunbul o'ldi, g'unchadur ko'nglum,

Chamanlar o'ldi paydo hasratim nash'u namosidin.

Chu tarki jilva etti xisravi xurshid ruxsorim,

Ko'ngul ko'zgusi zangi har aro qolmish safosidin.

Falak, rahm ayla emdi jon ila ko'nglumg'a jononsiz,

Ki ko'nglum jona keldi furqati zo'r ozmosidin [9;206].

Shoira baytlari mutolaasidan ayon bo'lmoqdaki, "Iste'dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadafichida ham gavhar, iste'dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor, iste'dod shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan g'unchasida chamanlarning bo'yi va tarovati bor" [18]. Lirik qahramon chekkan ohu nolalardan dil ozorlansa-da, ko'ngul g'uncha kabi chamanga aylanib, ma'shuqa yuzi oy kabi olamni munavvar etishini, shu bois falakdan unga rahm qilishini so'rab, yorsiz uning joni jon emasligini, oshiqqa ishq yashash uchun umid chirog'i, hayot bo'stoni ekanligiga ishora qiladi.

Ko'ngluma g'uncha kabi uqda solib shomi firoq.

Sahari vasl aro bo'lmadi xandon tole' [10;201].

Ayonlashadiki, satrlarda qo'llangan g'uncha oshiq qorong'u tuni, shomini shu qadar yondirdiki, sahari ham xush bo'lmadi, ko'ngul xandon kulmadi. Chunki yor "Ko'ngulning oyinafom etilishiga alangali hajr iztiroblarining kulga aylanishi – nihoyalanishi sababdir" [4;67].

Ko'ngul qon bo'ldi, og'zing sirri hargiz bo'lmadi ravshan,

Qizil gul g'unchasidek kim ochar ushbu muaomoni?

Nedin jonu tanimg'a minnat ermas pobo'singdin,

Kim ermish shehnayi shavqing ko'ngul mulki aro xoni [10;298].

Shoira lirik qahramonining ko'ngli yor ishqida kuyib "qon", ya'ni siqilib ketgani, shundan uning yuzi kulmagani, og'zi baxtidan masrur bo'lmaganini, go'yoki bag'ri qizil qon bo'lgan g'unchadek mahzun holatida tasvirlaydi. Bunda shoira muhabbatning beqiyos tuyg'u ekanligini urg'ulaydi. Oshiqning qalbini faqat yorning mehri, shavqi ko'tarishi, yashnatishi mumkinligini e'tirof etar ekan, uning marhamatidan umidvor bo'lib qoladi. Zero, shoira aytmoqchidek:

*Ko'ngul jonidinu jon qoldi jononi jahondin ham,
Ko'nguldin jona yettim, g'am tunida balki jondin ham.
Bo'lubmen, Komila, ul sarvu gulruksordin ayru,
Ko'ngul qondur havoyi bog'u sayri bo'stondin ham [9;200].*

Insonga faqat ko'ngul, unga kuch ilhom beruvchi, yashashga ishtiyoq beruvchi kuchli ehtiros – muhabbat jon bersa, yashashga undasa, shunday ilhomni hadya etgan yorsiz qolish, oshiq uchun yashnab turgan bo'stonda bag'ri kuyuk ko'ngulni “qon” xuftonga aylantirishni shoira satrlar sathida mohirona joylaydi. Bunda ko'ngulning jonga, jonning ko'ngulga bog'liqligi, binobarin, jon insonning tirikligini ta'minlasa, ko'ngul jonning holatini belgilashi badiiy bo'yoqlarda ifoda qilinadi.

Shoira qalamida ko'ngul bilan bog'liq jarayonlar turli holatlarning shavq, muhabbat, qayg'u va g'am oshyoni ekanligini kuzatish mumkin. Zero, “*Ko'ngul – she'riyatning asosiy obrazlaridan biri. Sharq shoirlari inson taqdiridan bahs yuritish, oliy tuyg'u va fazilatlarini ulug'lash, ishq va oshiqlik sirlarini kashf etishda, asosan ko'ngulga tayanganlar*” [2;16] ekan, shoira Nodira ijodida ham bu holatni chiroyli, o'ziga xos inkishofini ko'rish mumkin:

*Ko'ngul bog'landi to zanjiri gisun sumansog'a,
Tarog'dek soldi hasratlar alidin chok a'zog'a...
Ko'ngulni bodayi g'am birla oxir talxkom etti,
Yetolmay Nodira ul la'li mayguni shakarxog'a [8;227].*

Ushbu misralarda lirik qahramonning ichki dunyosi, tuyg'ulari, iztiroblari tasvirlanar ekan, oshiqning ma'shuqaga ko'ngli sust ketganidan, natijada bu yoqimli ehtiroslar uning a'zoyi badanini taroqdek tarashlayotganidan zorlanadi. Oshiq ma'shuqaning diydoriga yeta olmay, ishqdan yonib, qonishi kerak bo'lgan dil alal-oqibat hijron g'ami ila sho'r, abgor etilganini izhor etadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, “*Kim o'z ko'nglini qanchalik yorqin anglasa, uning fikr va hissiyotlari shuncha pokiza, shuncha yuksak bo'ladi*” [3;38]. Bayt:

*Oshiq ersang ey ko'ngul, ohu fig'on etmak kerak,
Yor la'lin yod etib, bag'ringni qon etmak kerak...
Ey ko'ngul, bebahra qolding shayxni irshodidin,
Emdi borib xizmati piri mug'on etmak kerak [10;225].*

Shoira majoziy ishqni haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo'ymaydi, balki majoziy ishq ishqni haqiqatga olib boruvchi vosita, deb hisoblaydi. Shoira kuylagan mahbuba – hayotning ma'nosi, dilning chirog'idir. Yuqoridagi baytlardan ham ko'rinib turibdiki, Nodira she'riyatida dunyoviy muhabbat ilohiy zid qo'yilmagan. Balki “*Majoziy ishq ishqiy haqiqiyning bir ko'rinishi yoki haqiqiy ishq yo'lidagi o'ziga xos bosqich sifatida baholanadi. Ruhan pok, ma'naviy komil inson uchun majozning o'zi ayni haqiqatdir*” [8;25]. Biz shoira g'azallarining tasavvuf ta'limoti bilan bog'langani, unda diniy-irfoniy g'oyalar ham muhim o'rin egallagani haqida yuqorida ham to'xtalib o'tgan edik.

“Masih timsolining o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini” nomli nomzodlik dissertatsiyasi ustida izlanishlar olib borgan Usmon Qobilov Alisher Navoiy g'azali tahlilida: “*Yorning labidan yog'ilayotgan kalom shu qadar dilkash, dilraboki, bunday jonfizolik Masih nafasida ham yo'q. Baytda talmeh san'ati sifatlash uchun xizmat qildirilib, tajohulu orifona san'atini vujudga keltirgan. Natijada she'rdagi badiiyat unsurlari g'oya mukammalligini ta'minlagan*” [13], – degan fikrlarni bayon etgan. Nodiraning ham quyidagi g'azalida Masih obrazini yoritishda o'ziga xos bir yo'ldan borganligini kuzatish mumkin:

*G'am yema, sayr qil ko'ngul, bir kun o'shal Masihdam.
Hajru firoq dardig'a vasli bila davo qilur...
Shira yo'q ko'ngul qushi avji sharafxumosidur.
Har kecha yuz nashot ila qo'ying uza havo qilur.
Vah na Masihdur labi lutfila elni tirguzar,
Bir ko'zi birla yuz ko'ngul hojatini ravo qilur [10;135].*

Shoira bu gʻazalida, murojaat, talmeh, tashbehu timsollar, mubolagʻa sanʻatidan ijodiy foydalanar ekan, ularning yangi maʼno qirralarini ochib, oʻziga xoslikni taʼminlay olgan. Mumtoz sheʼriyatimizda Iso timsoli Masih sifati bilan ham kelib, jon ato etuvchi maʼshuqa obraziga ishora etib, adabiy-estetik tuygʻular olamini boyitadi. Shoira oʻz koʻngliga murojaat qilish orqali lirik qahramoniga gʻam-anduh chekmaslikni, visol, hajr-firoq dardiga Masihdan oʻz vasli bilan darmon boʻlishini uqtiradi. Bevafo yordan hech qanday foyda yoʻqligini, goʻyoki shirasi yoʻq koʻngul qushi kabi ekanligini eʼtirof etar ekan, Masih lutfi ila elni tiriltirish mumkinligini aytadi. Masiho bir koʻzi bilan qarashi bilan yuz inson koʻngullarini koʻtarishi, hojatini ravo qilishi mumkinligi lirik qahramonning dardchil koʻngliga taskin berganligi bilan ahamiyatlidir. Bayt:

*Yor zulfuni koʻrdum, koʻnglum oʻldi savdoyi,
Kim kezar quyun yangligʻ koʻrmagan biyobonlar.
Ey mahi jaf oʻ bunyod, barcha shevasi bedod,
Senga arz etib yuz dod, koʻnglum aylar afgʻonlar...
Dard ila gʻaming kelgach mulki tan aro koʻnglum,
Jon haramigʻa eltub aylar erdi mehmonlar [10;157].*

Shoira ishq dardini dunyodagi barcha dardlarning eng zavqlisi va yorning sitamidan ham yoqimliroq dard yoʻqdir, – deb taʼkidlaydi. Lirik qahramon yor zulfini koʻriboq oshiq boʻlgani, hushi boshidan uchib quyun yangliq biyobonda sarson-sargardon boʻlgani, oy jamoli barcha soʻzlari ila uni jafoga muftalo aylaganini, yuz dod bilan koʻnguldagi kechinmalarida tugʻyon urayotganini madh etadi. Gʻazalning bosh qahramoni umr mazmunini ishq va vafoda koʻrgan oshiqdir. U yor dardi bilan tirikdir. Maʼshuqasining koʻrki-jamolini madh etish uning dil talabidir. U shu bilan yupanadi, shu yoʻl bilan qalb alamlaridan oʻzini yengil his etadi.

*Yona-yona qolmadi jon birla koʻngul dogʻsiz,
Toma-toma koʻzda ashki chashmi shiryon qolmadi...
Nodira, koʻnglumni ravshan qildi yodi orazi,
Kim manga andishayi xurshidi tobon qolmadi [9;234-235].*

Shoira lirik qahramon koʻngli haqida qalam tebratar ekan, insonning nozik dil rozlari, ishq savdolari tufayli boshiga keladigan koʻrguliklarini yonib kuylaydi. Muhabbat ishqida mast oshiqning iztiroblarini shu qadar boʻrttiradiki, oshiq maʼshuqani dardida ham jonidan, ham koʻnglidan mosuvo boʻlibgina qolmay, uning ishqida yigʻlay-yigʻlay koʻzlarida yosh qolmaganidan nadomat chekadi. Shoira koʻngulga madad, taskin boʻladigan narsa esa yolgʻiz yorning orazi ekanligini taʼkidlaydi.

Maʼlumki, Sharq sheʼriyatida koʻngul orqali ijodkorning oʻziga va oʻzgalarga murojaat qilishi anʼanaviy hodisa boʻlib, koʻngul shoiraaning “men”i bilan barobar boʻlib, oshiq, orif, doʻst timsolida ham kelishi mumkin. Demak, shoira gʻazallaridagi koʻngulni quyida shoiraaning “men”i, oshiq, orif, doʻst timsollariga boʻlib oʻrganish joiz. Bayt:

*Ey koʻngul, yor uchun jahondin kech,
Havasi bogʻu boʻstondin kech [10;98].*

Ushbu baytda, biz koʻngulni shoiraaning “men”i tarzida kelganligini koʻrishimiz mumkin. Shoira oʻz qalbiga murojaat qilib, suyakli dil tortar yaqin suyakchiq kishisi uchun barcha hoyu havaslardan kechsa boʻladi, – degan gʻoyani ilgari surmoqda. Shu oʻrinda hech ikkilanmay aytish mumkinki, “Inson hayotiga xos barcha tuygʻular, hissiyot va kechinmalar koʻngulda tugʻilib, koʻngulda yashaydi. Bu hislar qancha pok va musaffo boʻlsa, koʻngul ham shuncha nurlanib, inson maʼnaviy va ruhiy yuksaklikka koʻtariladi” [2;94]. Shu bois koʻngulni asrab-avaylab saqlash, ehtiyotlash kerakki, yoʻqsa u “guldan nozik” parchalanib ketishi mumkin. Bayt:

*Koʻngul yuz pora boʻldi, Komila, sargʻardi ruxsorim.
Tamoshoi guli sadbargu raʼno qilmadi shohim [10;249].*

Ushbu baytda ham ko'ngul shoira **“men”**i tarzida kelib, shoira qalbini parcha-parchaga ajratib yuborgani, natijada qizil bo'lishi kerak bo'lgan yuzlari rangpar sarg'ayib ketganligini aytar ekan, jismi hukmdoridan shirin o'pkalanadi. Shoira she'riyatida bu kabi o'tliq **“men”**ini ko'rsatuvchi yoniq misralar ko'plab uchraydi. Shunday g'azallaridan yana biri:

*Ko'zim yo'lingdadur, ey sarvi guluzorim, kel,
Ko'ngulda qolmadi sabru qaror, yorim, kel...
Qoshing qilichi-yu mujgon xadangi birla bukun,
Ko'ngul diyorini fath ayla, shahsuvorim, kel [10;238].*

Shu bilan birgalikda, **“ko'ngul”**da oshiq timsoli ifodalagan o'rinlarni ham uchratish mumkin:

*Ey ko'ngul, fig'oningdin tiyradur falak qasri,
Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et...
Nog'ah ul jahon shohi kelsa, ey ko'ngul, borg'il.
Shah inonini ushlab, hajr ilgidin dod et [9;94].*

Darhaqiqat, g'azalning ushbu baytlarida shoira murojaat qilgan **“ko'ngul”**da oshiq timsoli ifodalangan. Oshiqning muhabbati, ohu fig'onidan falak qasri ham tebranayotgani, hech qaysi qasr yor taftidek halovat bermasligi, shuning uchun ularning barchasidan voz kechish, faqat muhabbat dargohini o'ziga oshyon qilishlikka oshiqni chaqiradi. Oshiqqa qalbi sultoni, shohi kelsa, unga inonish, hajr azobidan qutilib, suyaganiga yetish lozimligini uqtiradi. Binobarin, ko'ngul uchun hamdam, malham topish qiyin, agar shunday inson topilsa, bu dunyo havaslaridan kechib, yor etagini tutmoq kerak, – deydi. Shoira lirikasida ko'ngulni oshiq timsolida qo'llagan ko'pgina g'azallarini uchratish mumkin. Xususan:

*Ey ko'ngul, ishqini hayrat bila pinhon tutding,
Xo'b qildingki, junun ila fasod aylamading.
Uzmading yorni zulfidin umidingni, ko'ngul,
Rishtayi joning edi kat'i murod aylamading [10;174].*

– g'azalida ham shoira oshiqqa murojaat qilgan ekan, uni ishq yo'lida og'ishmay, to'g'ri qilayotganiga, chunki qalb sirlari yashirin bo'lishi kerakligi, lirik qahramon shu aqidaga rioya qilganini, ma'shuqasiga xiyonat qilmagan deb hisoblab **“xo'b”** qilding deya madh etadi. She'r davomida shoira ma'shuqaga yorining zulfidan ko'nglini uzmasa-da, uni jondan ortiq suyasa-da, qat'iy maqsad qilmaganidan shirin o'pkalanadi. Bayt:

*Ko'ngullar Ka'basin bir bir ziyorat ayladim, emdi,
Tavofi Makka taxti Sulaymon etmasam bo'lmas.
G'araz iydi visolingdur ko'ngulg'a, ey hilol abru,
Yuzingni oyig'a jonimni qurbon etmasam bo'lmas [10;179].*

Shoiraning ushbu g'azalida qo'llangan ko'ngullar **“orif”**lar timsolida ifodalanganini ko'rish mumkin. Barchaga birdek ayonki, ishqiy she'riyatining bosh mavzuyi ishq. Shoira lirikasi o'zining badiiy pishiqligi va poetic kashfiyotlarga boyligi, ma'rifiyligi bilan ajralib turadi. Shoiraning o'ziga xos e'tiborga molik tomoni, g'azallarida yor jamolini tavsiflash bilangina chegaralanmaydi. U, avvalo, o'z kechinmalarini, qalbini iztirobga solgan tuyg'ularini botiniy tomonini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Ya'ni, ishq faqat insonning insonga bo'lgan muhabbati bo'lib qolmay, ishq inson ko'nglini muqaddas sanagan narsalarga bo'lgan chuqur ehtiromi hamdir. Ma'lumki, Ka'ba oriflar borishni maqsad qilgan, gunohlardan poklaydigan oliy bir ziyoratgohdir. Shoira lirik qahramoni oriflar Ka'basiga tashrif buyurib, Makka taxtini tavofi aylab, Sulaymon etmasa bo'lmasligini aytadi. Orif uchun Ka'ba hilol oy kabi muhtaram aziz ekan, oyning yuziga jonni qurbon etish kerak, – degan qarashni oldinga suradi. Bayt:

*Ko'zim hayratfizodur azmi maydon aylasun shohim,
Ko'ngul maydonida bir lahza javlon aylasun shohim.
Samandi noz uza maydon aro javlon etib har yon,
Ko'ngullarni nishoni tiyri mijgon aylasun shohim...*

*Ko'ngul bog'ida ohim naxlidan tuzdim xiyobonlar,
Zamone anda gulgashti xiyobon aylasun shohim...
Kelib, ey Komila, kulbam sari fayzi qudumidin,
Ko'ngul vayronasin taxti Sulaymon aylasun shohim [10;247-248].*

Shoirani ilm ahliga, orifu fozillarga hurmat-ehtiromi nihoyat darajada yuksak bo'lgan. Ularni qadrlagan va o'zgalarni ham, xususan, turmush o'rtog'i Amir Umarxonni ham shunga chorlagan. Zero, shoira lirik qahramonining oriflar yaratqilari, toat-ibodatlarini oldida aqli loldir. Shul bois u yurt hukmdorining hayratini oshirgan ishlarni tashrif buyurib ko'rishga, ularning qadriga yetib, oriflarning ko'nglini ko'tarishga undaydi. Shoira oriflar bog'ida bo'lganligi sabab gulgashti xiyobonni ko'rgani, shohi ham undan bahramand bo'lib, oriflar vayronasini Sulaymon taxtidan ham yuqoriga chiqarishni xohlaydi. Bayt:

*Ko'ngul qasri muhabbat dog'i birla,
Muabbad to abad ma'muru obod.
Jahon makkora zoli bevafo dur,
Vafo birla ko'ngulni qilmadi shod [9;152].*

Shoiraning nuqtayi nazariga ko'ra, oriflar qasri muhabbat bilan barpo bo'lgan, ularning ehtirom va sa'y-harakatlari, mehlari bilan to' abad obod, yashnab turadi. Ijodkor dunyoni makkor zoli bevafoqligini zorlanar ekan, unda oriflarning ahvoli tangligidan ozorlanadi. "Suv keltirgan xoru, ko'za sindirgan aziz" maqolining mazmun-mohiyatini vafo bilan oriflarni xursand aylamaganida ifodalab beradi. Bayt:

*Ko'nglum aylar ko'zi oldida shahodat takror,
Kofir ilkida o'lan zor musulmon yanglig' [10;205].*

Orif barcha oldida shahodat keltirib, el-ulus uchun yonib yashasa-da, izzat ko'rmasligini "Kofir ilkida o'lan zor musulmon yanglig'" misralarda obrazli tasvirlar ekan, qaysidir ma'noda insonlarni ogohlikka, hushyorlikka chaqirib, olimu fuzalo, oriflarni sevib, ularning hurmatini joyiga qo'yish lozimligini aytadi.

Shoira ijodida ko'ngul poetik obrazi do'st timsolida ham ifodalangan o'rinlarni ko'rish mumkin. Bayt:

*Ey ko'ngul, agar senga yor vaslidur maqsad,
Tark aylab olamni azmi ko'yi jonon et...
Yor yodi bu ohshom ko'nglum ichra mehmondur,
Ey ko'zum, dame anda yosh to'kub charag'on et [10;86].*

G'azal matnidan ham ko'rinib turibdiki, shoira oshiqqa-do'stga murojaat qilib, ey ko'ngul agar sening maqsading yor vasliga yetish bo'lsa, barcha narsadan muhabbating xayoli ustun, aziz bo'lsin. Chunki sen uchun aziz muhabbating yodi bilan ekansan, xursandchilik sen bilan bo'lg'ay, uning uchun baxtiyorlik yoshlari to'ksang arziydi. Bu yoshlar hayot yo'lingni charog'on etadi, – deya xitob qiladi.

*Ko'zlarim har chand aning hijronida giryon erur,
Lek ko'nglum diydasi yodi bila hayron erur.
Ul guliston ichra kim yo'qtur jamoli jilvagar,
G'uncha yanglig' har qayon boqsam ko'ngullar qon erur [10;143].*

Shoira lirik qahramoni qalbidagi muhabbat tufayli ma'shuqasining jamoli hijronida o'tdek yonayotgan bir vaqtda, do'sti o'rtayotgan muhabbat ishvasi azobini chekayotgandan hayratga tushadi. Va shunda iqrar bo'ladiki, birgina u emas ekan. Yor ishqida mast bo'lib o'tdek kuyadigan, muhabbat qalbiga tashrif buyurgan kimsa borki, uning gulistoni ichra g'uncha yanglig' do'stlar ko'ngli qon ekanligini yoniq misralari qatiga mohirona joylaydi. Bayt:

*Ey ko'ngul, dam urma izhori shikoyat aylama.
Bardur omi bandalarg'a ro'za in'omi Xudo [10;42].*

Bayt mazmunidan ayon bo‘lib turibdiki, shoira do‘stga murojaat qilib, ishq-muhabbatning azobidan shikoyat aylama, – deydi. Zero, Islom dinida Yaratgan uchun ro‘za tutmoqlik farz etilganligi va buyuk Alloh tomonidan ro‘za tutgan bandalar uchun in‘om va‘da etilganidek, bandalariga bu dard ortidan Alloh tomonidan katta mukofot borligiga ishora qiladi. Binobarin, inson qalbiga ishq-muhabbatning berilishining o‘zi – buyuk baxtdir. Uning taftini sezish, uning yodi bilan yashashning o‘zi katta baxt ekanligi shoira tomonidan to‘g‘ri ilg‘ay olingan.

Umuman, shoira yoniq she‘riyatini kuzatar ekanmiz, uning ijodida birgina ko‘ngul o‘horli turfa ma‘nolarni anglatganini ko‘rish mumkin. Yuqorida shoira lirikasida ko‘ngul obrazi lirik qahramon “*men*”i, *oshiq, orif, do‘st* timsollari tasvirida jilvalanganini ko‘rib o‘tildi. Yana shuni alohida qayd etish lozimki, shoira birgina g‘azalida his-tuyg‘ular kechinma va holatlarini ifodalashda ko‘ngul timsolining bir necha ma‘nolarda kelish holatini ham kuzatish mumkin. Bayt:

*Ko‘zim hayratfizodur azmi maydon aylasun shohim,
Ko‘ngul maydonida bir lahza javlon aylasun shohim.
Samandi noz uza maydon aro javlon etib har yon,
Ko‘ngullarni nishoni tiyri mijgon aylasun shohim...
Ko‘ngul bog‘ida ohim naxlidin tuzdim xiyobonlar,
Zamone anda gulgashiti xiyobon aylasun shohim...
Kelib, ey Komila, kulbam sari fayzi qudumidin,
Ko‘ngul vayronasin taxti Sulaymon aylasun shohim [10;247-248].*

Ushbu g‘azalda shoira takrir san‘atidan foydalanib, ko‘ngul so‘zini to‘rt o‘rinda qo‘llagan. Shoira lirik qahramoni qalbi hukmdori shohiga murojaat qiladi. Ko‘zlari muhabbat ishq-zavqidan hayratga tushganini, ko‘ngul, ya‘ni chin oshiqlar maydonida bir lahza bo‘lsa-da, u tashrif buyurib, ishq ko‘zini quvnatib, oshig‘ining azmi maydon, javlon aylanishini orzu qiladi. Keyingi misrada shoira yana takrir va murojaat san‘atidan foydalanib, ko‘ngul, ya‘ni chin oshiqlarni nishoni tiyri mijgon aylashini aytadi. Shoira keyingi qo‘llagan ko‘ngul, ya‘ni oshiqlar bog‘ida, suyanichig‘i hukmdorini ohi naxlidin tuzgan xiyobonlarni gulgashitiga aylantirishini o‘tinib so‘raydi. Maqtada shoira oshig‘ini o‘ziga chorlar ekan, ko‘ngul vayronasini, ya‘ni lirik qahramon menini ko‘rsatuvchi qalbim to‘rini Sulaymon taxtidek mo‘tabar qilishini iltijo qilib nola qiladi.

*Ey ko‘ngul, ishq ichra g‘ofil bo‘lma, yor aldin ketar,
Yorsiz ayshu nashoti ro‘zgor aldin ketar.
Mudao osoyishi jon o‘lsa zinhor, ey ko‘ngul.
Ixtiyor etma muhabbat ixtiyor aldin ketar...
Bevafolar mehrini tark ayla, ey shaydo ko‘ngul,
Yo‘qsa bu yo‘lda alingda harna vor aldin ketar [10;131].*

Ushbu g‘azal matnidan ko‘rinib turibdiki, shoira iltifot san‘atidan foydalanib, ko‘ngul, ya‘ni oshiqqa murojaat qilib, ishq ichra g‘ofil bo‘lmaslikni, agar hushyor bo‘lmasa yordan ayrilishini aytadi. Yorsiz oshiqqa ayshu osoyishi, hattoki jon yo‘qligini izhori dil qiladi. Haqiqiy ishqni chin yurakdan ixtiyor etmasa, quvonch-shodlik uni tark etadi. Shu bois Ishqning etagidan mahkam tutishni, bevafolar mehrini tark aylashini aytar ekan, ey shaydo ko‘ngul, qalb, yuragingga quloq sol, – deydi.

XULOSA. Shoira hayotbaxsh lirikasidan keng o‘rin olgan *ko‘ngul* timsoli g‘oyaviy badiiy poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan deb topdik va biz o‘z xulosalarimizni bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Ular quyidagilar:

1. Shoira yaratilgan lirik qahramon bilan birga, ijodkor ko‘ngli ham o‘z badiiy ifodasini topgan. Shoira bir necha g‘azallarida *ko‘ngulga* murojaat qiladi, u bilan sirlashadi, dardlashadi va, o‘zi aytganidek, undan ruhiy madad oladi.

2. Nodira she'riyatida *ko'ngul* obrazi vazifasi va darajasi yuqori bo'lib, xususan, shoiraning "men"i bilan barobar, *oshiq, orif, do'st* timsolida kelib, *ko'ngul* shoira g'azallarining yetakchi mazmunini ta'minlagan asosiy obrazga ko'tarilgan.

3. Xullas, ko'ngulning Nodira she'riyatiga kirib kelishining o'ziyoq, lirik qahramonning qalb va dil iztiroblarini, ko'ngul ehtiyojlarining badiiy bo'yoqdorligini ta'minlovchi omil ekanligidan dalolat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizova I. Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.dokt. (Dsc)dis. avtoref. –T., 2020. –B. 17.
2. Bozorova N. A.Navoiy g'azallarida ko'ngul obrazi. "Badoye' ul- bidoya" devoni asosida. Fil.fan.nom.dis. avtoref. –T., 2002. –B.16.
3. Брюсов. И.Я. Сочинение в двух томах. Том III. –Москва 1987. – С.38.
4. Eshonqulov H. Alisher Navoiy g'azaliyotida ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili ("Xazoyin ul-maoniyy" misolida) Filol. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Buxoro: 2020. –B.16.
5. Eshonqulova S. Nodira she'riyatida tarixiy obrazlar talqini. Filol. fan. nom. ...diss. – T., 2011. – B. 158. (Eshankulova S. Interpretation of historical images in the poetry of Nodira. Philol. science. name ... diss. –T., 2011. –P. 158).
6. Eshonqulova S. Nodiraning badiiy mahorati. Filol. fan. dokt. ...diss. – Jizzax, 2022. B. 267. (Eshankulova S. Nodira's artistic skills. Philol. science. dr. ... diss. –Jizzakh, 2022. –P. 267).
7. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. –T.: 1991. –B.137.
8. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi. –T.: Fan, 1983. – B. 25.
9. Nodira. Asarlar. 1-jild. –T.: Adabiyot va san'at, 1968.
10. Nodira-Komila. Devon. –T.: Xalq merosi, 2001. –B. 295.
11. Nusratullo Atoulo o'g'li Jumaxo'ja. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII–XIX asrlar o'zbek she'riyati asosida). Filol. fan. dokt. ...diss. –T., 1999. – B. 292. (Jumahoja, son of Nusratullah Atullo. Ideology of national independence and literary heritage (based on Uzbek poetry of the 17th-19th centuries). Philol. science. dr. ... diss. –T., 1999. –P. 292).
12. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar): Filol. fan. dokt. ... diss. –T., 1961. – bet 563. (Kayumov A. Kokan literary environment (XVIII-XIX centuries): Philol. science. dr. ... diss. –T., 1961. –P. 563).
13. Qobulov U. Masih timsolining o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. – S., 2001.
14. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... diss. –T., 1961. – bet 182. (Kadirova M. Life and work of Nodira: Philol. science. name ... diss. –T., 1961. –P. 182).
15. Qodirova M. She'riyat va muhabbat malikasi. –T.: Adabiyot va san'at, 1998. – B.3. (Kadirova M. The queen of poetry and love. –T.: Literature and Art, 1998. –P. 3).
16. Qodirova M. She'riyat va muhabbat malikasi. –T.: Adabiyot va san'at, 1998. – B.3. (Kadirova M. The queen of poetry and love. –T.: Literature and Art, 1998. –P. 3).
17. Saloxitdinova D. "Badoye' ul-bidoya" devoni va badiiy san'atkorlik masalalari. Fil.fan.nom.dis. avtoref. –Samarqand, 1993. –B. 88-104.
18. <http://surxontongi.uz/sheriyatga-oshno-kungillar/>

10.00.00 - Filologiya

BADIIY MATNDA OKKOZIONALIZMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnda okkazionalizmlarning lingvistik xususiyatlari va ularning o'zni hamda ijodkor o'z asarlarida so'zlar mazmunini asar qahramonlarining tabiati, ruhiy holati, hayot tarzi va ruhiy kechinmalarini okkazionalizmlar vositasida ifodalashi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistika, lingvopoetika, matn, badiiy matn, uzual, okkazional, denotat, semantika, ta'sirchanlik, o'z ma'no, ko'chma ma'no.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОККАЗИОНАЛИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация: В статье рассматриваются лингвистические особенности окказионализмов в художественных текстах и их роль, а также способ, которым автор выражает в своих произведениях значение слов, характер, душевное состояние, образ жизни и духовные переживания персонажей произведения посредством окказионализмов.

Ключевые слова: Лингвистика, лингвопоэтика, текст, художественный текст, узуальный, окказиональный, денотат, семантика, аффективность, внутреннее значение, переносное значение.

LINGUISTIC FEATURES OF OCCASIONALISMS IN THE ARTISTIC TEXT

Abstract: This article discusses the linguistic characteristics of occasionalisms in literary texts and their role, as well as the way in which the author expresses the meaning of words in his works, the nature, mental state, lifestyle, and spiritual experiences of the characters of the work through occasionalisms.

Keywords: Linguistics, linguopoetics, text, literary text, usual, occasional, denotation, semantics, affectivity, intrinsic meaning, portable meaning.

O'zbek tilshunosligida nutqiy faoliyatni modellashtirish bo'yicha ilk qadamlar tashlanmoqda. Har bir millat va til o'ziga xos psixologiyaga ega bo'lganligi uchun umuman va xususan nutqiy faoliyatni milliy dunyoqarash va mental sifatlardan ajratib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, nutqiy faoliyatning umuminsoniy qonuniyatlari mavjud. Biroq hodisa manzarasida milliy va etnik bo'yoqlar ham borki, ular so'z tanlashdan tortib, gap va matn qurilishida, badiiy san'atlarni hosil qilishda, fikr ifodalash taktikasida ham namoyon bo'ladi. Bu, avvalo, milliy, etnik va shaxsiy leksikada namoyon bo'ladi. O'zbek adabiy tili leksikasi – umum o'zbek tili leksikasining katta bir tarmog'i. O'zbek tilshunoslari tomonidan mumtoz va zamonaviy o'zbek adiblari asarlarining tili va leksikasi o'zaro ajratilgan holda maxsus o'rganildi. Ammo hali ko'plab shoir va yozuvchilarimiz asarlarining lingvistik xususiyatlari, ularning poetik nutqi, badiiy uslub yaratishdagi o'ziga xos mahorati to'laligicha tadqiq ob'ekti bo'lmagani holda, bir til, bir adabiy tizim doirasidagi tipologik tadqiqotlar amalga oshirilgan emas. Tipologik tadqiqotlarsiz esa umumiy qonuniyatlarni ochish imkonsiz. Bu, o'z-o'zidan, nutqni adabiy-lisoniy modellashtirishga to'sqinlik qiladi. Zotan, "...xalqimizning yaratuvchilik

dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosni har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutaffakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar..." [11] qo'yilar ekan, ulkan so'z san'atkorlari asarlarining lingvistik tadqiqini amalga oshirish, uning o'zbek tili tasvir imkoniyatlaridan amaliy foydalanish mahoratini tekshirish, badiiy ifoda uslubini ilmiy o'rganish va adabiy til rivojidadagi xizmatini munosib baholash ushbu tipologik tizimli tadqiqotlar uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Bizga ma'lumki, tilimizdagi har bir so'z o'zining muhim o'rniga ega, ayniqsa badiiy matnda har bir so'zning alohida o'z o'rniga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, so'z qo'llashning o'zini alohida bir san'at deyish mumkin. Ammo bu san'atni hamma san'atkor ham maromiga yetkazib egallay olmaydi. Qachonki, muallif tomonidan so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishi aniq tasavvur etilsagina, u san'at darajasiga chiqa oladi.

Obrazlar (badiiy) tizimida tushuncha va holatlarni, kayfiyat va kechinmalarni, voqea-hodisalar mag'zi-mohiyatini quyuq obrazlar vositasida ifodalashda okkozionalizmlar yetakchilik qiladi. Zero, bu jihat muallif lirik qahramonining ko'p qirrali tuyg'ulari va kechinmalar dunyosini, asardagi hissiyotga boy falsafiy mushohadakorlikni, teran fikrlarning tiniqligini, bo'yoqdorligini asoslaydi.

Badiiy matnda so'zning qo'llanishi bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashadi. "Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo'ladi" [10, C.45].

Obrazlilik, tasviriylik, ekspressivlik kabi terminlar qo'llanishi jixatidan keng ma'nolidir. Ularning ba'zilar (obrazlilik, tasviriylik) adabiyotshunoslik termini sifatida ham, tilshunoslik termini sifatida ham qo'llanadi. Mana shunday hodisalardan biri okkozionalizmlardir.

Tilining tasvir imkoniyatlari shu darajada rang-barangki, u bilan har qanday murakkab va chigal ruhiy holatni yorqin ifodalash mumkin. Tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sish-o'zgarishi – ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi tarzida ro'y beradi. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi o'laroq ham qo'llanadi. Bunday vaqtda bitta so'z bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi o'laroq xizmat qiladi.

Shu mulohazalarni inobatga olib, badiiy asarlarning taraqqiyoti va tahlilida okkozionalizmlarning muhim o'rnini mavjud deb hisoblaymiz. Badiiy okkozionalizmlar yaratilishida badiiy matn asosiy obyekt hisoblanadi. Shoir yoki yozuvchi o'zining xayoliy dunyosini kitobxonga yetkazish uchun eng nozik ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlardan foydalanishga va ushbu so'zni topishga intiladi va harakat qiladi. Natijada tasodifiy so'zlar – kkozionalizmlardan foydalanadi.

Quyida okkozionalizmlar badiiy matnda qanday vazifalarni bajarishini ko'rib chiqamiz. Muallif o'z asarlarida okkozionalizmlardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi:

1. Tilimizda mavjud so'z va tushunchalarni til va lug'atdan o'rin olmagan boshqa so'zlar bilan ifodalash uchun.

2. Turli denotatlarni semantik taqqoslashga imkon yaratish uchun.

2. So'zlarni takror qo'llashning oldini olish uchun.

3. So'zga yangi ma'no yuklash va ma'no ottenkasini kuchaytirish uchun.

4. O'quvchiga estetik zavq berish va nutqiy shaffofligini ta'minlash uchun.

5. Asarning badiiy qiymatini oshirish uchun.

Ijodkorlar tasvir maqsadidan kelib chiqib, so'zlarni tanlab ishlatish bilan chegaralanib qolmasdan, aksincha, so'zlar mazmunini asar qahramonlarining tabiati, ruhiy holati, hayot tarzi

va ruhiy kechinmalariga moslashtirib o'zgartiradilar va shu tariqa tildagi avvaldan mavjud so'zlar yangi ma'no nozikliklari bilan sayqallanib boraveradi. Shu bilan birgalikda shoir yoki yozuvchi tomonidan qayta ishlangan til birliklari badiiy bo'yoqdorligi va ta'sirchanligi bilan alohida ahamiyat kasb etib boraveradi.

Badiiy adabiyotda ijodkorning yaratayotgan badiiy olamini to'laqonli ifodalash uchun nafaqat tilde mavjud birliklaridan foydalanishga, balki, badiiy qimmatga ega bo'lgan boshqa birliklarni yaratishga ham ehtiyoj tug'iladi. Misol uchun, *qora* so'zi rang-tus sifati, u ko'chma ma'noda ham qo'llanadi. Shoir To'ra Sulaymon bu sifatni *qaro* tarzida, okkozianal ma'noda keltirib, umr yo'lining notekisligini, peshonasining sho'riligini ifodalashda qo'llagan:

*Ayro edi asli yo'limiz,
Alhol qoldi ayroligicha.
Haqligicha qoldi yo'li oq,
Yo'li **qaro qaroligicha**... [5, C.8].*

Xuddi shu she'rning boshqa bandida shoir takrordan qochib, *qora* leksemasining sinonimi bo'lgan *siyo* sifatidan ko'ngilning g'amda qolganini ifodalashda foydalanadi:

*Endi tamom ayrilar bo'ldik,
Ko'ngil qoldi **siyoligicha**.
Oy tutilib, Quyosh qoraymay,
Dunyo qoldi dunyoligicha... [5, C.8].*

Ushbu misralarda *qora*, *siyo* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan, *zulmat* so'zi bilan sinonimlik hosil qiladi. To'ra Sulaymon o'zining boshqa bir she'rida *qora* ma'nosida *zulmat* so'zini keltiradi:

*Mag'rib notinch bo'lsa bezovta mashriq
Do'st do'stdan imdodin tutgaymi darig'?*
*Qaer **zulmat** ichra, qaerdir yorug'*
Magar yer yuzida tinchlik bo'lmasa ... [6, C.105].
*O'ylaysan yil bo'yi mudom bahor deb,
Bahorsiz bu dunyo bee'tibor deb.
Hammaning bir xilda tashvishi bor deb,
Barchani o'zingday **pok, beg'ubor** deb...
Havasim keladi senga, bolajon... [7, C.12].*

Pok va *beg'ubor* so'zlari *toza, pokiza, gard-g'ubor, kir, chang kabilardan xoli, musaffo* ma'nolarini ifodalab keladi. Shoir bu sinonimlarni ko'chma ma'noda ko'nglida yomonligi yo'q, *pok*, sofdil, sidqidil bolaga nisbatan okkozianal ma'noda ishlatib, ta'sirchanlikni oshirgan. Shu she'rining boshqa bandida *pok, beg'ubor* so'zlarining sinonimi bo'lgan *begard* so'zidan ham o'rinli foydalanadi. Bu orqali shoir tilning sinonimlarga boyligini, fikr ifodalashning rang-barang yo'llari borligini ko'rsatadi:

*Olamda sen bilan ona shodligi,
Baxti barhaqligi, umrbodligi.
Begard, o'kinganing – dil barbodligi,
Havasim keladi senga, bolajon... [7, C.12].*

Tilning lug'aviy birliklaridan (leksemalardan) tashkil topadigan ma'nodoshlik qatorlari hamisha ochiq bo'ladi. Ya'ni ma'nodoshlik qatorlari, birinchidan, davr taqozosi, nutqiy vaziyat, jamiyat talabi asosida to'ldirilib borishi mumkin. Ikkinchidan, ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, frazeologik iboralar, mustaqil leksema va sememalarining turlari, yasama so'zlar, so'z birikmalari, so'zlarining nutqiy ko'chma ma'nolari bilan bog'lanib, o'z qatorini nutqiy ma'nodoshlik (kontekstual sinonimiya) vositalari bilan kengaytirib boradi.

*Oyning o'n beshimas bari qorong'u,
Ko'lankasiz, tiniq kunlarim kam.
Xun bo'lmish **jigarim**, qon bo'lmish **bag'rim**,*

Og'zimda qora qon – oldimda jom... [8, C.10].

She'rdagi *ko'lanka* so'zi bu o'rinda *tashvish*, *g'am*, *azob iskanjasidagi odam* ichki ruhiy holatning ifodasi bo'lib kelgan. Shoir bu so'zga belgiga ega emaslik *-siz* qo'shimchasini qo'shgan. *G'amsiz*, *tashvishsiz*, *azobsiz* sinonimik qatoriga *ko'lankasiz* so'zini qo'shib, so'zning ma'no qamrovini kengaytirgan. Ushbu misralarda *ko'lankasiz*, *tiniq* so'zlari okkazonial ma'noda sinonimlar qatorini tashkil etgan. Chunki ushbu so'zlar nutqiy vaziyatdan tashqarida sinonim emas. Ammo shoirning topqirligi sabab ular *azobsiz va yaxshi o'tgan kunlar* ma'nosida nutqiy sinonimik uyani tashkil qilgan. Shuningdek, she'riy parchadagi *jigarim va bag'rim* ma'nodosh so'zlari ham iztirob iskanjasidagi inson ruhiy holatini bo'rttirib ko'rsatishda qo'l kelgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, okkazonializmlar asarning badiiy-estetik qimmatini oshirish bilan bir qatorda yozuvchining so'z qo'llash bilan bog'liq mahoratini, his-tuyg'u, tushunchani ifodalashdagi qobiliyatini belgilovchi vosita sifatida va ijodkorning o'zbek tili tasviriy imkoniyatlaridan badiiy foydalanish mahoratini o'ziga xos tarzda ifodalab, milliy adabiy til taraqqiyoti, nutq boyligi uchun xizmat qiladi.

Muallif o'zining asarlarida okkazonializmlardan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanishi – fikrni sodda, tushunarli va aniq ifodalash imkonini beradi. ijodkor badiiy zehniyatida so'zlar muntazam tizim, bu tizimdagi har bir unurning o'z aniq va mustahkam o'rni bor. So'zning poetik qiymati esa pragmatik omillar ta'sirida o'z mohiyatidan tashqariga chiqmagan holda jilvalanib turadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonova M.T, Mamajonova D.A. “Okkazonializmlar va ularning badiiy-estetik vazifasi”. “Humanitarian Research”. Polland.
2. Hayitov H.A. “Qushlarga ibrat hazrati hizr”. Moskva. Internavka., 2020 No 123 str. 72-73.
3. O.R. Avezov. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Pedagogik mahorat, 3 (No.13), 145-150
4. Tuxtasinova O. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 2007. (Tokhtasinova O. Lexical occasionalisms in the Uzbek language and their artistic and aesthetic features: Candidate of Philological Sciences. – T., 2007.)
5. To'ra Sulaymon. Gul bir yon, chaman bir yon. – Toshkent: Cho'lpon, 1996.
6. To'ra Sulaymon. Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim... – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – B. 105.
7. Tura Sulaymon. Istar kungil. – Toshkent: Adabiyet va san'at, 1984.
8. Tura Sulaymon. Sayhon. – Toshkent: Sharq, 2003.
9. Умуркулов. Б. Поэтик нутқ лексикаси – Т., Фан, 1990 (Umurkulov. B. Poetic speech lexicon - T., Science, 1990.)
10. Ёлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Ўз. Рес. ФА. “Фан”, 2007 й.
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” номли нутқи // <http://uza.uz/oz/politics/adabyet-va-sanat-madaniyatni-rivojlantirish-khal-imiz-mana-03-08-2017>.

10.00.00 - Filologiya

**G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA MILLIY G'URUR VA IFTIXOR TUYG'ULARI
TASVIRI**

Tozagul Matyoqubova

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n.
E-mail: tozagulmatyakubova71@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'afur G'ulom she'riyatida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining badiiy ifodasi o'rganiladi. Maqolada shoirning lirikasidagi yurtimizning betakror tabiatini va tabiiy boyliklarini tasvirlovchi she'rlar tahlil qilinadi. Bu esa G'afur G'ulomning she'riy merosida mamlakatimizning tarixi, hozirgi va kelajak hayoti aks etganini tushunishga yordam beradi.

G'ulom she'riyatida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari vatanparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan holda ifodalanadi. Uning ayrim she'rlari o'zbek milliy g'urur va iftixorini tabiat obrazlari bilan bog'laydi. Shoir betovur va betakror tabiat manzaralarini, yurtimizning go'zalligi va jozibasini ko'rganida yuragi cheksiz quvonch bilan to'ladi va bu his-tuyg'ularni she'rlarida mahorat bilan tasvirlaydi.

Maqolada "Assalom", "G'oliblar", "Ona", "Sharaf qo'lyozmasi", "Barii seniki", "O'zbekiston" kabi shoirning bir qator she'rlarini misol qilib keltirib, ularning nafaqat g'oyaviy jihatdan balki badiiy sifatlari bilan ham e'tiborga molik ekanligi tasdiqlanadi.

Maqoladagi fikrlar qisqacha tarzda umumlashirilgan.

Kalit so'zlar: she'riyat, badiiy ijod, vatanparvarlik, badiiylik, milliy g'urur, lirik qahramon, she'r, doston, tuyg'u va kechinma.

**ОПИСАНИЕ ЧУВСТВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ И ГОРДОСТИ В
ПОЭЗИИ ГАФУРА ГУЛАМА**

Аннотация: В данной статье изучается художественное выражение поэтической гордости и гордости в поэзии Г. Гулама. В ней анализируются стихотворения лирики поэта, изображающие прекрасную, неповторимую природу и природные богатства нашей родины. Это позволяет понять, что в поэтическом наследии Г. Гулама изображены история, настоящее и будущее нашей страны.

В поэзии Гулама чувства национальной гордости и гордости выражены в связи с патриотическими идеями. Некоторые его стихотворения, воплощающие чувства узбекской гордости и гордости, связаны с образом природы. Когда поэт видит безмятежные и неповторимые пейзажи природы, красоту и очарование нашей страны, его сердце наполняется бесконечной радостью и он искусно описывает эти переживания в своих стихах. Мнения, выдвинутые на примере анализа ряда стихотворений поэта, таких как «Assalom», «G'oliblar», «Ona», «Sharaf qo'lyozmasi», «Barii seniki», «O'zbekiston», подтвердились. Эти стихотворения примечательны не только своей идейной направленностью, но и высоким художественным качеством.

Мнения в статье обобщены в сжатой форме.

Ключевые слова: поэзия, художественное творчество, патриотизм, артистизм, национальная гордость, лирический герой, стих, поэма, чувство и переживание.

**DEPICTION OF NATIONAL PRIDE AND HONOR IN THE POETRY OF GAFUR
GULAM**

Abstract: In this article, the artistic expression of poetic pride and pride in G. Gulam's poetry is studied. In it, the poems of the poet's lyrics depicting the beautiful, unique nature and natural resources of our homeland are analyzed. This allows us to understand that the history, present and future of our country are depicted in the poetic heritage of G. Gulam.

In Gulam's poetry, feelings of national pride and pride are expressed in connection with patriotic ideas. Some of his poems embodying the feelings of Uzbek pride and pride are related to the image of nature. When the poet sees the serene and unique landscapes of nature, the beauty and charm of our country, his heart is filled with infinite joy and he skillfully describes these experiences in his poems. The opinions put forward by the example of the analysis of a number of poems of the poet, such as «Assalom», “G‘oliblar”, “Ona”, «Sharaf qo‘lyozmasi», «Barii seniki», «O‘zbekiston» were confirmed. These poems are noteworthy not only for their ideological direction, but also for their high artistic quality.

Opinions in the article are summarized in a concise way.

Key words: poetry, artistic creativity, patriotism, artistry, national pride, lyrical hero, verse, poem, feeling and experience.

XX asr o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandaligidan biri akademik G‘afur G‘ulomdir. Uning bir qator she‘r, hikoya, qissa va tarjima asarlari yuksak badiiyat namunasi sifatida bugungi kunda ham katta ahamiyatga egadir. G‘afur G‘ulom she‘riyati falsafiy mazmundorligi, tabiat, jamiyat va inson bilan bog‘liq muammolarning badiiy ifodasi, nozik tuyg‘u-kechinmalar bisyorligi bilan ajralib turadi.

G‘afur G‘ulom asarlarida o‘zbekona g‘urur va iftixor tuyg‘ulari ifodasiga alohida e‘tibor berilgan: *«Men sharq shoiriman. Shuning uchun Sharq klassiklarining hammasi mening hesh-aqrabolarim, desam ajablanarli bo‘lmas... Meni ularning merosi va an‘analari tarbiyalagan. Hali beshikda yotar ekanman onam Hofiz, Jomiy, Navoiy va Fuzuliy g‘azallaridan xonish qilib, meni allalardi. Tabiiyki, ularning asarlari ona suti bilan qonimga singib, jismu ruhimga sayqal berardi»* [12. 298], - deydi shoir. Uning bitganlarida sharqona tafakkur tarzi, ifoda yo‘sinlari, so‘z qo‘llash madaniyati mustahkam o‘rin olgan va bu shoir uchun cheksiz iftixordir.

G‘afur G‘ulom ba‘zi she‘rlarida *“Va‘daga vafoli, axloqda mumtoz, do‘stparvar, o‘z so‘zli, yoriga sodiq”* o‘zbek xalqidan faxrlanishini ifoda etadi. Bunday o‘rinlarda shoir o‘zbek tabiatiga xos fazilatlarini badiiy ifodalash bilan birgalikda vatanparvarlik, mehnatsevarlik xalqimiz qoniga *“sut bilan kirgan”* ligiga alohida urg‘u beradi.

G‘afur G‘ulom o‘z xalqining o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida so‘z yuritarkan, unga bo‘lgan cheksiz muhabbatu hurmatini g‘afurona ehtirom tuyg‘ulari bilan ifodalaydi. U she‘rlarining birida:

Men o‘zbek shoiriman -

O‘z xalqimning tiliman

deb yozadi [11. 161]. O‘zbek shoiri ekanidan iftixor etgan ijodkor o‘zini va so‘zini shu xalqning ko‘ngil talpinishlari nidosi, deb biladi. Millat nomini baland ko‘tararkan, g‘urur va iftixorini yuksak patetika bilan samimiy ifoda etadi. Bu o‘rinda *“o‘zbek shoiri”* obrazi lirik *“men”* ning g‘urur va iftixorini, ko‘ngil kechinmalarini, xalqiga va ijodiga bo‘lgan samimiy munosabatini yoritishga xizmat qilgan.

Shoirning «Assalom» she‘rida bu mazmun yanada salmoqliroq va kengroq aks etganligini kuzatamiz:

Men sharqli shoiriman, ilhomim ufqi

Quril orolidan Afrikagacha.

Fallohlar, kulilar jahon orzusini

Ifodasi bordir she‘rimda ancha. [10. 117]

She'rdagi "sharqli shoir", "ilhom" va "she'r" obrazlari asosiy g'oyani ifodalashga yordam bergan. Lirik qahramon «ilhomni ufqi»ning «Kuril orolidan Afrikagacha» qamrashini o'qiganda shoir taxayyul olami sarhadlarining kengliklarini kuzatish mumkin. She'rda fallohlar, kulilar «jahon orzusi»ning ifodasi borligi, dunyoning bu chekkasida turib, narigi burchagidagi xalqlar tashvishi, orzu-niyatlari, intilishlariga hamdardlikning aks ettirilishi sharqona bag'rikenglik, g'afurona insonparvarlik belgilaridir.

Mazkur bandga adabiy-estetik mazmun ham yuklatilgan bo'lib, shoir badiiy adabiyotda hamisha umumjahoniy muammolar ifodalanishi, insoniyatning o'y-xayollari, orzu-umidlari, dard-kechikmalari poetik idrok etilishi lozimligi haqidagi estetik konsepsiyasini ilgari suradi.

Ma'lumki, sho'ro mafkurasi davrida adabiyot, albatta, ayrim sinf, guruh, tabaqalar manfaatini ko'zlashi kerak, degan qarash hukmron edi. Yuqoridagi kuzatishlar chinakam iste'dod egalari qatori G'. G'ulom ham asl adabiyotning ma'no-mohiyatini teran tushungan holda, umumbashariy muammolarni kuylashga imkon topganini, insoniyat orzu-armonlarini ifodalashga harakat qilganliklarini ko'rsatadi.

G'afur G'ulomning bir qator she'rlari borki, ularda lirik qahramonning milliy g'ururini koinot qadar yuksakliklarga ko'tarish, millat tabiatiga xos mehnatsevarlik, vatanparvarlik, so'zda sobitlik, dushmanga nafrat, vafo, sadoqat tuyg'ulari ulug'lanadi. Shoir milliy g'urur, inson ekanligidan iftixor tuyg'ularidan ko'ksi baland kitobxon ruhiyatiga ta'sir etishni ko'zlaydi. "G'oliblar" she'rida shoirona iftixor tuyg'ulari shunday tasvirlanadi:

Bizning yantoqlardan halvo pishganday,

Bizning qamishlardan shakar to'kilur.

Bizning tariqlardan bir to'ygan chumchuq

Jahonlar aylanib yiroqdan kelur. [10. 53]

Keltirilgan misralarda «bizning» so'zi anafora bo'lib, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'usining mohirona ifodalanishini ta'minlagan. Bu misralar o'z mohiyatiga ko'ra Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostonidagi "Deydilar: Toshkentda suv ichgan chumchuq Qaytib kelar ekan Makatullodan" [6.249] satrlariga xamohangdir.

Shoir o'zining o'zbek o'g'loni ekanligi bilan faxrlanar ekan, bu tuyg'uni o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutgan kundalik hayot voqealarini she'rga solib, bitganlaridagi har bir detalning xalqona bo'lishini ta'minlab asarlari milliy koloritini oshiradi. Uning "Ona" she'ri 1953 yilda yozilgan. She'rda millat onasining zohiriy va botiniy go'zalligi ifoda etilgan. Unda lirik qahramonning dunyoni tanishida, o'zligini anglashida cheksiz sabru qanoat, matonat ko'rsatadigan onaga bo'lgan samimiy tuyg'ulari aks etadi. Onaning rang-barang sifatlari minglab qomusdan baland turadigan kitob ekanligi ifodalanadi. She'rdagi xilma-xil obrazli ifodalar, mubolag'ali tasvirlar onaning sifatlarini ko'rsatish, lirik qahramon ruhiy tug'yonlarini yoritishga yo'naltirilgan.

Shoir qo'llagan tashbehlar o'zining betakrorligi bilan diqqatga molikdir. "Tanglayim ko'targan bibim bechora", "Birinchi tamshangan ona sut qadrin", "Mingga kirib o'lsam ham Quloqda quyma allang" kabi o'rinlarda o'zbekona odat va turmush tarzi bilan bog'liq o'ziga xosliklar nozik ilg'angan hamda koloritli aks ettirilgan. O'zbek millatigagina xos bo'lgan jihatlar tasviri vositasida onaga ehtirom tuyg'ulari ta'sirchan ifodalangan.

O'zbekona g'urur va iftixor tuyg'ulari G'afur G'ulomning "Birinchi she'r" she'rida shunday ifodalanadi:

Yurt salomat, xalq farovon,

Oila tinch, bor huquq,

Odamzodga xos g'urur.

O'zbekmen, deb kekkayganda,

Keng peshonang yop-yorug'. [10. 95]

She'r yangi 1946 yilga atab yozilgan. Unda shoir dilga murojaat qilib, o'tgan yilni sarhisob qiladi. Ijod va mehnatga to'la eski yil muvaffaqiyatlarini esga oladi. Unda yangi

turmush va partiyani ulug'lashga oid misralar uchrasada, she'r shoirona g'urur tuyg'usini mahorat bilan aks ettirgani uchun ham e'tiborga molikdir. Shoir lirik qahramoni uchun tug'ilib o'sgan yerning har bir giyohi muqaddas. Uning nazarida, yurt salomat, xalq farovon bo'lsagina tinchlik va xotirjamlik bo'ladi. Ana shundagina kishi yorug' yuz bilan o'zbekligidan g'ururlanishi mumkin.

Milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari «*Sharaf qo'lyozmasi*» she'rida yuksak pafoslarda kuylangan. Shoir lirik qahramoni xalqimizning tarixi, o'tmishi va bugunini kuzatib, uning kelajagiga umid bilan boqadi. Unda o'zbek xalqi uzoq tarixga ega bo'lgan, ijodkor, mehnatkash dehqon inson sifatida namoyon bo'ladi. Shoir qo'llagan har bir obraz, tasviriy vosita xalqimizga xos jihatlarni yoritishga qaratilgan:

Qadim o'zbek xalqisan,

Asl odam avlodi.

Misr ehromlaridan

Tarixing qariroqdir. [10. 63]

O'zbek xalqining qadimiyligiga urg'u bergan shoir unga «*asl odam avlodi*» deb baho berishi bejiz emas. Bu bilan shoir ham millatimiz o'z ibtidosini Odam otadan olganligini ta'kidlaydi, ham insonga xos ezgu xislatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketganligini aytadi.

Shoir she'rlarida xalqimiz qanchalik og'ir kunlarni boshidan kechirmasin, uning ruhi tetik, kelajakka umidvor ekani shunday tasvirlanadi:

Ne-ne jafo kunlari

Katta yorug' yo'l sari

Xulkar yulduzi kabi

Yetakladi mehnating

Kelajakka umidvorlik bilan yashayotgan xalqni oldinga intilishida, mutelikka, zo'ravonlikka chidashida halol manglay terigina unga madad berdi. Mehnatkashlik xalqning oldinga harakat qilishi, ezgu intilishlarida yo'lini Hulkar yulduzidek yoritib turdi.

She'ring ayrim o'rinlarida «*ulug' rus xalqi*» bilan og'a-inilik, partiyaga berilgan va'dalar eslatib o'tilsa ham, ular she'ring umumiy qimmatiga unchalik soya solmaydi. Bu usul shoirning ko'pgina she'rlarida bo'lgani kabi o'sha sharoitda asosiy muddaoni aytishning bir yo'li edi, xolos. Shoir she'rda o'z xalqiga bo'lgan yuksak extiromi va muhabbatini san'atkorlik bilan ifodalay olgan.

Adabiyot tarixida vatan, uning ko'rku jamoli haqida she'r yozmagan shoirni uchratish qiyin. Bunday she'rlarda O'zbekistonning go'zal tabiati, bog'i, chamani, o'zbek xalqining turmush tarzi, fe'l-atvori, o'y-xayollari, orzu-armonlari kuylangan. Shoirlar vatanparvarlik tuyg'ulari bilan bir qatorda o'zi ham shu yurtning farzandi ekanligidan cheksiz iftixor sezganlar. G'afur G'ulomning vatan haqidagi she'rlarida bu tuyg'ular oshkora ifodalangan bo'lsa, boshqa mavzularga bag'ishlangan she'rlari mohiyatiga ana shunday tuyg'ular singdirib yuborilgan.

Shoir «*O'zbekiston*» she'rida vatanining ko'rkamligi, bog'u bo'stoni, shaharlari, san'ati haqida so'z yuritadi. She'rda o'tmish biroz qoralanib, yangi hayot ulug'langan o'rinlar uchrasada, xalqimiz «*zahmatkash, do'stparvar, jangovor, hushyor*», «*ahdida vafoli, quvnoq*» deb ta'riflanadi.

Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon,

Xalqimiz chamani, bog'i bo'stoni.

Tarixin yozmoqqa kichiklik qilur

Shoir Firdavsiyning katta dostoni. [11. 120]

Gul vodiynig maftunkor bog'u bo'stoni, chamani go'zallikda beqiyos. Bularning tarixini yozmoqqa Firdavsiyning dostoni ham kamlik qiladi. Vatan gulbog'laridan fayz olgan, uning go'zalligidan to'lqinlangan shoir qalbida cheksiz iftixor mujassam. Ba'zi she'rlarida

shoir o'zbekona ifoda va usullar, shu o'lkaga xos bo'lgan jihatlar tasvirini o'zining o'zbekligi, she'ning O'zbekistonda yozilganligi bilan bog'lab talqin etadi: *“Bu she'rim yozildi O'zbekistonda, Shuning-chun ko'p so'zim shu o'lkaga xos”*. [11. 215]

Shoirning *«Barii seniki»* she'rida lirik *«men»*ning vatanga mehri, muhabbati o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. U o'z taqdiri va qismatini vatan taqdiri bilan mushtarak holda anglaydi. *«Muncha ham chiroyliksan, aziz Vatanim, Bodomday ming ko'z bilan sevar badanim»*, - degan lirik qahramon joni, yurak qoni, tanini bir butun holda unga baxsh etishga tayyor. Har qadamda loladan poyonдоз bo'lgan vatanda shabadaning ohangiga butun gulshan raqsiga tushadi. Gul, sunbulga to'la chaman, baland-baland tog'lar, oltin tuproqlarda ungan paxtazor shoirda she'r to'qishga ishtiyoq uyg'otadi. U shoirona viqor bilan *«Archalar baxt boshiga tashlaydi soya»*, - deydi. Bunday tasvirlar betakrorligi, o'ziga xosligi bilan e'tiborga molikdir.

G'afur G'ulomning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarida lirik qahramon tevarak-atrof go'zalligiga boqib, qalbida cheksiz iftixor tuyg'ularini tuyadi. Fikrlarimiz tasdig'i uchun *«Bog'»* she'rini misol keltirishimiz mumkin. She'r *«Bir vatanning o'g'limenkim, har taraf gul, lola, bog', Qalb ko'ziday eng qorong'i kechada porlar charog'...»*, *«Suv desang sharbat oqar, iqlim desang qaymog'u yog', O'z-o'zini maqtaganda, maqtamay qolg'aymi men?»* satrlari bilan boshlanadi. Bunda har taraf gul, lola, bog' bilan qoplangan vatanning o'g'li ekanligidan cheksiz faxr tuygan lirik *«men»*ning qalb kechinmalari ayon bo'ladi. Bu diyorda suv o'rnida sharbat oqadi, iqlimi esa qaymoq va yog'dek yoqimli. Bunday vatanni maqtamaslikning iloji yo'q.

She'rdagi yurtning go'zal manzaralarini tasvirlashda shoir qo'llagan obrazli topilmalar e'tiborga molikdir:

*Lola jomi to'lsa ko'klam shabnamidan ertalab,
Yozgi chilla sho'x xayolday o'tsa kurtakni yalab,
Er quyosh qandli qozon ostiga qo'ysa, o't qalab,
Bilmadim, chillak, daroyi qilg'usi qanday talab,
Lablaridan qand tomarsa - so'rmayin qolg'aymi men? [9. 131]*

«Lola jomi» ning ko'klam shabnamidan to'lishi, *«yozgi chilla»* ning sho'x xayolga o'xshatilishi, uzumning shira yig'ib pishishi esa quyosh qandli qozon ostiga o't qalab qo'yishi tarzida ifodalanishi G'afur G'ulom ijodigagina xos tasvirlardir. Bunday tasvirlar yurtga, vatanga, ona zaminga cheksiz mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi.

Ko'rinadiki, G'.G'ulom she'riyatida vatanparvarlik g'oyalari milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan mushtarak holda tasvirlangan. Shoirning bunday she'rlari yuksak badiiyati bilan bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir.

G'afur G'ulomning o'zbekona g'urur va iftixor mujassamlashgan she'rlarining bir qismi tabiat tasviri bilan bog'liqdir. Shoir tabiatning so'lim va betakror manzaralarini, vatanimizning ko'rki-jamolini, unga fusunkorlik bag'ishlab turgan dala-dashtlar, adir-qirlar, bog'-irmoqlar go'zalligini ko'rganda qalbi cheksiz sevinchga to'ladi va bu kechinmalarini she'rlarida butun jilvasi bilan betakror tarzda yoritadi.

Demak, G'.G'ulom o'z fikr-tuyg'ularini kitobxonga milliy, umuminsoniy va umumbashariy ranglarda “yuqtirish”ga intilgan. Shu qobiliyat tufayli “yo'lini topib” aytilgan konseptual ahamiyatga molik bo'lgan dil izhorlari, poetik jilolantirilgan jonli obrazlar birinchidan millatni, ikkinchidan jahon erksevar xalqini ezgulik yo'lida birlashtirish, odamiylik yo'sinida hamfikir qilishga xizmat qildi. G'.G'ulom poetik merosining kuchi va salmog'i ham o'sha gumanistik pafos bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015.pp. 40-43
2. Matyokubova T. R. Philosophical-Aesthetic Conception: Community And Individuality. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 120-122

3. Matyoqubova T. Gʻafur Gʻulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006. – 160 6.
4. Nazarov B. Gʻafur Gʻulom olami. – T.: Fan, 2004. – 260 6.
5. Oybek. Mukammal asarlar toʻplami. 14-tom, – T.: Fan, 1979. – 480 6.
6. Shayxzoda Maqsud. Dunyo boqiy. Sheʼrlar. Dostonlar. Drama. -T.: Adabiyot va sanʼat, 1988. – 375 6 .
7. Gʻafur Gʻulom - oʻzbek adabiyotining bayroqdori. – Samarqand: Universitet, 2003.
8. Gʻafur Gʻulom - shoir, yozuvchi va olim. – Fargʻona, 2003
9. Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983 . – 326 6.
10. Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984. – 430 6.
11. Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984. – 437 6.
12. Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. 12 tomlik. T.11. – T.: Fan, 1989. – 411 6.
13. Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
14. Islomjon Yakubov Transformation of aesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. №12. 120-125
15. Yakubov I/ Socio-Genetic Factors Of Changes In The Character Of The Main Character. Texas Journal of Medical Science. 2024. Vol 29. Pp. 123-125

10.00.00 - Filologiya

ALISHER NAVOIY IJODIYOTIDA TELBALIKNING MOTIVLASHTIRILISHI

Rajabova Ma'rifat Baqoyevna

BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, f.f.d.
marifat.bakaeva@mail.ru

Annotatsiya. Telbalik inson hayotidagi muammoli ruhiy holatlardan biri sifatida hamma davrlarda alohida e'tiborni tortib kelgan. Uning kelib chiqish sabablarini, ijtimoiy-hayotiy faktorlarini turli fanlar kesimida o'rganishga, shuningdek, u bilan bog'liq holatlarni adabiyotda ham ifodalashga ayrica diqqat qaratilgan.

Maqolada Alisher Navoiy ijodida telba obrazi va telbalik motivining tasavvufiy ma'nodagi talqini, sifatlanishi, shoirning ishqiy g'azallarida hamda "Xamsa" asari tarkibidagi "Layli va Majnun" dostonida ma'noviy induksiya hosil qilganligi, poetik ifodalanishi hamda shoir ijodida telba (majnun) obrazi va telbalik motivining o'ziga xos tasavvufiy talqinlari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Navoiy, obraz, motiv, tasavvuf, telba, telbalik, devona, jinni, savdoyi, ishq.

THE MOTIF OF INSANITY IN ALISHER NAVOI'S LITERARY CAREER

Abstract. Madness has always received special attention as one of the most problematic mental states in human life. Particular attention is paid to the study of the causes of its origin, socio-vital factors in various disciplines, as well as the expression of related cases in the literature.

Madness is one of the traditional poetic experiences to be motivated by the example of the life of an artistic hero as one of the most complex psychological states of man. The article discusses the mystical interpretation and characterization of the image of the madman and the motive of the madman in the works of Alisher.

Keywords: Navoi, image, motive, mysticism, madman, madness, love.

МОТИВАЦИЯ ОБРАЗА БЕЗУМИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: В статье рассматриваются мистическая трактовка и характеристика образа сумасшедшего и мотива безумства в теологическом смысле "тасаввуф" (тасаввуф-теологическое учение Ислама, где рассматривается безграничная любовь к Господу) в творчестве Алишера Навои, поэтическое выражение романтических стихотворений поэта входящие в состав эпоса "Хамса" на примере поэмы «Лайли и Меджнун».

Ключевые слова: Наваий, образ, мотив, суфизм, безумный (телба), сумасшедший (телбалик, девона, жинни), влечение (ишк).

Kirish. Telbalik insonning murakkab psixologik holatlaridan biri sifatida badiiy qahramon hayoti misolida motivlashtirilishi an'anaviy poetik tajribalardan biri bo'lib, uning yuksak namunasini ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiyning ayrim ishqiy g'azallari qatorida "Xamsa" asari tarkibidagi "Layli va Majnun" dostonida yorqin kuzatish mumkin.

Telbalik inson hayotidagi muammoli ruhiy holatlardan biri sifatida hamma davrlarda alohida e'tiborni tortib kelgan. Uning kelib chiqish sabablarini, ijtimoiy-hayotiy faktorlarini turli fanlar kesimida o'rganishga, shuningdek, u bilan bog'liq holatlarni adabiyotda ham ifodalashga ayrica diqqat qaratilgan. Aytaylik, faylasuflar telbalikni olamga munosabat

shakllaridan biri, ruhshunoslar murakkab psixologik holat, sotsiologlar ijtimoiy hayotdagi kamsitilgan va e'tiborga muhtoj qatlam, tibbiyotchilar ruhiy kasallik, tasavvufshunoslar Alloh ishqiga erishishning bir ko'rinishi deb qaraydilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). A. Navoiy ijodida ishq va jununlik masalasi A. Qayumov, N. Komilov, I. Haqqulov, R. Vohidov kabi olimlarning yirik tadqiqotlarida shoirning lirik merosi bilan birga "Layli va Majnun" dostoni misolida o'rganilgan. Bundan tashqari, E. Vohidovning "Junun vodiysida", E. Ochilovning "Majnun – Haq oshig'i", M. Shamsievaning "Layli va Majnun" dostonidagi psixologik chizgilar", G. Mashrabovanning "Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ruhiyat tasviri" kabi maqolalarida ishqning inson ruhiyatiga ta'siri natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar tahliliga tortilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada qiyosiy tipologik tahlil, kompleks tahlil metodlaridan foydalanilgan

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek tilida telba, jinni, devona, tentak, savdoyi, dali so'zlari ko'pincha aqldan ozgan kishilarga nisbatan qo'llanishi bois o'zaro sinonimday tuyuladi. Shunday bo'lsa-da, ularni to'liq sinonim (ma'nodosh) so'zlar deb qarash qiyin. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da **telba** so'zi ikki ma'noda kishiga: a) aqldan ozgan, aql-hushini yo'qotgan, devona, jinni; b) biror narsaga, kimsaga ortiq darajada berilgan; savdoyi, shaydoni; bir ma'noda ma'nosizlikka (telba ko'zlar, telba ishq singari), ko'chma poetik ma'noda jilovlanmagan, asov, "quturgan", shiddat bilan pishqirgan, o'zini har yoqqa urgan narsalarga (telba daryo, telba shamol, telba soy kabi) nisbatan qo'llanishi ko'rsatilgan [11].

Telba shaxs oti, telbalik esa xatti-harakat, holat nomidir. Telba so'ziga *+larcha*, *+lardek*, *+namo*, *+saro* kabi holat ravishi hosil qiluvchi so'z yasovchi morfemalarning qo'shilishidan *telbalarcha*, *telbalardek*, *telbanamo*, *telbasaro* kabi vaziyat ravishlari paydo bo'lgan. Chunki telbalik insonning ma'lum bir vaziyatini, shu vaziyat bilan bog'liq holda bajaradigan ish-harakat tarzini, holatini bildirib turadi.

Jinni arabcha jin, ruh so'zlari bilan bog'liq holda kelib chiqqan bo'lib, xalq tilida uning "jinli", shevada esa "jilli" kabi variantlari mavjud. Bu so'z aqldan ozgan, ruhiy kasallikka yo'liqqan; telba, savdoyi kishini anglatadi. U ko'chma ma'noda xayoliga kelgan axmoqona ishlar, yarashmagan qiliqlar qiladigan kishiga, ahmoq va nodonga nisbatan qo'llanadi. Shuningdek, u o'zini yaqin olib, erkalatib gapirganda yoki hazil tariqasida "devona", "tentak" kabi ma'nolarda ham ishlatiladi.

Xalq orasida goh u tomondan, goh bu tomondan esadigan uyurma shamolga nisbatan "jinni to'polon", "jinni shamol" birikmalari qo'llansa, biror-bir xatti-harakati orqali es-hushidan ayirmoq holati – jinni qilmoq, kalaka qilmoq yoki rasvo va dabdala qilmoq – jinnisini chiqarmoq, turli xil narsalarga o'chlik, qattiq ishqivozlik – jinnisiga aylanmoq (masalan, hozirgi tilda futbol jinnisi, telefon jinnisi kabi) tushunchalarini anglatib keladi.

Tilimizda jinnidan tug'ilgan, jinnidan tarqagan bola jinnivachcha, erkalash va hazil tariqasida "tentakvoy", nojo'ya va ahmoqona ish; telbalik, savdoyilik esa jinnilik, jahli qo'zimoq, g'azablanmoq va achchiqlanmoq jinniligi tutmoq, telba tabiat ko'rinish jinninamo, kelishmagan qiliqlar qilib yuradigan jinnisang'i, aqldan ozganlar, telbalar shifoxonasi jinnixona deb yuritiladi [10].

Devona forsha telba, aqlsiz so'zidan. Bu so'z, avvalo, aqldan ozgan, esi past; telba, savdoyiga, yana Allohning vasliga yetishish umidida zikru samoga berilib, bu dunyo ishlaridan voz kechgan sufiy, darveshsifat odamga, bundan tashqari, biror maqsad, harakatga tamoman berilib, es-hushidan ajralgan kishiga hamda xayr-sadaqa bilan kun ko'ruvchi gado, tilanchiga nisbatan ishlatiladi.

Tilimizda devona so'zining o'zagidan affiksatsiya yo'li bilan yasalgan devonavachcha (devonaning bolasi, qalandarning, tilanchining, gadoning farzandi), devonavash (devonasifat,

devonamonand, devonalarga o'xshagan), devonavor (telbalarcha, devonalar kabi, devonalardek), devonalik (esi pastlik, jinnilik, tilanchilik) kabi jummlalar mavjud [9].

Savdoyi arabcha dilgir, dilgirlikka moyil; ma'yus, g'amgin so'zidan. Bu so'z ham biror kimsa, narsa dardida es-hushidan ayrilgan telba kimsaga nisbatan qo'llaniladi [6]. O'zbek tilida boshiga ishq savdosi tushgan odamni; telba, devona, jinni, tentak, aqldan ozgan, bebosh kimsani **galdir**, **dali** deb ham atashadi [4].

XV asrda yashab ijod etgan ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy ijodida telba (majnun) obrazi va telbalik motivining o'ziga xos tasavvufiy talqini kuzatiladi. Buyuk shoir bu obraz va motivga o'zining ayrim ishqiy g'azallarida va "Xamsa" asari tarkibidagi uchinchi "Layli va Majnun" dostonida alohida o'rin ajratgan.

"Layli va Majnun" dostonida asl ismi Qays bo'lgan yigitning yor ishqidan o'rtanishi uni telbalik ko'yiga solishi badiiy yoritilgan. Lekin bunda Qaysning ishq aslida Allohga qaratilgan bo'lib, Layli timsolida uning tajallisini ko'radi. Shu haqiqiy ishq hajri, yordan ayriliq azobi oshiq yigitni telbalikka giriftor qiladi. Ishq dardi tufayli telba (jinni, devona) holatiga tushib qolgan Qaysni hech kim, hatto ota-onasi ham anglay olmaydi. Hamma uni Majnun, ya'ni jinni deb atay boshlaydi.

Ma'lumki, xalq orasida "Dali bo'lmay, vali bo'lmas" degan maqol keng tarqalgan. Xuddi shu maqolda aytilganidek, tasavvufiy ruhda fikr yuritgan va ijod qilgan Navoiy ham Allohning vasliga yetishish umidida bu dunyo ishlaridan voz kechgan darveshsifat Majnun Layli ishqiga tamoman berilib, es-hushidan ajralishi orqali asta-sekin olam haqidagi bilimlarga ega bo'lganligini, valiylik darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. "Dalidan to'g'ri xabar" deganlaridek, Majnun ota-onasi o'limidan tushida xabar topishi va tushining o'ng kelishida ham uning avliyolik – Alloh do'sti darajasiga ko'tarila boshlaganini dalillaydi.

Navoiy o'z holatini ko'pincha Majnun holati orqali oshkor etishga urinadi. Shuning uchun uni jinni (majnun) deb ataydi. Chunki **jinni so'zining** arabcha bir ma'nosi ruh degani bo'lib, bu bilan shoir o'zining Majnun bilan ruhdosh ekaniga ishora qilgan. Qolaversa, bu so'zning o'zini yaqin olib, erkalatib gapirganda ishlatilishi ma'lum. Hatto Navoiy bu haqda o'z g'azallarida ochiq yozgani ham kuzatiladi:

Ishq aro rasvolig'im elga berur Majnunni yod,
O'ylakim, aylar oni ko'rgan meni mahzunni yod.
...To Navoiyni junun dashtig'a soldi ul pari,
Hazz uchun ham qilmadi bir qatla ul majnunni yod [4].

Navoiy Qaysning har bir holati uning jununiga bois bo'lmish Laylining go'zalligi bilan bog'liqligini tasvirlab ko'rsatadi. Ayniqsa, Laylining qora sochlari yigitning jununi, uning savdoyiligi timsoli bo'lganini ta'kidlaydi. Shunday tasvir va talqinlar Navoiyning sevgi tuyg'ulari ifoda etilgan g'azallarida ham uchraydi:

Qayd aylarg'a junun ahlini bor ul ikki soch,
Har biri necha tugun, har tuguncha necha quloch [7].

Navoiy Majnun ruhiy holati va kayfiyatini ochib berishga urinar ekan, uning vujudi bamisoli olov bilan qoplangan, yonayotgan yopiq uyga o'xshashini ta'kidlaydi. Yigit iztiroblarining ko'pligidan jismi bo'shashib, bemador bemor holiga tushib qolganini, harakatlanmoqqa qo'l-oyoqlarida holi yo'qligini bildiradi. Qays telbalarcha holatda ishq dashtida kezadi. Bunga chora sifatida otasi uni zanjirga soladi. Hayotda ham telbalarni zanjirlab qo'yish holati kuzatiladi. Biroq bu zanjir Qays uchun xursandchilik, mushkullarning yechimi hisoblanadi. "Layli va Majnun"da o'qiymiz:

Ey silsilai junun aro band!
Bo'lg'il bu salosil ichra xursand.
Bu qayd ila kimki shod bo'ldi,
Mustavjibi yuz kushod bo'ldi [8].

Jinnilik zanjirida band bo'lgan, bu zanjirlar ichida xursand bo'li! Kimki bu kishan bilan shod bo'lsa, yuz kushodlikka erishadi.

Shunga ishora qilib, Navoiy bir o'rinda:

“Ul pari ko'yida men devonani band aylangiz,
Band-bandim zulfi zanjirig'a payvand aylangiz” [2]

deb yozsa, yana bir boshqa g'azalida:

“Qayd etarda ul pari ko'yida men devonani,
Itlari zanjiri birla koshki band etsangiz”, [3] –
deb kuylaydi.

Shu o'rinda Navoiyning besh-olti yasharligida Farididdun Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qushlar mantiqi”) asarini yod olib, undan parchalarni doimiy pichirlab aytib yurgani uchun ota-onasi uni telbalanib qolgan gumon qilishi yodga keladi. Bu haqda shoirning o'zi keyinchalik shu asar ta'sirida yaratgan “Lison ut-tayr” (“Qushlar tili”) asarining oxirida aytib o'tgan.

Darhaqiqat, Navoiy “Mantiq ut-tayr” asari g'oyalaridan ta'sirlanib, tarkidunyo qilish fikriga tushgan. Shu intilish uni bir umr tark etmagani shoir faoliyatidan ma'lum. Albatta, real dunyoning noz-ne'matlaridan, totli va huzurbaxsh lahzalaridan ongli ravishda o'zini tiyish, bu yo'ldagi asosiy raqib – nafsni yengish, “o'lmasdan burun o'lish” har kimning ham qo'ldan kelavermaydi. Bundaylarni ko'rgan iymoni sust kimsalar ularni telba deb atashi tayin. Navoiy masalaning aynan shu jihatlarini yoritishda telba obrazidan foydalangan.

Shoir haqiqiy ishq yuzlab oqilu farzonani devona aylab, rasvo qilganini ta'kidlab yozadi:

Ishq ayladi yuz oqilu farzonani rasvo,
Ne ayb agar qildi bu devonani rasvo [3].

Navoiy parini “Alloh”, majnunlarni esa ishq ahli sifatida ifodalagani quyidagi misra orqali yanada oydinlashadi:

Ul pari majnunlarig'a sad yak o'lg'ay, ey quyosh,
Chunki qilsang zarrai behaddu poyoningni jam' [3].

Oshiq ishq yo'lida yaxshi-yomonini, aqlini sadqa qilib [1], sargum bo'lib [1], jununga aylanganiga rozi. U bor topgan-tutganini ishq yo'lida, o'z laylivashi yo'lida sarflashga tayyor:

Ganj agar topsam meni devonavash vayron aro,
Aylaram laylivashimg'a oni majnunvor xarj [7].

Shoir telba ko'ngil, devona ko'ngil, devonai rasvo, telbai rasvo, devonalig'larni oshkor qilgan shayx – San'on [1], hayoti sharbatini hijron zahri bilan talx qilgan ul pari [1], majnunlig'idan ko'z oldida bir parizod lahza-lahza jilva aylashi [1], o'sha parizod shoirni ko'ngil jinsi bashardin asrab oxir devona qilgani [1] haqida ham gapiradi.

Alisher Navoiy ma'shuqa obrazini ko'pincha pari, parivash, malak timsolida gavdalandirtsa, oshiqni telba qiyofasida ifoda etadi:

Ul parivash ishqidin, nosih, meni man' etmakim,
Telbalik vaqtiyu oshiqliq zamonidur manga.
To o'qubmen ishq harfin darsu takroru sabaq
Vomiqu Farhodu Majnun dostonidur manga [2].

Xalqda pariga uchragan kishi aqlu hushidan ayrilib telbaga, jin chalgan jinniga, dev urgan devonaga aylanib qoladi, degan ishonch mavjud. Bu haqdagi xalqona qarashlarga tayanib, shoir yozadi:

Ki, ey majnun, pari ko'rdung magarkim tarki hush etting,
Takallum qil, bu sog'arni ichib, raf'i hijob aylab [7]

A.Navoiy telbalik holatini shunday tasvirlashga urinadi:

Telbalik, ko'rkim, qucharmen bog' aro har sarvni,
Birisi sarvqaddi siymbar bo'lg'aymu deb [3]

Yoki:

Ul pari borg'och, Navoiy dasht sori qo'ydi yuz,
Telbalar yanglig' yaqosin chok etib, afg'on chekib [6].

Telbalik huzurini bayon etib, shukrona keltiradi:

Jon berib oldim jununu ishq to bo'ldim fano,

Oллоh-оллоh, ul ne xush savdo, bu ne xush sud erur [2]

Telbalik – bedavo dard. Unga hech bir tabib chora topolmagan. Shundan kelib chiqib, Navoiy yozadi:

Chu ko'rdi jununim, tabib ayttikim,

Bu devonalig' ishqdindur alomat [7].

Bir g'azalida Navoiy bevosita tabib – hakimga murojaat qilib, o'z dardi mohiyatini uqtirishga harakat qiladi:

Telba deb qilma Navoiyning ilojin, ey hakim,

Kim mushavvashdur anga bir o'zga savdodin dimog' [2].

Shoir yor ko'yi itlariga murojaat qilib, agar telba ko'nglimni topsangiz, to'sh-to'shida tishlabon parkand-parkand aylangiz" deydi [1].

Navoiy o'z yozganlarini ul pari qasrida xomasi (qalami) no'gidin oh-o'q kelib, shu oh o'qi birla majnunvor xat [1] yozganligini va savod etmish ko'ngillar ilg'asa, yor vasfida yozgan bor xatlari savdo ahliga zanjir ekanligini [1], Majnun o'ziga hampoyaligini [1] alohida qayd etadi.

Ba'zi misralarida shoir aqlu hush ahli bilan majnunni qarshilantirib, tazod san'atini yaratishga erishadi:

Telba itni demangiz mendek nedinkim, or etar

Aqlu hush ahlini bir majnunga monand etsangiz [7].

Yana bir o'rinda shoir devona va sog' so'zlarini yonma-yon qo'llab, tazod san'atini vujudga keltirgan:

Sog' bo'l, devona etsang meni bir may birlakim,

Hajrdin devonamen bo'ldum esa bir lahza sog' [4].

Navoiy asarlarida telbalik uzri o'ziga xos ifoda etilgan bo'lib, shoir "Navoiyning jununin ayb qilmang, Kim, ani telbaratmish bir parivash" [1] deydi. O'zining har dam telbarab g'oyib bo'lishini [1], "Telba ko'ngli savdo dashtiga qochishiga g'am zindoni ichra ko'p qobolg'oni" sabab bo'lganini [1] ta'kidlaydi. Shoirning bu holatini esa faqat "aql ko'yi bilan anglash lozim"ligini [1] uqtiradi. O'z devonai rasvoligi oldida Majnun xiradmandligini [1] aytadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Alisher Navoiy badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan asarlari qavatlaridagi ma'no mohiyatni anglash uchun, albatta, daho ijodkorning olam va odam haqidagi qarashlaridan xabardor bo'lish lozim. Jumladan, yuqorida tilga olingan tushunchalar zaminida ham qator g'oyalarni targ'ib qilgan shoir so'zning buyuk qudratini ko'rsata oldi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida telba obrazi Yaratganning nazari tushgan inson timsolini ifodalashga xizmat qilgan. Bu holat poetik an'ana tusini olib, boshqa shoirlar ijodida ham davom ettirilgan.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (References)

1. Алишер Навоий. Топмадим. Ўзбек адабиёти бўстони. Ғазаллар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. –Б. 11, 38-330.
2. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-васат. –Т.: Фан, 1987. –Б. 50, 124, 223, 266.
3. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. XX жилдлик. II жилд. Наводир ун-ниҳоя. – Т.: Фан, 1987. –Б. 30, 43, 264.

4. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. III жилд. Фаройиб ус-сиғар. – Т.: Фан, 1988. –Б. 118, 243.
5. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. IV жилд. Наводир уш-шабоб. – Т.: Фан, 1989. –Б. 92.
6. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. V жилд. Бадоеъ ул васат. – Т.: Фан, 1989. –Б 43.
7. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. VI жилд. Фавойид ул-кибар. – Т.: Фан, 1990. –Б. 46, 57,74, 155.
8. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1990. –Б.89.
9. Қаюмов А. Асарлар. 1-жилд. – Т.: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 9-137.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 1-жилд. А – Д. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б. 587-589.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б. 91-92.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. Н–Тартибли. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. –Б. 56-57, 415.

10.00.00 - Filologiya

SAKKOKIY IJODIDA QUR'ONI KARIM OYATLARIGA MUROJAAT

Israilov G'ayrat Boyzoq o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
f.f.f.d., PhD (ORCID 0000-0002-9234-6759)
isroilov19920760@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mavlono Sakkokiy devonidagi hamd qasidasida Alloh azza va jalla sifatлари tilga olingan bo'lib, fikrni tasdiqlash uchun Qur'oni karim oyat va suralariga murojaat qilingan. Islom ta'limotiga ko'ra, maqtoṽ va madh faqat Allohgagina xosdir, faqat O'zigina loyiqdir. Vaholanki, Qur'oni karimning Tag'obun surasi 1-oyatida shunday deyilgan: Osmonlardagi narsalar va yerdagi narsalar Allohga tasbih ayturlar. Mulk Unga xosdir, maqtoṽ ham Unga xosdir va U barcha narsaga qodirdir.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, hamd, sura, oyat, G'iyos ul-lug'ot, Ruh ul-quṽs Baqara, Qiyomat va oxirat.

ОБРАЩЕНИЕ К АЯТАМ КОРАНА В ТВОРЧЕСТВЕ САККОКИЯ

Аннотация: В статье упоминаются качества Аллаха в оде восхваления при дворе Маулаṽы Саккаки, а для подтверждения мнения приводятся аяты и главы Священного Корана. По учению Ислама, хвала и восхваление принадлежат только Аллаху, и только Он достоин. Однако в аяте суры Тагобун Священного Корана сказано: «То, что на небесах, и то, что на земле, воспеваеṽ хвалу Аллаху». Ему принадлежит имущество, и Ему хвала, и Он имеет власть над всем.

Ключевые слова: Священный Коран, хвала, сура, аят, Гийяс уль-лугхот, Рух уль-Кудс Бакара, Киямат и ахират.

**REFERENCE TO THE VERSES OF THE HOLY QURAN IN THE WORKS OF
SAKKOKIY**

Annotation: In the article, the attributes of Allah are mentioned in the ode of praise in Maulana Sakkaki's court, and verses and chapters of the Holy Qur'an are referred to in order to confirm the opinion. According to the teaching of Islam, praise and praise belong only to Allah, and only He is worthy. However, it is said in verse of Surah Taghobun of the Holy Qur'an: The things in the heavens and the things on the earth sing praises to Allah. To Him belongs the property, and to Him is the praise, and He has power over all things.

Key words: Holy Qur'an, praise, surah, verse, Ghiyyas ul-lughot, Ruh ul-quṽs Baqara, Qiyamat and akhirat.

Hamd so'zining lug'aviy ma'nosi haqida "G'iyos ul-lug'ot"da shunday deyilgan: Hamd – xoslar istilohida Haq subhonahu taoloning buyukligini, azm-u azamatini ulug'lash, maqtashga aytadilar [1; 283]. Adabiy tur va janrlar nazariyasiga oid "Diniy va tasavvufiy turk adabiyoti"da esa, hamd "lug'aviy ma'noda yolvorish, quloqqa so'zlash, Allohga duo aylash mavzuyidagi manzuma, she'r ma'nolarida ishlatiladi" [2; 11], deb ko'rsatilgan.

Oftobi xovariy mehringda zarra tinmayin,

Ko'k oti uzra minib tun-kun yelar ul shahsuvor.

Sening ishqing bilan sharqdan chiqayotgan quyosh bir on ham tinmaydi, ot mingan chavandoz kabi osmonda tun-u kun aylanadi. Bu baytning ma'nosi Qur'oni Karimda ham

kelgan bo‘lib, yosin surasining 38-oyatida: “Quyosh o‘z istiqrori uchun yuradir. Bu o‘ta izzatli, o‘ta biluvchi Zotning o‘lchovidir,” deyilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sakkokiy na’t qasidasida Muhammad (s.a.v) vasf qilar ekan, Qur’on oyatlari, hadislarga suyanadi va o‘ziga xos tarzda obraz tasvirini badiiyat darajasiga ko‘taradi. Bizning fikrimizcha, hamd va na’tlar muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. “Hamd” va “na’t”da qasida xususiyati bor, ya’ni ta’rif-tavsifi, til uslubi ko‘tarinki ruh bilan yozilgan [3; 208]. Demak, mohiyat e’tibori bilan Sakkokiy hamd va na’t qasidalarini yuksak ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega: ular kishini imonga, har bir ishni bilib qilishga, har bir qadamni o‘ylab bosishga chorlaydi va eng avvalo, shoirning diniy – so‘fiyona qarashlarini o‘zida mukammal aks ettirgan islom va tasavvuf falsafasi g‘oyalarini badiiy-teran umumlashtira olgan san’at asarlaridir.

Kon-u daryo qahrining o‘tinda kuyub qaynab toshar,
Birisining bag‘ri qon-u biri har dam beqaror.
Lutf-u qahringkim Jamol birla Jalol oti saning,
O‘t-u suv, tuproq-u yelni e’tidol uzra tutor.

Agar qahrining kelsa, daryolar, konlar (bu yerda daryolar to‘plangan joy-dengiz ma’nosida) qaynab, toshib ketadi. Birining bag‘ri qon bo‘lib, biri beqaror bo‘ladi. Sendagi husn, chiroy, go‘zallik, ulug‘lik va viqor, bularning bari ham qahrining, ham lutfing bilandir. Bular olovni, suvni, tuproq hamda shamolni bir maromda ushlab turadi. Bu yerda Sakkokiy Allohning ulug‘vorligini madh eta turib, uning qahridan ham qo‘rqish kerakligini eslatadi.

Shu o‘rinda Allohdan qo‘rqish haqida Qur’oni Karimda kelgan ba’zi oyatlarni sanashni lozim deb bildik: Allohdan qo‘rqinglar! Albatta, Alloh tavbani ko‘p qabul qiluvchi va rahmlidir (Hujurot surasi, 12-oyat); Bas, kuchingiz yetganicha Allohdan qo‘rqinglar (Tag‘obun surasi, 16-oyat); Ey mo‘minlar, Allohdan qo‘rqinglar, to‘g‘ri so‘zni so‘zlanglar (Ahzob surasi, 70-oyat); Kim Allohdan qo‘rqsa, U zot uning uchun (barcha g‘am-kulfatlardan) chiqar yo‘lni (paydo) qilur. Va uni o‘zi o‘ylamagan tomondan rizqlantirur (Taloq surasi, 2-3-oyatlar); Ey mo‘minlar, agar Allohdan qo‘rqsangizlar, sizlar uchun haq bilan nohaqni ajratadigan hidoyat ato qilur va yomonlik – gunohlaringizni o‘chirib, sizlarni mag‘firat qilur. Alloh ulug‘ fazl-u marhamat sohibidir (Anfol surasi, 29-oyat); Va Mendan qo‘rqinglar (Baqara, 40-oyat); Parvardigori (huzurida) turishdan (ya’ni o‘zining Parvardigor oldida turib hayoti dunyoda qilib o‘tgan barcha amallariga javob berishdan) qo‘rqqan kishi uchun ikki jannat bordir (Rahmon surasi, 46-oyat); Ey mo‘minlar, Allohdan qo‘rqinglar! Har kim ertasi uchun oldindan nima hozirlab qo‘yganiga qarasin! Allohdan qo‘rqinglar, chunki Alloh chindan ham qilayotgan amallaringizdan xabardordir (Xashr surasi, 18-oyat).

Oh urub ishqida yer-ko‘k gunbazini kuydurur,
Ahli zohir oning aslin bilmayin aytur “buxor”.

Chin insonlarning Senga bo‘lgan ishq o‘ti, yer va osmon gumbazlarini kuydirar, ammo yuzaki qaraydigan insonlar bularni bilmaydi va aytgan gaplari xuddi tutunga o‘xshaydi. Bu misraning izohi Baqara surasining 7 oyatida kelgan: Alloh ularning qalblariga va quloqlariga muhr bosgan va ko‘zlarida parda bor. Va ularga ulkan azob bordir.

Imom G‘azzoliyning “Qiyomat va oxirat” kitobida: Zotining abadiy ekanini bildirgan Alloh taolaga hamd bo‘lsin. U O‘zidan boshqa barcha mavjudotlarning o‘lishlarini istadi. Kofirlarni va gunohkorlarni qabr azobi bilan, albatta, jazolaydi. Bandalari dunyo va oxirat saodatiga erishishlari uchun ularga payg‘ambarlari vositasida amrlarini va ta’qiqlarini yetkazdi. Bandalari oxiratda azob yoki mukofot olishlarini ularning dunyoda qilgan amallariga bog‘liq qildi. Oxirat yo‘liga kirib, roziligiga qovushishni O‘zi tanlagan va sevgan bandalariga oson qildi [4; 444] deyilgan. Zero, hamma narsani tiriltirgan va o‘ldirgan Alloh taolo Oli Imron surasining 185-oyati, Anbiyo surasining 35-oyati hamda Ankabut surasining 57-oyati sharifida: “Har bir jon o‘lim (achchig‘i)ni totguvchidir”, deb marhamat qilgan.

Odam o'g'li sen vale, Haq garchi odam suratin,
Qildi rahmat suyini qudrat ili birla ajin.

Sen odam o'g'lisan, garchand Alloh odam suratini muruvvat suvi hamda qodirlik qo'li bilan qorigan. "Yaratilishining ilk davridan boshlab inson o'zining komil va go'zal suratida bo'lgan. Balki Alloh taolo uni eng go'zal suratda, eng chiroyli xilqatda yaratgan". Bu haqiqatni Alloh taolo Qur'oni Karimda alohida ta'kidlab, shunday marhamat qiladi: Biz insonni eng go'zal tuzilishda yaratdik (Tiyn surasi, 4-oyat). Odam alayhissalom bilan yerga, Ka'baga o'rnatilgan Hajar al-Asvad, ya'ni qora tosh ham tushgan. Odam Ato yer yuzida juda uzoq vaqt (2000 yil atrofida) yashagan va vafotidan keyin Makkada dafn etilgan va toshqindan keyin uning jasadi Quddusga ko'chirilgan. Xotini eridan 40 yil keyin vafot etgan. Uning qabri Jidda shahrida bo'lib, Maqbarut ul-Ummi Havva (Havvo maqbarasi) deb nomlanadi. 1975-yilda Saudiya Arabistoni hukumati tomonidan qabr ustiga maqbara qurilgan [8].

Nur bahridin arig' zoting erur duri yatim,
Ne deb ayto yin aningdek gavhar aslin movutin.

Sening zoting nur ummonidagi bir sadaf ichida yakka o'zi yetilgan donador dur bo'lib, bu dur (gavhar) loyqa suvning tingani kabitdir. "Batahqiq, sizlarga o'zingizdan bo'lgan, mashaqqat chekkaningiz uning uchun og'ir bo'lgan, siz (ning saodatga yetishishingiz)ga tashna, mo'minlarga mushfiq, mehribon Rasul keldi".

Avval odamg'a vadi'at qo'ydi nuringni O'g'on,
Ushbu sirni bilmag'onlar bo'ldi mardudi lain.

Alloh (O'g'on) Muhammad s.a.v.ning nurlarini yaratib, uni Odam a.s.ga omonatga (vadi'at) berdi. Va bu sirni bilmaganlar la'natlandi.

"Kunt-u kanzan" din xazoyin Xozini zoting erur,
Ore-ore ul amonatg'a kerak sentek Amin.

Kuntu kanzan bir xazina bo'lsa, xazinachisi sensan va, albatta, bu xazinaga sendek Amin (omonatga xiyonat qilmaydigan, payg'ambarimizning sifatlaridan biri) kerak. "Kuntu kanzan" [5;89] haqida hazrat Navoiy 1499-yil yozilgan "Lison ut-tayr" dostonida ham aytib o'tgan. Parvardigor o'z sirlari xazinasini namoyon qilmoqchi bo'lganda, uni na samo na yer qabul qildi. Insondan o'zga jamiki jonli- yu jonsiz mavjudodlar jaholatga botib uning xitobini anglamadi.

Aylaganda rozning ganjini arz,
Ne samo aylab qabul oni, ne arz [6].

Binobarin, inson boshqa barcha narsalardan mumtoz qilib yaratildi va "kuntu kanzan..." siridan xabardor etildi. Odamzod boshiga to'g'ri yo'ldan borish toji kiydirildi. Sharaf me'rojiga yuksalish uning qismati bo'lib qoldi. Jaholatga botgani uchun osmon-u yer sharaf tojiga munosib ko'rilmagan ekan, baniy odam orasidagi johil-u nodonlar mumtozlik maqomiga munosibmi? Yo'q. Faqat "kuntu kanzan" siridan voqif insongina bunday sharafta loyiq. Ammo bu qanday sir? Bu Allohning kalomiga ishora bo'lib, Alloh taolo aytadi: "Men bir maxfiy Xazina erdim, tanilmoqlikni istadim. Olamni yaratdim, to qudratimni namoyon esam, Odamni yaratdim, to o'zimni (rahmatim va mag'firatimni) oshkor etsam".

"Li ma'alloh" hujrasinda sendin o'zga sig'madi,
Mahram ermas sir saroyinda sanga Ruhul – amin.

Sendan o'zgasi Alloh dargohida bo'la olmadi, hattoki, Jabroil a.s. ham. Jabroil a.s.ning yana bir nomi Ruhul-amindir. Farishtalar bajaradigan ishlarning eng ahamiyatlisi, Allohning vahiysini payg'ambarlarga yetkazishdir. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga Qur'on oyatlarini keltirgan farishtaning ismi Jabroildir. Qur'on uni "Ruhul amin" va "Ruhul qudus" deb ham ataydi. Farishtalarning vazifalaridan yana biri payg'ambarlarni qo'llab-quvvatlash, ularning og'irini yengil qilishdir. Bu baytda Muhammad s.a.v.ning me'roj kechasi haqida gap ketadi. Me'roj kechasida payg'ambarimiz Buroq otiga minib, Jabroil a.s. uni yetti qavat osmonni sayr qildirib, "sidrat ul-muntaho" degan manzildagi daraxtgacha yetkazdilar. (Sidr

daraxti asosan Arab o'lkalarida o'sadigan daraxt bo'lib, u biroz tikonli bo'ladi. Insonlar uning mevasidan ko'ra soyasidan ko'proq foydalanishadi. Suvda o'sadigan gulga ham sidr deyiladi. Sidra kalimasi Qur'oni Karimning 4 oyatida hammasi bo'lib 4 marta keltirilgan. Ular orasidan Najm surasida aynan "Sidrat ul-muntaho" deb keltirilgan. Sidrat ul-muntaho daraxti qayerdagi va qaysi daraxt ekani haqida esa quyidagi oyat va hadislardan bilib olamiz. Aloqador oyat va hadislar quyidagicha: "Muhammad s.a.v. (vahiyni o'rgatgan malakni) o'zgacha bir tushishda ham ko'rdi. O'shanda u Sidrat ul-muntahoni yonida edi. Jannat ul-Ma'vo esa, Sidrat ul-muntahoni yonida edi. O'sha damda, Sidrat ul-muntahoni nimalar qoplagan edi, nimalar! Ko'zi hech qayerga burilgani ham yo'q, haddan oshgani ham yo'q. Haqiqatda, u Rabbining buyuk oyatlaridan bir qismini ko'rdi." (Najm 53/13-18). Sidrat ul-muntaho yettinchi qat samodadir. (Buxoriy, Bad'ul Xalq 6.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'iyos ul-lug'ot. 1-jild. Dushanbe, 1987 (Ghiyyas-ul-lughat. Volume 1. Monday, 1987) – B. 283.
2. Bekova N. Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul-quds" qasidasining badiiyati: Ko'rsatilgan dissertatsiya. – T., 2003. – B. 11.
3. Muhiddinov M. Komil inson- adabiyot ideali. – T.: Ma'naviyat, 2005. – B. 208.
4. G'azzoliy. "Qiyomat va oxirat". Tarjimon: Otabek G'aybulloh o'g'li. –T.: Movarounnahr, 2004. – B. 444.
5. Farhangi zaboni tojiki, nashriyoti sovetkaya ensiklopediya. – M., 1969. – B. 89.
6. Mamadaliyeva Z. Lison ut- tayr obrazlari: ramz va majoz olami. – T.: Fan, 2022.
7. <https://www.musulmonlar.com/sidratul-munta-o-nima/>
8. <https://islam-today.ru/istoria/kak-nacinalas-istoria-celovecestva/>

19.00.00 – Psixologiya

**O'SMIR O'QUVCHILARDA XAVOTIRLANISHGA BERILUVCHANLIKNI
ANIQLASHNING USLUBIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH**

Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

psixologiya fanlari nomzodi, Oriental universiteti “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi” kafedrası dotsenti, Toshkent, O’zbekiston. Pochta: shahloalimbayeva86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’smir o’quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash so’rovnomasining ishlab chiqilishi, uning ishonchlilik, validlik darajalarining tekshirilish jarayonlari haqida so’z boradi. Maqoladan so’rovnoma tuzishning jarayonlari bilan tanishishda hamda unda keltirilgan so’rovnomadan xavotirlanish holatini diagnostika qilishda foydalanish mumkin.

Kalit so’zlar: O’smirlik davri, xavotirlanish, o’quv faoliyati, so’rovnoma, aniqlilik indeksi.

**ФОРМИРОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЕ
СКЛОННОСТИ К ТРЕВОЖНОСТЯМ У УЧАЩИХСЯ В ПОДРОСТКОВОМ
ВОЗРАСТЕ**

Аннотация: В данной статье рассматривается создание опросника для изучения склонности к тревожностям у подростков, а также процесс проверки её достоверности и валидности. Эта статья дает возможность ознакомиться с процессами создания опросника и диагностики тревожности.

Ключевые слова: Подростковый возраст, тревожность, учебная деятельность, опросник, индекс точности.

**FORMATION OF A METHODOLOGICAL BASE FOR THE STUDY OF THE
TENDENCY TO ANXIETY AMONG THE ADOLESCENT STUDENTS**

Annotation: This article deals with the creating a questionnaire to study the tendency to anxiety of adolescent students, the process of checking its reliability and validity. This article provides an opportunity to be familiar with the processes of creating a questionnaire and diagnosing anxiety.

Key words: Adolescence, anxiety, learning activity, questionnaire, accuracy index.

KIRISH

O’smirlik davri emotsional kechinmalarga boy davrdir. Bu davrda kechadigan inqirozli va’ziyatlarni hal qilishda unga xos bo’lgan emotsional holatlarni chuqur o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Turli adabiyotlarda o’smirlik davridagi qo’rquv, xavotirlanish, xavfsirash, notinchlik holatlarini o’rganishga qaratilgan bir qancha metodikalar ko’rsatib o’tilgan [1].

MATERIAL VA METOD

Ch.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan “Xavotirlanishni o’rganish testi” bir vaqtning o’zida shaxs va vaziyat bilan bog’liq xavotirlanishni o’rganishga imkon beradi. Ushbu metodika Yu.L.Xanin tomonidan modifikasiya qilingan [2]. A.M.Prixojan ishlab chiqqan xavotirlanishni aniqlash shkalasi esa O.Kondashning xavotirlanish darajasi va uning asosiy manbalarini aniqlab beruvchi «Ijtimoiy-vaziyatli xavotir shkalasi» asosiga qurilgan. Ma’lumki, xavotirlanish mustahkamlanib, barqaror emotsional diskomfortga sabab bo’lishi, salbiy omillar (masalan, asabiy zo’riqish) ta’sirida esa nevroz va psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqarishi

mumkin. Boshqa metodikalar bilan birga mazkur shkalaning qo'llanilishi esa xavotirlanishning chuqur determinantlari va shakllarini aniqlash imkonini beradi.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilardagi xavotirlanish holati o'quv faoliyatida ijodiy tafakkurning namoyon bo'lishiga ham ta'sir etadi. Aynan bu masalani to'liq yoritib bera oladigan metodika yo'qligi sababli "O'smir o'quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash so'rovnomasi"ni tuzdik. Ushbu so'rovnoma savollarini tuzishda A.M.Prixojaning "Xavotirlanishni aniqlash shkalasi", Ch.D.Spilberger-Yu.L.Xaninning "Xavotirlanish darajasini aniqlash metodikasi" kabi ko'plab metodikalar qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning savollari mazmunidan foydalanildi.

So'rovnoma dastlab 18 ta savoldan iborat bo'lib, bunda 4 ta savol samimiylikni tekshirishga qaratilgan edi. So'rovnoma savollarini tuzishda alternativ (dixotomik) tanlovli javob variantlaridan foydalandik. Bunday javob variantini tanlashdan ko'zlangan maqsad sinaluvchilarda savollarni idrok qilishdagi qiyinchilikni bartaraf etishdan iborat edi. So'rovnomaning ishonchliligi va validligini tekshirish maqsadida pilotaj tadqiqot olib borildi. Bunda Toshkent shahar Olmazor tumanida joylashgan 22-maktab o'quvchilari ishtirok etdilar. Eksperimental tadqiqot natijalari asosida 36 nafar sinaluvchidan boshlab normal taqsimot qonuni amal qilishi isbotlangan [3,59], [4]. Shunga tayangan holda biz pilotaj tadqiqotda 50 nafar ishtirokchi bilan kifoyalandik.

So'rovnomaning 4, 9, 13, 17-savollari yolg'on shkalasiga tegishli bo'lib, unda quyidagi savollar bilan ishtirokchilarga murojaat etildi:

1. Hayotingiz davomida biror marotaba bo'lsa ham atrofdagilar sizga nisbatan qo'pol va nohaq munosabatda bo'lishganmi?

2. Biror bir savolga noto'g'ri javob berishdan qo'rqqan vaqtingiz bo'lganmi?

3. Siz o'z xulq-atvoringizda birorta kamchilik sezganmisiz?

4. O'qituvchi tomonidan berilgan savolga har doim to'g'ri javob berasizmi?

Ushbu yolg'on shkalasi bo'yicha to'plangan ball $2 \leq X$ bo'lsa, natijalarni belgilashda sinaluvchi nosamimiylikka yo'l qo'ygan deb hisoblandi. Pilotaj tadqiqotni olib borishda ushbu shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkich namoyon bo'lganligi tufayli ikki nafar o'quvchining natijalari inobatga olinmadi.

So'rovnoma savollarini tahlil qilish maqsadida vazifalarning aniqlilik indeksi o'rganildi. Normal taqsimot qonuniga ko'ra, ishtirokchilar bergan javoblari grafik ko'rinishida aks ettirilsa, parabola hosil bo'lishi lozim. Ya'ni o'rtacha ko'rsatkich ko'pgina ishtirokchilarda kuzatiladi. Bundan bir savolga ishtirokchilarning 25%idan kam qismi va 75%idan ko'p qismi bir xil javob berishi normal taqsimot qonuniga to'g'ri kelmaydi. Vazifalarning aniqlilik indeksini hisoblash ham ushbu qonuniyatga asoslanadi. Ya'ni natijalar 0,25 dan 0,75 gacha oraliqda bo'lishi talab etiladi. So'rovnoma savollarining ishonchliligini tekshirish maqsadida ushbu qoidaga amal qilgan holda yondoshdik [1,173]. Har bir savol bo'yicha ishtirokchilarning bergan javoblari asosida savollarning aniqlilik indeksi hisoblab chiqildi. Natijalar 1-jadvalda aks ettirildi.

Natijalardan ko'rinadiki, 4,9,13,17-savollar yolg'on shkalasiga tegishli bo'lganligi tufayli savollarning aniqlilik indeksi 0,03 ko'rsatkichdan past natijalarni namoyon etdi. Bu holat savol mazmunida ko'zda tutilganidek, ishtirokchilarning aksariyati javoblarni belgilashda samimiy munosabatda bo'lganidan darak beradi.

1-jadval

“O‘smir o‘quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash so‘rovnoma”dagi
savollarning aniqlilik indeksi

Ko‘rsatkich	Savol tartib raqamlari																	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
Savollarning aniqlilik indeksi	0,8	0,84	0,52	0,01	0,56	0,68	0,48	0,64	0,03	0,8	0,64	0,72	0,01	0,6	0,84	0,48	0,01	0,36

So‘rovnoma savollarining aniqlilik indeksi 1-savolda 0,8 ga; 2-savolda 0,84 ga; 10-savolda 0,8 ga; 15-savolda 0,84 ga teng ko‘rsatkichni namoyon etdi. Qolgan savollar esa normal taqsimot qonuniga muvofiq 0,25-0,75 oralig‘idagi miqdoriy ma’lumotlarni aks ettirdi. Natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagicha mushohada yuritish mumkin: birinchi savolda ishtirokchilarga “Tasavvur qiling, maktabingizda yosh ijodkorlar ko‘rik tanlovi o‘tkazilmoqda. Siz sinfingiz nomidan unda ishtirok etmoqdasiz. Shartga ko‘ra 1 metr mato berilsa, qisqa fursat ichida undan o‘ziga xos noyob narsa yarata olasizmi?”, – degan savol bilan murojaat etildi. Bu savolga sinaluvchilarning 20 %igina “ha” deb javob berishdi, ya’ni savolning aniqlilik indeksi 0,8 ga teng. Ushbu savolga javob berish chog‘ida ko‘pchilik o‘g‘il bolalarda “bu qizlar uchun mo‘ljallangan savol”, – degan e’tiroz uyg‘ondi. Bundan ko‘rinadiki, bu savol barcha o‘quvchilar xususiyatlarini birdek qamrab ololmaydi. Shu tufayli biz ushbu savolni so‘rovnoma matnididan olib tashladik.

So‘rovnomaning ikkinchi – “Qattiqqo‘l o‘qituvchi darsga kirib, o‘quvchilardan yodlagan she‘rlarini ifodali o‘qishni talab qilsa, navbat sizga kelganda, she‘r yaxshi yodlangan bo‘lsa ham, uni unutib qo‘yishingiz mumkinmi?”, – degan savolda aniqlilik indeksi 0,84 ga teng ko‘rsatkichni namoyon etdi. Bundan ko‘rinadiki, qattiqqo‘l o‘qituvchining so‘rovi ko‘p hollarda xavotirlanish holatining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu holatda insonda noxush voqealardan himoyalaniish refleksi vujudga kelib, fiziologik o‘zgarishlar, xotiraning zaiflashuvi holatlari sodir bo‘ladi. Demak, bu holatda ko‘pchilikda birdek reaksiya kuzatilar ekan, bu savol ijodiy tafakkurning namoyon bo‘lishida xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash imkonini bermaydi. Shu tufayli ushbu savolni ham so‘rovnoma tarkibidan olib tashladik.

So‘rovnomaning 10-savoli (“Ota-onalar majlisida o‘qituvchingiz ota-onalarga farzandlarining o‘zlashtirishlarini ma’lum qilish uchun o‘quvchilarga erkin mavzuda rasm chizishni topshirsa, ularning nazorati ostida siz chizadigan rasmingiz uchun tezda mavzu topa olasizmi?” savoli)da 0,8 ga hamda 15-savol (“Biror vaziyatdan xavotirlanganingizda odatda yecha oladigan masalaning yechimini topa olmay qolishingiz mumkinmi?” savoli)da 0,84 ga teng bo‘lgan aniqlilik indeksi ko‘rsatkichlari namoyon bo‘ldi. Demak, bu savollar ham ko‘pchilikka xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni aks ettiradi. Shu tufayli ushbu savollar ham tahlil natijalaridan so‘ng so‘rovnoma ishonchliligini ta’minlab bera olmaydi deb hisoblanib, matndan chiqarib tashlandi.

So‘rovnomaning ishonchliligini aniqlashda retest usulidan foydalanildi. Bunda birinchi tadqiqot natijalaridan 2 oy vaqt o‘tgach, sinaluvchilarda so‘rovnoma takroran o‘tkazildi. Birinchi va ikkinchi tajriba natijalari o‘rtasidagi aloqadorlikning ahamiyatlilik darajasi K.Pirson korrelyatsiya koeffitsienti yordamida hisoblandi. Natijalar asosida 2-jadval hosil qilindi. Jadvalda keltirilgan natijalardan ham ko‘rinadiki, qayta ishlash va tahlil qilish asosida hosil bo‘lgan savolnoma savollari ishonchlilik darajasi bo‘yicha ahamiyatli ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Bunda har bir savol bo‘yicha birinchi tadqiqot va qayta eksperiment o‘tkazish

orqali olingan miqdoriy ma'lumotlar K.Pirson korrelyatsiyasi bo'yicha 0,75 ko'rsatkichdan yuqori natijalarni aks ettirdi. Bu so'rovnoma savollarining ishonchligini bildiradi.

2-jadval

“O'smir o'quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash
so'rovnoma”dagi savollarning ishonchlilik darajasi

Mate matik- statistik ko'rsatkich	Savol tartib raqamlari													
										0	1	2	3	4
Korrel yatsiya koeffitsiyenti	88*	96*	93*	75*	94*	90*	93*	87*	91*	97*	82*	84*	98*	78*
	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*

Izoh: ** $p \leq 0,01$

So'rovnoma savollarining o'zaro mazmuniy yaqinligini aniqlash maqsadida olingan natijalar faktorli tahlil metodi yordamida qayta ishlandi. Bunda faktorli tahlilning varimaks usuli qo'llandi. Tahlil natijalariga ko'ra, so'rovnoma savollarining o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni namoyon etganligini ko'rish mumkin. Ushbu bog'liqliklardan kelib chiqqan holda SPSS dasturiy ta'minoti yordamida 5 ta faktor bo'yicha faktor yuklanishlari aniqlandi. Har bir faktor bo'yicha yuqori yuklanishlarni namoyon etgan savollar mazmunan o'zaro yaqinlikni ifoda etadi. Natijalarga ko'ra 2, 5, 7, 8-savollar birinchi faktor bo'yicha o'zaro faktor yuklanishlarini aks ettirdi. Bunda o'quvchilardagi xavotirlanishga beriluvchanlik darajasining topshiriqni bajarish tezligi va atrofdagilar nazorati bilan bog'liqlik jihatlarini ko'rish mumkin. 4, 9-savollar esa 2-faktor bo'yicha yuqori yuklanishlarni namoyon etdi. Bu savollar mazmunan o'rganilganda qisqa fursat ichida ijodkorlikni aks ettirish vazifasining topshirilishi xavotirlanish holatining yuzaga kelishiga sabab bo'lishini ko'rish mumkin. 3-faktor bo'yicha esa 3,6-savollar mazmuniy aloqadorlikni namoyon etdi. Ushbu savollarda hal qiluvchi vaziyatlardagi mavjud bilimning unutilishi tanqidga uchrash xavfini yuzaga keltirishiga asoslanadi. 4-faktor bo'yicha 1,3,8-savollarda yuqori yuklanishlarni ko'rish mumkin. Bu savollar o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy vaziyatlardagi xavotirlanish bilan bog'liqdir. 5-faktor bo'yicha esa 1,10-savollar ichki aloqadorlikni aks ettirdi. Bu savollar xavotirlanish holatining yuzaga kelishi mas'uliyat hissining mavjudligi bilan bog'liqlikni ifoda etadi. Faktorli tahlil natijalaridan kelib chiqib, o'smirlar tomonidan ijodiy tafakkurni namoyon etish jarayonida xavotirlanishga beriluvchanlikning quyidagi asosiy jihatlarini qayd etish mumkin:

- 1) topshiriqni bajarish tezligi va atrofdagilar nazorati bilan bog'liqligi;
- 2) qisqa fursat ichida ijodkorlikni namoyon etish;
- 3) tanqidga uchrash xavfining yuzaga kelishi;
- 4) ijtimoiy vaziyatlardagi xavotirlanish;
- 5) vaziyatga nisbatan ichki motiv va mas'uliyat hissining mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan faktorli tahlil natijalardan ham ko'rinib turibdiki, xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini diagnostika qilish uchun ishlab chiqilgan metodika xavotirlanishning turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Shunga muvofiq ushbu so'rovnomaning yetarlicha ishonchli empirik ma'lumotlarni to'plash imkoniyati mavjud bo'lgan psixodiagnostik vositalar qatoriga kiritish mumkin. Ammo faktorli tahlil natijalari Kayzer-Meyer-Olkinning tanlanma adekvatligini ta'minlovchi mezoniga ko'ra [5, 294] 0,5 ko'rsatkichdan past bo'lganligi tufayli so'rovnomaning shkalalarga ajratishda faktorli tahlil natijalariga ko'ra xulosalar berilmadi. Ushbu natijalardan savollarning umumiy bog'liqligini o'rganishda foydalanildi. Shu tufayli biz

so'rovnomaning shkalalarga ajratishda A.M.Prixojanning "Shaxs bilan bog'liq xavotirlanishni o'rganish metodikasi" bilan aloqadorligiga hamda savollar mazmuniga e'tibor qaratdik.

So'rovnoma savollarining validligini tekshirish maqsadida dastlab mazmuniy validlik o'rganildi. Bunda so'rovnoma bir guruh psixolog mutaxassislardan iborat ekspertlar hukmiga havola etildi. Sinaluvchilar uchun tushunarli emaslik xavfini tug'diruvchi savollar tahrir qilindi. Konkurent validlikni aniqlash maqsadida so'rovnoma savollarining "Shaxs bilan bog'liq xavotirlanishni o'rganish metodikasi" (A.M.Prixojan) natijalari bilan aloqadorligi tekshirildi. Bunda K.Pirson chiziqli korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash metodi qo'llandi. Biz A.M.Prixojan metodikasining N.G.Kamilova tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan va moslashtirilgan variantidan foydalandik [6]. Natijalarga ko'ra korrelyatsiya koeffitsienti 0,716ga teng bo'lib, ahamiyatli darajada ($r \leq 0,01$)gi aloqadorlikni namoyon etmoqda. So'rovnomaning har bir savoli bo'yicha ham korrelyatsion bog'liqlik hisoblanganda, ahamiyatli bog'liqliklar aniqlandi (3-jadval). Ushbu natijalarni hisoblashda yolg'on shkalasi savollari va yuqorida keltirib o'tilgan so'rovnomadan ko'zlangan maqsadni yoritib bera olmaydi, deb hisoblangan to'rtta vaziyatli savollar inobatga olinmadi.

3-jadval

O'quvchilardagi xavotirlanish darajasining xavotirlanishga beriluvchanlik ko'rsatkichi bilan o'zaro korrelyatsion aloqadorligi

Ko'rsatkich	So'rovnoma savollari									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Xavotirlanish darajasi	0,12	0,34*	0,4**	0,19	0,68**	0,26	0,66**	0,34*	-0,01	0,26

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Natijalardan ko'rinadiki, 2, 3, 5, 7, 8-savollar A.M.Prixojan taklif etgan «Xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi bilan ahamiyatli darajada korrelyatsion aloqadorlikdadir. Ya'ni ushbu savollarda keltirilgan vaziyatlar xavotirlanish holati bilan o'zaro bog'liqlikni namoyon etdi. Xavotirlanishning ortishi ushbu vaziyatlarda ijodiy tafakkurning pasayishini ko'rsatadi. So'rovnomaning ma'lum savollari xavotirlanishning umumiy ko'rsatkichi bilan korrelyatsion aloqadorlikni namoyon etmagani uchun so'rovnomaning har bir savoli A.M.Prixojan taklif etgan «Xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi savollari bilan bog'liqligi tekshirildi. Natijalardagi o'zaro ahamiyatli aloqadorliklardan ham ko'rinadiki, 3-jadvalda aloqadorlikni aks ettirmagan savollar ham xavotirlanishning ma'lum bir jihatini yoritib bera oladi. Ammo mazmunan birinchi toifadagi savollardan farq qiladi. Shunga asoslanib, so'rovnomaning ikki shkalaga ajratish mumkin. Birinchi shkalaga tegishli savollarda ijodiy tafakkurning pasayishi xavotirlanishning ortishi bilan bog'liq bo'lib, ular quyidagi savollarni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Maktabga tekshiruvchilar kelib, har bir o'quvchidan insho olish orqali ularning bilimlarini tekshirayotgan bo'lsa, navbat sizga kelganda, ularning nazorati ostida inshoni boshqa vaqtdagidek yoza olasizmi?

2. Tasavvur qiling, ko'rik tanlovlarda qatnashishingizga to'g'ri keldi. Hay'at a'zolari tomonidan qiziqarli masala berilsa, miyangizga hech qanday javob varianti kelmay qolishi mumkinmi?

3. Ona tili darsida eng birinchi bo'lib hikoyani mazmunli davom ettira olgan o'quvchigagina baho qo'yilsa, siz hikoyani boshqa vaqtdagidek yoza olasizmi?

4. Maktabingizga kelgan tekshiruvchi sinfingizga kirib 3 ta gugurt qutisini berib, shundan biror bir antiqa narsa yasash topshirig'ini bersa, qisqa fursat ichida buning uddasidan chiqa olasizmi?

5. Darsda o'qituvchi muammoli savol bersa tezda o'ziga xos javob topa olasizmi?

Ikkinchi shkala esa ijodiy tafakkurning o'quvchi shaxsiy xislatlari, qobiliyatlari, intellektual salohiyati, motivasiyasi bilan bog'liqlik jihatlarini namoyon etadi. Ushbu shkalada quyidagi savollar o'z aksini topgan:

1. Agar darsga tayyorlanmay kelgan bo'lsangiz, o'qituvchi birinchi bo'lib sizni doskaga chiqarsa, bor bilimlaringizdan foydalanib, vaziyatdan chiqib keta olasizmi?

2. Qisqa fursat ichida noyob g'oya o'ylab topishga to'g'ri kelsa, siz darhol buning uddasidan chiqasizmi?

3. Maktab direktori sinfingizdagi o'quvchilar aqliy qobiliyatlarini tekshirish uchun har bir o'quvchi bilan o'z xonasida birma-bir suhbat olib borsa, navbat sizga kelganda bilgan savolingizga ham javob topa olmay qolishingiz mumkinmi?

4. Adabiyot darsidan chorak bahoingizni ko'tarish uchun qisqa fursat ichida insho yozib bera olasizmi?

5. Aytaylik, maktab devoriy gazetasi tayyorlash sizga topshirildi. Uni o'qituvchilar xonasiga kirib, dars tugagunicha tugatishingiz lozimligi aytilsa, siz tayyorlagan ish boshqa vaqtda tayyorlashingiz mumkin bo'lgan devoriy gazetadan yaxshiroq bo'lishi mumkinmi?

NATIJA

Tahlil natijasidan so'ng so'rovnoma ikki shkalaga ajratilgach, har bir shkaladagi savollar mazmunan o'rganib chiqildi va ulardagi umumiy xususiyat tadqiq etildi. Bunga ko'ra xavotirlanishning ijodiy tafakkurga ta'sirida oraliq omilning o'rnini ko'rish mumkin. Birinchi shkala savollari mazmunida jamoaning ta'siri masalalari muhim o'rin egallab, odamlar orasida o'z ijodiy tafakkur xususiyatlarini namoyon etishda xavotirlanishning kuchayishi va bu holat o'z ijod namunasini aks ettirishda to'siqlarning vujudga kelishiga sabab bo'lishi yoritilgan. Ya'ni bu jarayonda insonda majburiyat hissi hosil bo'ladi. Shu tufayli biz bu shkalada xavotirlanishning ijodiy tafakkurga ta'sir etishida oraliq omil sifatida majburiyat hissining mavjudligini inobatga olib, shartli ravishda uni "majburiyat" shkalasi deb nomladik. Ikkinchi shkala savollari esa o'quvchining o'z imkoniyatlarini namoyon etishida o'qituvchi bilan yakkama-yakka qolish, guruh va jamoa ta'sirining mavjud emasligini o'zida aks ettiradi. Bu vaziyat ma'lum ma'noda xavotirlanish holatini susaytirib, ijodiy tafakkurni namoyon etishda erkinlikning mavjud bo'lishiga olib keladi. Bunda oraliq omil mas'uliyat hissi ekanligini ko'rish mumkin. Shu tufayli ikkinchi shkalani shartli ravishda "mas'uliyat" shkalasi, deb nomladik.

Keltirilgan savollar orqali kalit bo'yicha natijalar hisoblanib, o'quvchilarda ijodiy tafakkurning namoyon bo'lishida xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini o'rganish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fanda shaxs emotsional holatini tadqiq etishga qaratilgan ko'pgina metodikalar ishlab chiqilgan. Ammo xavotirlanishning ijodiy tafakkur mahsullarini namoyon etishga ta'sirini o'rganuvchi metodikaga duch kelmadik. Shundan kelib chiqib tadqiqotimiz davomida o'smir o'quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash so'rovnomasi tuzildi hamda pilotaj tadqiqot davomida uning ishonchligi va validligi tekshirilib, qayta ishlandi. So'rovnomadan ilmiy tadqiqotlarda diagnostik maqsadda foydalanish mumkin. Quyida so'rovnoma matnini to'liq keltirib o'tamiz:

O'smir o'quvchilarda xavotirlanishga beriluvchanlik darajasini aniqlash so'rovnomasi

Ko'rsatma: Hurmatli ishtirokchi! Biz sizning ushbu tadqiqotimizda ishtirok etayotganingizdan behad mamnunmiz. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi xavotirlanish va ijodkorlik holatlarini o'rganib, olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, ma'lum chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni keng ommaga tadbiq etishdan iborat. Buning natijasida ta'lim samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Siz ushbu ishtirokingiz orqali ilm-fanga katta hissa qo'shasiz. Sizga yana shuni eslatib o'tamizki, test natijalarining sir saqlanishi kafolatlanadi va mutlaqo oshkor qilinmaydi.

Tadqiqot natijalari faqat ilmiy maqsadlarda qo'llaniladi. Javoblaringizning rost va samimiyligi tadqiqotimiz uchun juda muhim.

1. Agar darsga tayyorlanmay kelgan bo'lsangiz, o'qituvchi birinchi bo'lib sizni doskaga chiqarsa, bor bilimlaringizdan foydalanib vaziyatdan chiqib keta olasizmi?
2. Hayotingiz davomida biror marotaba bo'lsa ham atrofdagilar sizga nisbatan qo'pol va nohaq munosabatda bo'lishganmi?
3. Maktabga tekshiruvchilar kelib, har bir o'quvchidan insho olish orqali ularning bilimlarini tekshirayotgan bo'lsa, navbat sizga kelganda, ularning nazorati ostida inshoni boshqa vaqtdagidek yoza olasizmi?
4. Tasavvur qiling, ko'rik tanlovlarda qatnashishingizga to'g'ri keldi. Hay'at a'zolari tomonidan qiziqarli masala berilsa, miyangizga hech qanday javob varianti kelmay qolishi mumkinmi?
5. Qisqa fursat ichida noyob g'oya o'ylab topishga to'g'ri kelsa, siz darhol buning uddasidan chiqasizmi?
6. Ona tili darsida eng birinchi bo'lib hikoyani mazmunli davom ettira olgan o'quvchigagina baho qo'yilsa, siz hikoyani boshqa vaqtdagidek yoza olasizmi?
7. Biror bir savolga noto'g'ri javob berishdan qo'rqqan vaqtingiz bo'lganmi?
8. Maktab direktori sinfingizdagi o'quvchilar aqliy qobiliyatlarini tekshirish uchun har bir o'quvchi bilan o'z xonasida birma-bir suhbat olib borsa, navbat sizga kelganda bilgan savolingizga ham javob bera olmay qolishingiz mumkinmi?
9. Maktabingizga kelgan tekshiruvchi sinfingizga kirib 3 ta gugurt qutisini berib, shundan biror bir antiqa narsa yasash topshirig'ini bersa, qisqa fursat ichida buning uddasidan chiqasizmi?
10. Siz o'z xulq-atvoringizda birorta kamchilik sezganmisiz?
11. Darsda o'qituvchi muammoli savol bersa, tezda o'ziga xos javob topa olasizmi?
12. Adabiyot darsidan chorak bahoingizni ko'tarish uchun qisqa fursat ichida insho yozib bera olasizmi?
13. O'qituvchi tomonidan berilgan savolga har doim to'g'ri javob berasizmi?
14. Aytaylik, maktab devoriy gazetasi tayyorlash sizga topshirildi. Uni o'qituvchilar xonasiga kirib, dars tugaganicha tugatishingiz lozimligi aytilsa, siz tayyorlagan ish boshqa vaqtda tayyorlashingiz mumkin bo'lgan devoriy gazetadan yaxshiroq bo'lishi mumkinmi?

Natijalarni qayta ishlash tartibi:

Kalit bilan muvofiq kelgan har bir javobga bir balldan beriladi.

Kalit:

Yolg'on shkalasi: Ha: 4. Yo'q: 3, 6, 9, 11.

Mas'uliyat shkalasi: Ha: 8 Yo'q: 1, 5, 12, 14.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. Учебник для вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2010. – 384 с.
2. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога. Учеб. пособие. В 2 кн. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999. Кн.1: Система работы психолога с детьми разного возраста. –384 с.
3. Сикевич З.В. Социологическое исследование: практическое руководство. – СПб.: Питер, 2005. – 320 с.
4. Джарол Б.Мангейм, Ричард К. Рич. Политология. Методы исследования: Пер. с англ. /Общ. ред. и вступ. ст. А.К.Соколова. – М.: Весь Мир, 1999. – 544 с.

5. Наследов А.Д. Математические методы психологического исследования. Анализ и интерпретация данных. Учебное пособие. 3-е изд., стереотип. –СПб.: Речь, 2007. – 392 с.
6. Kamilova N.G. Muammoli o‘smir: tashxis, tadqiqot metodlari. – T.: TDPU, 2004. – 67 b.

22.00.00 – Sotsiologiya

ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA DINIY AN'ANALARNI O'RGANISHDAGI YONDASHUVLAR

Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi

“University of economics and pedagogy”

NOTM o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada marosim va an'ana tushunchalari tahlil qilinib, ularning xalq madaniyatidagi o'rni, tarixiy jarayonlardagi o'zgarishi va zamonaviy davrdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va marosimlarning xalq hayotidagi davomiyligi, ularning islom dinining kirib kelishi bilan sinkretlashishi jarayoni alohida ta'riflangan. O'zbekistonning tarixiy va madaniy rivojlanishida diniy marosimlarning ijtimoiy roli hamda ularning xalq madaniyati bilan o'zaro ta'siri ko'rsatilgan. Tadqiqotda o'zbek xalqining qadimiy va zamonaviy diniy marosimlari, ular orasidagi o'zaro bog'liqlik va milliy xususiyatlar muhim ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Maqola o'zbek diniy an'analari va marosimlarining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning jamiyatdagi o'rni haqida chuqur ilmiy tahlil olib borilgan.

Kalit so'zlar: Diniy an'ana, marosim, e'tiqod, diniy urf-odatlar, islom, qadimgi dinlar, milliy madaniyat, madaniy meros, dinshunoslik, diniy marosimlar, o'zbek madaniyati.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ РЕЛИГИОЗНЫХ ТРАДИЦИЙ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация: В статье анализируются понятия обрядов и традиций с указанием их места в народной культуре, изменения в исторических процессах и значения в современную эпоху. Отдельно описана преемственность религиозных верований, обычаев и обрядов в жизни народа, процесс их синкретизации с приходом ислама. Показана социальная роль религиозных обрядов в историческом и культурном развитии Узбекистана, а также их взаимодействие с народной культурой. В исследовании анализируются древние и современные религиозные обряды узбекского народа, взаимосвязи между ними и национальные особенности с важной научной точки зрения. В статье проведен углубленный научный анализ особенностей узбекских религиозных традиций и обрядов и их места в обществе.

Ключевые слова: религиозная традиция, ритуал, вера, религиозные обычаи, ислам, древние религии, национальная культура, культурное наследие, религиоведение, религиозные обряды, узбекская культура.

APPROACHES TO STUDYING RELIGIOUS TRADITIONS IN MODERN RESEARCH

Abstract: the article analyzes the concepts of ritual and tradition and shows their place in folk culture, their change in historical processes and their importance in the modern era. The duration of religious beliefs, customs and rituals in the life of the people, the process of their syncretization with the introduction of the Islamic religion, is described separately. In the historical and cultural development of Uzbekistan, the social role of religious rituals and their interaction with the culture of the people are shown. The study analyzed the ancient and modern religious rites of the Uzbek people, the relationship between them and national characteristics from an important scientific point of view. The article is an in-depth scientific analysis of the peculiarities of Uzbek religious traditions and rituals and their place in society.

Keywords: religious tradition, ritual, belief, religious traditions, Islam, ancient religions, national culture, cultural heritage, religious studies, religious ceremonies, Uzbek culture.

Kirish. Har bir xalqning boshqasidan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilaridan biri uning marosimlari hisoblanadi. Marosim inson hayotida moddiy va ma'naviy talab va ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqacha tarzda aytadigan bo'lsak, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbiridir.

O'tgan XX asr so'nggi choragidan boshlab dunyo miqyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va aynan mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi dolzarb mavzulardan biri tarzida e'tirof etila boshlandi. Ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari etnik xususiyatlarni saqlanib qolish omillari va milliy marosimlarni tadqiq etish masalasini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Urf-odatlar, marosimlar tarixan shakllangan va avloddan-avlodga o'tib boradigan, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan va doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, xulq-atvor normalari va ko'nikmalaridir. Ularning shakllanishiga xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, xo'jalik yuritishning o'ziga xosligi, tabiiy muhit kabi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Har bir davr kishilarining ehtiyojlariga javob tariqasida yangi urf-odat va marosimlarni shakllantirishi mumkin. Mustaqillik sharofati o'laroq paydo bo'lgan va qayta tiklanayotgan urf-odat va marosimlar bunga misol bo'la oladi.

"An'ana" - ([lotincha](#): tradition - davomiylik) - ijtimoiy-madaniy merosning uzoq vaqt davomida odamlar otadan bolaga qoldiradigan, odatga aylangan, o'sha jamiyatning yoki ijtimoiy guruhning qadriyatlar tizimi bilan qoidalariga bog'langan qismi. An'ana nafaqat merosning shakllarinigina emas, balki ijtimoiy meros jarayoni va uning usullarini ham o'z ichiga oladi. An'ana - o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat bo'lib, u milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa turlarga bo'linadi. An'analarda xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an'analarning shakllanishiga ta'sir qiladi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me'yorlari, urf-odat, marosim va boshqalar an'ana sifatida namoyon bo'ladi. An'analarni:

- a) ijtimoiy-tarixiy hodisa;
- b) jamiyat hayotidagi jarayonlarning tarkibiy qismi;
- v) kishilar hayoti va faoliyatini belgilash mezoni;
- g) jamiyat va odamlarni boshqarishning ma'naviy omillaridan biri sifatida tavsiflash mumkin.

An'analarda yoshlarni tarbiyalash, ularni keksa avlod tajribalariga o'rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o'z an'analari bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib, mazmunan boyib boradi, ba'zilari yo'qoladi, yangilari vujudga keladi. Shuningdek, bir zamonning an'analari ikkinchi zamonga mos kelmasligi mumkin. Davr talabiga javob bermaydigan an'analarda unutiladi.

Har bir xalqning an'analarda o'sha xalqning turmush tarzi, madaniy kamolot darajasi, milliy ong va qiyofasi ham aks etadi. Bir hudud aholisi yoki xalqiga xos an'analarga har xil mafkuraviy nuqtai nazardan yondoshish, boshqa hudud yoki xalq nuqtai nazaridan baholash noto'g'ri. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng sobiq sho'rolar tuzumida joriy etilgan

an'anaviy bayram va tantanali kunlarning ko'plari o'z ahamiyatini yo'qotdi. O'zbek xalqining qadimdan tarkib topgan, hozir ham keng amal qilinadigan an'analari bor. Bular jumlasiga keksalarga hurmat, qarindosh-urug', mahalla-ko'y bilan oqibatli, yaqin aloqada bo'lish, el-yurtga sadoqat, hashar, mehmondo'stlik, nonni e'zozlash va boshqalar kiradi. O'zbekistonda Navro'z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti va boshqa xalq bayramlari yaxshi an'analari sifatida hayotga singib ketgan.

"Marosim" tushunchasiga ikki xil ta'rif yoki yondashuv mavjud. Birinchi ma'nosi "diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan ma'raka, yig'in" bo'lib, unga diniy marosimlar, to'y marosimlari, dafn marosimi va boshqalar kiradi. Ikkinchi ma'nosida "tananalar bilan o'tkaziladigan rasmiy yig'in" tushuniladi. Bunda yubileylar, mukofot berish marosimi, ziyoratgohlarning ochilish marosimlari va boshqalar misol bo'la oladi.

Mazmuniga ko'ra dunyoviy va diniy, tarqalishi doirasi yoki sohibiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy urf-odat va marosimlar mavjud. Diniy an'ana va e'tiqodlar o'zaro uzviy hamda izchildir. Shu bilan birga, qo'shni xalqlarda bir xil, tutash e'tiqodlar va ma'budalar bo'lishi tabiiy, chunki ularda mifologiya, folxlor, yaxshi va yomon ilohiy kuchlar va marosimlar bir xil yoki o'xshash bo'lgan. Bir mintaqada xalqlarida qadimgi diniy topinishlarning quramasi asosida yangi diniy tasavvurlar va e'tiqodlar vujudga kelishi tabiiy bo'lib, muayyan darajada tegishli aqidalar vujudga kelgan.

Diniy marosimlar - fuqarolarning diniy ta'limotlardan, ularning qonun-qoidalarini va aqidalaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari bo'lib, mazkur marosimlar diniy e'tiqod, ibodatning amaldagi ko'rinishi hamda barcha dinlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Diniy marosimlar diniy tasavvur va sig'inishlar orqali vujudga kelgan.

Adabiyotlar tahlili: Mavzuning o'rganilganlik darajasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak avval H.Homidov, S.Hasanov, M.Isxoqov, J.Yo'ldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Mahmudova, A.Asqarov singari o'zbekistonlik olimlar, A.O.Makovelskiy, M.Boys kabi olimlar ushbu sohada ish olib borganlar.

Taniqli avestashunos olimi Meri Boysning zardushtiylik tadqiqotlariga bag'ishlangan "Zardushtiylik urf-odat an'ana va marosimlar" nomli asari 1979-yilda nashr qilingan. Meri Boys o'zining ushbu kitobida zardushtiylik dini vujudga kelgandan to hozirgi kungacha bo'lgan davrini zardushtiy jamoalarining urf-odat an'ana va marosimlarini yoritib berishga harakat qiladi.

Dunyo dinlarini o'rganish jarayonida ularning barchasida marosimlarning o'ziga xos tizimi shakllanganiga guvoh bo'lish mumkin. Insonning tug'ilishi, oila qurishi va vafotiga doir urf-odatlar ana shu marosimlar tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Dafn marosimlari insoniyat hayotida muhim o'rin tutganligi bois dunyo dinlarining barchasida mazkur marosimlarni tartibga solishga qaratilgan qonun-qoidalar majmuasi yuzaga kelgan.

O'zbekiston zaminida qadimdan turli madaniyatlar va diniy e'tiqodlar mavjud bo'lgan. Ta'limotlarning ayrim marosimlari zamonlar o'tishi bilan urf-odatga aylanib, ota-bobolarning udumlari sifatida xalq ongiga singib ketgan. Mazkur marosimlar e'tiqodlar almashinuvi natijasida ham butkul yo'q bo'lib ketmagan, balki xalq turmush tarzining ajralmas qismi sifatida bugungi kunda ham amalda bo'lib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqola diniy an'analarga oid ilmiy tadqiqotlar, tarixiy manbalar va arxeologik materiallardan foydalanib yozilgan. Tadqiqotning asosiy uslubi tarixiy va madaniy tahlilga asoslangan bo'lib, diniy marosimlarning tarixiy jarayonini, ularning o'zgarishini va zamonaviy o'zbek xalqining diniy an'analariidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatadi. Shu bilan birga, turli dinlar va ularning marosimlarining xalq hayotidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda o'zbek olimlarining ilmiy ishlariga, jumladan H. Homidov, S. Hasanov, M. Isxoqov va boshqa olimlarning ishlari asosida yondashuvlar keltirilgan.

Diniy e'tiqodni barpo etish va uning mavqeini risoladagiday ushlab turish uchun zaruriy va asosiy muhitlardan biri diniy marosim bo'lib, uning jarayoni asosiy g'oyani ifodalashga

qaratilgan bo'ladi. Mazkur e'tiqod davlat maqomiga erishgach, diniy marosim umumxalq darajasiga ko'tariladi va asrlar osha ham insonlar ongiga hukmronlik qiladi. Shohlar bu e'tiqod kuchidan o'z hukmronligini saqlab qolish yo'lida mohirona foydalanadi, zodagonlar qatordan qolmaslikka intiladi, kambag'allar esa, kundalik hayot qiyinchiliklarini unutib, kelgusi hayot lazzati bilan ovunib yuradi. Sidqidildan ishongan alloma va fidoyilar unga hayotini baxshida etib, din yo'lida jonini ayamaydi. Zamonlar o'tishi bilan diniy e'tiqodlar almashib, xalq xotirasidan ko'tarilishi ham mumkin, ammo qadim marosimlar xalq orasida barhayot bo'lib, o'zida uzoq asrlar, ming yilliklar g'oyasi va mohiyatini sehlangan ko'zda saqlagandek maxfiy tutadi. Bu borada diniy an'ana va e'tiqodlarning uzviyligi hamda izchilligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, qo'shni xalqlarda bir xil, tutash e'tiqodlar va ma'budalar bo'lishi tabiiy, chunki ularda mifologiya, folklor, yaxshi va yomon kuchlar qatoridagi siymolar va marosimlar bir xil yoki o'xshash bo'lgan. Bir mintaqa xalqlarida qadimgi diniy topinishlarning quramasi asosida yangi diniy tasavvurlar va e'tiqodlar vujudga kelishi tabiiy bo'lib, muayyan darajada tegishli aqidalar vujudga keladi, desak ham bo'ladi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqotlar natijasida diniy marosimlar va an'analarning ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyati aniqlandi. Din, urf-odatlar va marosimlar har bir jamiyatning madaniyatining asosi bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlariga bog'liqdir. O'zbek xalqining diniy marosimlari qadim zamonlardan to bugungi kungacha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Islom dini kirib kelganidan so'ng ham, o'zbek xalqining an'analari va marosimlari islomiy g'oyalar bilan sinkretlashib, yangi shakllar va mazmunlar hosil qildi. Diniy an'analarning davomiyligi, ularning jamiyatda o'rni va ijtimoiy ahamiyati xalqlar o'rtasida o'zaro o'xshashliklar va farqlarni ko'rsatadi. Xususan, o'zbek xalqining diniy marosimlari xalq hayotiga chuqur singib ketgan va ular xalqning ruhiy va madaniy merosi sifatida saqlanib qolmoqda.

Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Din, tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar shu moddiy va ma'naviy madaniyatning bo'lishini tashkil etsa, xalq ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlari esa uning ildizidir. Har qanday madaniy taraqqiyot zamirida ma'lum bir diniy g'oyaga bo'lgan e'tiqod mavjud. Faqat diniy e'tiqodlarni anglash orqaligina sivilizasiyalar taraqqiyotini anglash mumkin. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosining yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston hududi g'oyat xilma-xil diniy e'tiqodlar, dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan mintaqa hisoblanadi.

Tarixiy manbalar va arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyoga islom kirib kelguniga qadar ajdodlar e'tiqodi, o'lib qayta tiriluvchi tabiat kulti va agrar kultlar kabi mahalliy kultlar bilan birga zardushtiylik, shomonlik, buddaviylik, moniylik, xristianlik kabi dinlar ham keng tarqalgan. Islom kirib kelganidan keyin ham ushbu e'tiqodlar bilan bog'liq marosim va urf-odatlar xalq hayotidan butkul yo'qolib ketmagan. Ular mahalliy aholi marosim va urf-odatlarida islomiy an'analari bilan sinkretlashgan tarzda saqlanib kelmoqda. Aynan mazkur xususiyat, bir tomondan, o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzining tarixiy asoslari va o'ziga xosligini o'rganishda muhim ahamiyatga molik. Boshqa tomondan esa mintaqadagi islom dini mahalliy xususiyatlarni chuqur ilmiy asosli tarzda o'rganishi imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa: Diniy an'ana va marosimlar har bir jamiyatda o'ziga xos bo'lib, ularning davomiyligi va o'zgarishi jamiyatning madaniy va diniy taraqqiyotini aks ettiradi. O'zbek xalqining diniy marosimlari va an'analari tarixiy jarayonlarda shakllanib, o'zaro o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, ular xalq hayotida mustahkam o'rin tutadi. O'zbekiston hududi turli diniy e'tiqodlar va marosimlarning tutashgan joyi sifatida, bu marosimlar va an'analarning o'rganilishi, ularning xalq madaniyati bilan bog'liqligi va o'zaro ta'siri muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, diniy marosimlar va an'analarning o'rganilishi

jamiyatning ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi va bu fanlar o'qitishda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Qadimda odamlar g'ayritabiiy kuchlarga turli marosimlar orqali ijobiy yoki salbiy ta'sir etish mumkin deb hisoblaganlar. Diniy marosimlarni bajarishda koinlar, keyinchalik ruhoniylar boshchilik qilgan. Ular o'z marosimlarini asta-sekin muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojiga moslagan. Islom dinida aqida, amri ma'ruf, xatna, ro'za tutish va ramazon hayiti, qurbonlik qilish va qurbon hayiti, namoz, haj, janoza, sunnat, nikoh, dafn va boshqa marosimlar bor. Yahudiylikda - ibodat, shanba kuni, tug'ilish, diniy balog'at, nikoh va dafn marosimlari alohida o'rin tutadi. xristian dini marosimlari misteriyalar (qad. dinlarning maxfiy marosimlari) ta'sirida shakllangan va asosan Iso Masih shaxsi bilan bog'liq. xristianlikdagi pravoslav va katoliklar yetti sirli marosim - cho'qintirish, non va vino totish, xushbo'y moy surish, badanni yog'lash, nikoh, tavba-tazarru va kashishlik (rohiblikka qabul qilish)ni tan oladilar. Protestantlar esa faqat cho'qintirish, non va vino totish marosimini e'tirof qiladilar. Buddizmda ertalabki va kechki ibodat, monaxlarga oziq-ovqat keltirish, tiyilish kuni, dunyoga kelish va balog'at yoshini nishonlash, nikoh, yangi uyga ko'chish, ajdodlarni xotirlash va dafn marosimlari mavjud.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev. SH. M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz", T.: "O'zbekiston" 2017– B.419
2. Ashirov.A.O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari-T:Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasi;2007 B.274
3. Ashirov.A Avesto» va zardushtiylarning oila turmush marosimlari haqida//O'zbekiston da ijtimoiy fanlar. – 2002. – No 1. – B. 20
4. Karamatov.H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi-T:sharq;2008-196-200
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ana%27ana> . 02.12.2024
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Marosim> . 02.12.2024
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Diniy_marosimlar. 02.12.2024